O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

O.M. OTAMIRZAYEV

YEROSTI SUVLARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH VA UNDAN OQILONA FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Monografiya

Toshkent – 2025

UO‘K: 349.6(035.3)(575.1)
KBK 67.407+31.5
O-86

Taqrizchilar:
J. Xolmo‘minov – yuridik fanlar doktori, professor
V. Xudoyberdiyeva – yuridik fanlar nomzodi, dotsent v.b.

Otamirzayev, O.M.

O-86 **Yerosti suvlarini huquqiy muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni takomillashtirish masalalari** [Matn]: monografiya / Otamirzayev Oybek Murodullo o‘g‘li – T.: TDYU nashriyoti, 2025. – 112 b.

Mazkur monografiyada hozirgi kunda dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan suv muammosi, xususan, yerosti suvlari bilan bog‘liq masalalar qonunchilik hamda ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan chuqur o‘rganilib, ularning mazmun-mohiyati atroflicha tahlil etilgan. Bugungi kunda yerosti suvlarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib, ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Ushbu jarayonda jahon tajribasiga tayanilgan holda yechim va takliflar ishlab chiqilgan. Monografiya huquqshunoslik sohasi bo‘yicha ta’lim olayotgan bakalavriat va magistratura talabalariga, shuningdek, ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar va mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

Mazkur monografiya Toshkent davlat yuridik universiteti Tadqiqot etikasi kengashining 2025-yil 25-sentabrdagi 1-sonli majlis bayonnomasi asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-554-89-6

© O.M. Otamirzayev, 2025.
© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2025.

MUNDARIJA

KIRISH 4

I BOB. YEROSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY HOLATI VA UMUMIY TAVSIFI 8
1.1. Yerosti suvlarining umumiy yuridik tavsifi tushunchasi 8
1.2. Yerosti suvlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishning predmeti va usullari 18
1.3. Yerosti suvlaridan foydalanuvchilar va iste'molchilarning huquq va majburiyatlari 34

II BOB. YEROSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHDAGI DAVLAT BOSHQARUVI 48
2.1. Yerosti suvlaridan foydalanish uchun ruxsat olish tartibi 48
2.2. Yerosti suvlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishda ekologik talablar 56
2.3. Yerosti suvlari ustidan davlat nazorati 68
2.4. Yerosti suvlari ustidan monitoring yuritish 80

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI 105

KIRISH

Dunyoda global iqlim o‘zgarishi, aholi soni va iqtisodiyot tarmoqlarining o‘sishi, ularning suvga bo‘lgan ehtiyoji va suv resurslari tanqisligi yildan yilga ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. **BMT ma’lumotlariga** ko‘ra, dunyo bo‘yicha qariyb 2.2 mlrd aholi toza ichimlik suvi iste’moli imkoniyatiga ega emas, 3.5 mlrd aholi esa toza texnik suvlarga ehtiyoji mavjud. 2050-yilda jahon aholisining 40 foizi chuchuk suv tanqisligini sezishi, 20 foizi esa chuchuk suvsiz yashashga majbur bo‘lishi ehtimol qilinmoqda[1]. Bu esa suvni tejash, uning ifloslanish darajasini pasaytirish hamda suvdan samarali foydalanish bo‘yicha qonunchilikni rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Suv qonunchiligini takomillashtirish orqali suv resurslarini muhofaza qilish va ularni global miqyosda saqlab qolishga oid huquqiy normalarni ishlab chiqish har bir mamlakat va jahon hamjamiyati uchun dolzarb masalaga aylanmoqda.

Iqlim o‘zgarishi suv ta’minoti va yerusti hamda yerosti suvlari resurslarining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu, ayniqsa, kam suvli yillarda, daryolar tabiiy rejimining o‘zgarishi natijasida kam suvli texnogen sharoitlar paydo bo‘lganda, shuningdek, yerusti oqimining o‘rtacha yillik xarajatlari sezilarli darajada pasayganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu, sizot suvlari zaxiralarining qisqarishiga olib keladi. Bundan tashqari, global iqlim o‘zgarishi natijasida so‘nggi 50-60 yil ichida Markaziy Osiyodagi muzliklar maydoni taxminan 60 foizga qisqardi. Prognozlarga ko‘ra, haroratning ko‘tarilishi muzliklar hajmining 50 foizga qisqarishiga olib keladi. Taxminlarga qaraganda, 2050-yilga kelib Sirdaryo havzasidagi suv resurslari 5 foizga, Amudaryo havzasidagi suv resurslari esa 15 foizga qisqaradi. Agar **2015-yilgacha O‘zbekistonda umumiy suv tanqisligi 3 mlrd m^3 dan ortiqni tashkil etgan bo‘lsa, 2030-yilga kelib 7 mlrd m^3, 2050-yilga kelib esa 15 mlrd m^3 ga** yetishi mumkin[2].

[1] The United Nations World Water Development Report 2024, Water crises threaten world peace (https://www.un.org/sustainabledevelopment/blog/2024/03/un-world-water-development-report/#:~:text=According%20to%20the%20new%20report,access%20to%20safely%20managed%20sanitation)

[2] O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. (2023). Atrof-muhit holati to‘g‘risida milliy ma’ruza: O‘zbekiston. Barqaror rivojlanish xalqaro instituti

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan berilgan ma’lumotlarga muvofiq, barcha kasalliklarning 80 foizi[3] iste’mol qilinadigan suv orqali o‘tadi. Bu esa suvlar bilan bog‘liq munosabatlarni to‘laqonli qamrab olish, ishlarni sifatli va keng hajmda muhofaza ishlarini amalga oshirishni talab qiladi.

Jahonda suv resurslarini muhofaza qilish va oqilona foydalanishga erishishda inqirozli vaziyatlarning oldini olish, yirik suv xo‘jaligi obyektlarini raqamli texnologiyalar asosida boshqarish, elektr energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, suv resurslaridan foydalanishni hisobga olishda **“Smart Water” (“Aqlli suv”)** raqamli texnologiyalarini joriy etish, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish, suv resurslariga zararli ta’sirning oldini olish tizimini yanada rivojlantirish, suv resurslarini muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari tizimini yagona majmuaga keltirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Suv resurslarining muhofazasida yerosti suvlarining o‘rni beqiyosdir. Dunyo hamjamiyati oldida tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishda qat’iy tartiblar belgilash va nazoratni kuchaytirish vazifalari asosiy o‘rin tutmoqda. Tabiat resurslarining bir shakli sifatida yerosti suvlari muhofazasi alohida o‘rin tutadi. Chunki mamlakatimizda aholining toza ichimlik suvi bilan ta’minotida yerosti suvlarining ulushi 67 %[4] ni tashkil etishi o‘zi ham bu sohaning dolzarbligidan dalolat bermoqda. Ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojning ortayotganligi, yerosti suvlarining asosan yerlarni sug‘orish va boshqa maqsadlarda olinishi natijasida yerosti suvlari sathining ko‘p yillik o‘rtacha sathidan pasayib ketish holatlari kuzatilmoqda.

2025-yil 28-may kuni Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida “**Yerosti suvlariga quduqlarni burg‘ilash va ulardan foydalanish munosabatlarini tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari”** mavzusida matbuot anjumani

[3] Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof muhit kuni bilan bergan ma’ruzasidan (https://press.un.org/en/2003/sgsm8707.doc.htm)

[4] O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining 2025-yil 24-yanvardagi majlisidan (https://parliament.gov.uz/news/islohotlarning-huquqiy-asoslarini-mustahkamlash-asosiy-vazifa)

bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi mas’ul vakillari tomonidan berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2019–2025-yillarda 1200 dan ortiq yerosti suvlarini noqonuniy burg‘ilash ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, ulardan 169 tasi ma’muriy javobgarlikka tortilgan, 257 tasiga ogohlantirish berilgan hamda 800 tasidan ortiq qismiga tegishli ruxsatnomalar rasmiylashtirilganligi qayd etildi.

Davlat rahbari ta’kidlaganidek, hozirgi kunda O‘zbekiston oldida turgan eng muhim muammolardan biri – suv resurslari yetishmasligi, cho‘llanish muammolari bilan bog‘liq. **Mamlakatimizning 80 foizi cho‘l va yarim cho‘llardan iboratdir**[5]. Global iqlim o‘zgarishining kuchayib borayotgan ta’siri butun dunyo mamlakatlarida aholi jon boshiga o‘rtacha yillik suv ta’minoti darajasini qisqartira boshlaydi. Shu bois barcha mamlakatlarda suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shunga ko‘ra, respublikamizda suv resurslarini muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratilib, bir qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining bir nechta farmon va qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning **2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi** qabul qilish va hayotga tatbiq etish, “bu boradagi ishlar yuzasidan keng ko‘lamli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Asosiy urg‘u suv xo‘jaligini modernizatsiya qilish va rivojlantirish, yirik suv xo‘jaligi obyektlarini raqamli texnologiyalar asosida boshqarishni avtomatlashtirish, elektr energiya va boshqa resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, suv omborlari va boshqa suv resurslarining xavfsizligi va ishonchli ishlashini ta’minlash, suv resurslaridan foydalanish va ulardan foydalanishni hisobga olishda raqamli texnologiyalarni joriy etish; sug‘oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash va barqarorligini ta’minlash”, suv resurslarini boshqarishda davlat-xususiy sheriklik va autsorsingni joriy etish, fermer xo‘jaliklari, klasterlar va boshqa tashkilotlar foydalanishi uchun yakka tartibdagi suv xo‘jaligi obyektlarini ta’minlash, aholini kafolatli suv bilan ta’minlash, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni suv bilan barqaror ta’minlash, suv sifatini yaxshilash

[5] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 23.11.2024-y., 06/24/184/0954-son.

va ekologik muvozanatni saqlash; transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni yaxshilash”[6], suv resurslarini muhofaza qilishda jamoatchilik ishtiroki, ularning huquqiy mexanizmini yanada takomillashtirish, suv resurslaridan foydalanishda ularga zararli ta’sirning oldini olish tizimini yanada rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo‘li yo‘q. O‘zbekiston **BMTning preventiv diplomatiya** bo‘yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to‘g‘risidagi konvensiyalar loyihalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, suv resurslaridan foydalanish borasidagi mavjud muammolarning izchil hal qilinishini ta’minlash maqsadida **2020–2030-yillarda suv xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiyasi** va **Suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirish strategiyasi** hamda **Suv kodeksining ishlab chiqilishi ayni bugungi davr talabini ifodalaydi**[7]**.**

[6] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.04.2022-y., 09/22/196/0323-son; 19.02.2024-y., 09/24/79/0136-son.

[7] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – 164-bet.

I BOB. YEROSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY HOLATI VA UMUMIY TAVSIFI

1.1. Yerosti suvlarining umumiy yuridik tavsifi tushunchasi

Dunyo hamjamiyati oldida tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishda qat'iy tartiblar belgilash hamda nazoratni kuchaytirish vazifalari asosiy o'rin tutmoqda. Tabiat resurslarining bir turi sifatida yerosti suvlarini muhofaza qilish alohida ahamiyatga ega. Chunki mamlakatimizda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashda **yerosti suvlarining ulushi 67 %[8]ini** tashkil etishining o'zi ham bu sohaning dolzarbligidan dalolat bermoqda. Ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojning ortayotganligi, yerosti suvlarining asosan yerlarni sug'orish va boshqa maqsadlarda olinishi natijasida yerosti suvlari sathining ko'p yillik o'rtacha sathidan pasayib ketish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa jamoatchilik vakillari, fuqarolar va davlat organlarni tashvishga solmoqda. Bu sohani tartibga solish alohida e'tibor talab etmoqda. **Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP)** tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda ichimlikka yaroqli suvlarning 90 foizini yerosti suvlari tashkil etadi[9].

Yuqorida belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasida ichimlik suvi iste'molining 67 foizi yerosti suvlaridan olinsa, boshqa davlatlarda bu statistika turlicha: **AQShda 38 foizi yoki Afrika qit'asi davlatlarida 70-80 foizini** tashkil etadi[10]. Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) qatorida 6-maqsad sifatida *"Toza suvi va uning boshqaruvi hamda sanitariya"*[11] deb nomlanib, unda suv bilan bog'liq qiyinchilikda yashayotgan dunyo aholisi soni 2,4 mlrdni

[8] O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining 2025-yil 24-yanvardagi majlisidan (https://parliament.gov.uz/news/islohotlarning-huquqiy-asoslarini-mustahkamlash-asosiy-vazifa)

[9] UNEP (2008) Vital water graphics – an overview of the state of the world's fresh and marine waters, 2nd edn. UNEP, Nairobi. ISBN 92-807-2236-0

[10] Grönwall, Jenny, and Kerstin Danert. "Regarding groundwater and drinking water access through a human rights lens: Self-supply as a norm". Water 12.2 (2020): 419.

[11] Department of Economic and Social Affairs Sustainable Development Manba: https:// sdgs.un.org/goals/goal6

tashkil etadi. Bu esa yerosti suvlari bilan bog‘liqlik va uning muhimlik darajasini oshiradi.

Insoniyat yerosti suvlaridan foydalanishni **“Bronza”** davridan boshlab, foydalanishni boshlagan[12]. Qadimgi Yunoniston sivilizatsiya markazlarida ham foydalanilganlik holatlarini aniqlangan.

Hozirgi vaqtda suv resurslarini boshqarish, undan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar **10 ga yaqin qonun** hujjatlari, shuningdek, **20 tadan ortiq qonunosti** hujjatlari bilan tartibga solinadi[13].

Bugungi kunda yerosti suv resurslarini muhofaza qilish borasida davlat va jamoat nazorati kuchaytirilayotgani, ularning miqdoriy kamayishi va ifloslanishining oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rilayotgani yaqqol ko‘rinib turibdi. Fuqarolar o‘rtasida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini oshirishga qaratilgan keng targ‘ibot ishlari olib borilmoqda. Pirovard maqsad sifatida aholini uzoq muddatda sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlash vazifasi belgilangan.

Mamlakatimizda qidiruv izlanishlar natijasida, 97 ta yerosti suv konlari topilib, sutkasiga 63,9 mln m^3ni tashkil etadi. Yerosti suvlari bilan ta’minlash yo‘li bilan 69 ta shahar, 335 ta posyolka va 2902 ta qishloq aholi punktlari aholisi ehtiyojlarini qondirmoqda. Hozirda 50839 ta quduq foydalanilib, ularni 43 foizi maishiy ehtiyojlar, 35 foizi qishloq xo‘jaligi, 10 foizi ishlab chiqarish va texnik maqsadlarda va 2,8 foizi yaylovlarni sug‘orish uchun ishlatilmoqda[14].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-fevral 2025-yildagi **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi** 16-sonli Farmoni yerosti suvlarining muhofazasida yangi maqsad va mexanizmlarni ochib berdi. Bu chora-tadbirlarni to‘laqonli ijrosini ta’minlash dolzarb vazifa, bu orqali sohani takomillashtirish muhim omil hisoblanadi.

---

[12] Gorokhovich Y., Mays L.W., Ullmann L. (2011) A survey of ancient minoan water technologies, water science and technology: water supply 114(4): 388.

[13] https://parliament.gov.uz/news/islohotlarning-huquqiy-asoslarini-mustahkamlash-asosiy-vazifa

[14] O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. (2023). Atrof-muhit holati to‘g‘risida milliy ma’ruza: O‘zbekiston. Barqaror rivojlanish xalqaro instituti.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida “Yer, yerosti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir” deb belgilab qo‘yilgan. Bu esa tabiiy resurslarni muhofazasida alohida o‘rin tutadi va davlat siyosatini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksining 4-moddasi bilan yerosti suv obyektlari umumiy tartibda davlat suv fondi tarkibiga kirishi belgilab berilgan.

Suv kodeksi suvlar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishda asosiy normativ huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu kodeksning 4-moddasida “**yerosti suvlari”** tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “**yerosti suvlari** – yerosti suv obyektlarining suvlari”. Bizning fikrimizcha, ushbu ta’rif orqali tushuncha qisqa va lo‘nda yoritilgan. Davlatimiz hududidagi barcha yerlarda yer bilan qoplanmagan yoki suv bilan qoplangan maydonlarda suv tubi sathidan pastda joylashgan suvlar ham yerosti suvlari sifatida hisoblanadi.

Olimlar **J. Xolmo‘minov va Y.** Shodimetovlarning fikri[15]ga ko‘ra, **yerosti suvlari –** tuproqda va yer qa’rining geologik jinslarida joylashgan, har qanday fizik holatga ega bo‘lgan, shu jumladan, kimyoviy ifloslangan suvlar. Ushbu ta’rif asosan suvlarning xossalariga va biologik jihatiga qaratilgan bo‘lib, qonunchilikda uni o‘qishda tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Belarus Respublikasi Yer qa’ri kodeksida yerosti suvlariga shunday ta’rif berilgan: **yerosti suvlari** – sun’iy ravishda yaratilgan yerosti suv havzalari bundan mustasno, yer qobig‘ining qatlamlarida yer yuzasi ostida joylashgan tabiiy suvlar.

Yerosti suvlariga qonunda quyidagicha ta’rif berish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi: “**yerosti suvlari** – yer sathidan pastda, **suvlik hududlarda suv tubidan quyida** yer qobig‘ining tog‘ jinslari qatlamlarida joylashgan suvlar, sun’iy yaratilgan suv havzalari bundan mustasno”.

[15] Shodimetov Y., Xolmo‘minov J. Ekologik huquq: oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 191 b.

Ta’bir joizki, ta’rifning mukammalligi huquqiy tartibga solish muammolarini bartaraf etishga, huquqiy noaniqlik va nizolarni hal qilishga imkon beruvchi huquqiy texnikaning samarali vositasidir.

Kaliforniya universiteti olimlari Rittel va Webberning fikricha, yerosti suvlari ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik masalalar bilan bog‘liq bo‘lib, sohadagi bilim va axborotlarning cheklanganligi uni tartibga solishda va muhofaza qilishda qator to‘sqinliklarga olib keladi[16].

Yerosti suvlarini o‘rganuvchi, tadqiq etuvchi fan – **Gidrogeologiya**. Belarus olimi Y.A. Gledkoning fikricha[17], **gidrogeologiya** – yerosti suvlari sayyoralarini: ularning yer qobig‘ida tarqalish qonuniyatlarini, paydo bo‘lish va harakatlanish sharoitlarini, xossalari va tarkibini, tog‘ jinslari bilan o‘zaro ta’sirini, shuningdek, ulardan iqtisodiy foydalanish sharoitlari va imkoniyatlarini o‘rganadigan fan deb ta’rif berilgan. Umuman olganda, **Gidrogeologiya** so‘zi “gidro” – suv, “geo” – yer, “logos” – fan, ta’limot ma’nosini bildiradi. Ya’ni gidrogeologiya yerosti suvlari to‘g‘risidagi fan bo‘lib, yer qobig‘i qatlamlaridagi jins kovaklarida, yoriqlarda va turli shakl hamda kattalikdagi karst bo‘shliqlarida joylashgan yerosti suvlarining paydo bo‘lishi, o‘zgarishi, yotishi, joylashishi, harakatlanishi, sarflanish qonuniyatlari, kimyoviy tarkibi, fizik xossa va xususiyatlarini, shuningdek, xalq xo‘jaligida foydalanish yo‘llarini o‘rganadi. Gidrogeologik tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati, yerosti suvlarining ichimlik suvi manbayi sifatida butun dunyoda strategik ahamiyatga ega ekanligi yetakchi ilmiy markazlar mutaxassislari tomonidan e’tirof etilgan. Suv resurslarining talabga mos zaxiralarini aniqlash va izlab topish, ulardan oqilona foydalanishning samarali va ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ko‘pchilik davlatlarda ichimlik suvi tanqisligi mavjud bo‘lgan aholi punktlari va sanoat korxonalarining suvga bo‘lgan talabini qondirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda jahon miqyosida gidrogeologik tizimlar rivojlanishini o‘rganishning uslubiy asoslarini takomillashtirish va suv resurslari istiqbolini baholash bo‘yicha keng doirada ishlar amalga oshirilmoqda.

---

[16] https://www.sympoetic.net/Managing_Complexity/complexity_files/1973%20Rittel%20and%20Webber%20Wicked%20Problems.pdf

[17] Гледко Ю.А. Гидрогеология: учеб. пособие / Ю. А. Гледко. – Минск: Виш. шк., 2012. – 5 с.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2024-yilgi Birlashgan Millatlar Tashkilotiga nutqida suv masalalariga alohida to‘xtalib, **“muzliklar 1/3 qismga kamayganligi, Amudaryo va Sirdaryo suvlari 15 %ga, aholi jon boshiga suv bilan ta’minlash darajasi 25 %ga, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi 40 %ga kamayishi kutilmoqda”** deb qilingan nutqlari bu sohani tartibga solishda muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Rossiya Federatsiyasining “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi qonun bilan yerosti suvlari to‘laqonli muhofaza etilishi belgilab o‘tilgan bo‘lsa, biroq O‘zbekiston Respublikasining “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi Qonuni 1-moddasi bilan sanoat ahamiyatiga molik yerosti suvlariga tatbiq etilishi belgilangan, ya’ni “ushbu qonunning amal qilishi yer qa’ridan foydalanishda yuzaga keladigan, yer, suv (bundan sanoat ahamiyatiga molik yerosti suvlari mustasno), o‘simlik va hayvonot dunyosidan, atmosfera havosidan foydalanish hamda ularni muhofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etilmaydi”. Har qanday yerosti suvlari tabiat boyliklari qatoriga kiritilishi, ularning muhofazasi boshqa yerosti boyliklaridan kam bo‘lmasligi darkor. Yerosti suvlari ichimlik suvi bilan ta’minlashda tutgan o‘rni va ahamiyati jihatdan boshqa yer boyliklari qatorida alohida muhofazaga olinishi zarur. Bizningcha, ushbu qonundagi “foydali qazilmalar” tushunchasi o‘zgartirish kiritish zarur. **Foydali qazilmalar – yer qa’ridagi kelib chiqishi noorganik va organik bo‘lgan qattiq, suyuq yoki gazsimon holatdagi tabiiy mineral hosilalar, shu jumladan, sanoat ahamiyatiga molik yerosti suvlari, sho‘r ko‘llarning tuz eritmalari** deb belgilangan. Rossiya Federatsiyasining Yerosti boyliklari qonunining 1-moddasi ko‘ra, yerosti suvlari foydali qazilmalar qatoriga kiritilgan[18].

J. Xolmo‘minov va M. Usmonov ma’lumotlariga ko‘ra,[19] **“Yerosti boyliklari”** degan “ibora nisbiy” tushuncha bo‘lib, u me’yoriy hujjatlarda nafaqat tuproq ostidagi, balki yer yuzasi va suv obyektlari tubida, ya’ni yer qa’rida joylashgan mineral moddalarni ham qamrab oluvchi tushunchadir. Mineral moddalar – yer yuzida va qa’rida fizik

[18] Otamirzayev O. General Legal Description of Groundwater In Uzbekistan. International Journal of Human Capital and Innovative Management, Volume 2. 2025. – P. 42–48.

[19] Xolmo‘minov J., Usmonov M., Rustamboyev M. Ekologiya huquqi: darslik. – T.: TDYI nashriyoti, 2006. – 211 b.

va kimyoviy jarayonlar natijasida vujudga kelgan, kimyoviy tarkibi va fizik xususiyatlari jihatdan deyarli bir xil bo‘lgan jins (modda). Bizning bu fikrlar yerosti boyliklar atamasiga to‘laqonli javob berilgan hamda mohiyatini ochib bergan. Hozirda “Yerosti boyliklari to‘g‘risida”gi Qonun bekor bo‘lib, 2024-yil 31-oktabrda “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Buning natijasida “yerosti boyliklari” tushunchasi chiqarib tashlanib, “foydali qazilmalar” tushunchasi qonunchilikka kiritildi. Bu ikki tushuncha bir xil ma’no va mazmunga ega hamda ekvivalent sifatida ishlatish mumkin bo‘lgan atamalardir.

O‘zbekiston Respublikasi **Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining** “Yerosti va yerusti suv obyektlarini muhofaza qilish bo‘yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini (0083-24-son SanQvaN) tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 5-ilovasiga ko‘ra, suvning tarkibi belgilangan bo‘lib, undagi **minerallar** tarkibi miqdori ham belgilab o‘tilgan. Yuqoridagi tushuncha izohida mineral hosilalar deb o‘tilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, yerosti suvlarining barcha turlarini foydali qazilmalar ro‘yxatiga kiritish, soha rivojiga muhim hissa qo‘shadi.

Yerosti suvlarini tasniflash masalasida ham qator tushunmovchiliklar mavjud. **Golland olimi Van der Aaning** ta’kidlashicha, yerosti suvlari ichimlik, mineral va energiya manbalari sifatida tasniflanishi belgilangan[20]. Xususan, suvlarning xususiyati foydalanish maqsadiga ko‘ra turlangan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 9-sonli qarori[21] bilan Suv olish inshootlarining turiga qarab burg‘i qudug‘i (artezan), quduq, galereya, buloq va boshqalarga bo‘lingan. Ularning har biri turi, xususiyati va maqsadi jihatdan bir-biridan farqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Suv kodeksi 22-moddasida **Yerosti suvlari bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishda maxsus vakolatli davlat organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi**

[20] Van der Aa, Monique. “Classification of mineral water types and comparison with drinking water standards”. Environmental geology 44.5 (2003): 554–563.

[21] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.01.2021-y., 09/21/9/0007-son.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi vakolatlari keltirilgan[22]. Ushbu vazirlik yerosti suvlari bilan bog‘liq munosabatlarni nazorat qilish hamda tegishli ishlarning bajarilishini ta’minlaydi.

Yerosti suvlarini nazorat qiluvchi davlat organlarini belgilashda xorijiy davlatlarda turli yondashuvlar mavjud. Birinchidan, yerusti suvlari va yerosti suvlarini nazorat qilish vakolatlarini yagona davlat organiga birlashtirish amaliyoti mavjud (masalan, Rossiya Federatsiyasida[23]); ikkinchidan, yerusti suvlari va yerosti suvlarining nazoratini ajratish va yerosti suvlari nazoratini tog‘-kon masalalarini muvofiqlashtiruvchi organga berish (misol uchun, **Qozog‘iston Respublikasi**[24]). O‘zbekiston Respublikasi 2-shaklni tanlagan, bu mantiqiy jihatdan to‘g‘ri deb hisoblaymiz. Yerosti suvlari monitoringi, uning kadastr, o‘lchash, hisobini yuritish, tadqiq etish masalalari foydali qazilmalar yoki yerosti boyliklari munosabatlariga yaqin ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Gidrogeologiya bo‘yicha professor Dongriol Ryu va uning hamkasbi Ki-Von tomonidan olib borilgan izlanishlarga ko‘ra, global isish tuproq, ko‘llar, daryolar va qor qoplamidagi suv miqdorini keskin kamaytirmoqda. Bu esa qishloq xo‘jaligi, ichimlik suv ta’minoti va dengiz sathining ko‘tarilishi kabi jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Olimlarning ta’kidlashicha, so‘nggi 20 yil ichida Yerning tuproq namligi 2000 gigatonnaga kamaygan. Bu miqdor **2002–2006-yillarda Grenlandiya muzliklarining** yo‘qotgan suv miqdoridan ikki barobar ko‘pdir. Shuningdek, ilgari har o‘n yilda bir marta kuzatiladigan kuchli qurg‘oqchiliklar hozirda tezlashmoqda. Dunyo okeanining sathi ko‘tarilishi va Yerning qutblaridagi geografik o‘zgarishlar ham aynan shu holatga bog‘liq.

Xitoy professori Zhang bu jarayonning xavfli oqibatlariga alohida e’tibor qaratishni zarur deb hisoblaydi. Uning fikricha, qurg‘oqchilikdan keyin tabiiy suv manbalari tiklanmaydi, chunki tuproqning suvni ushlab turish qobiliyati kamaygan[25]. Shunday ekan,

[22] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 11.11.2024-y., 03/24/995/0908-son.

[23] https://voda.gov.ru/favr/agency/polozhenie/

[24] https://2019.minexkazakhstan.com/ru/the-committee-of-geology-and-subsoil-use/

[25] Zhang, Yong-wang, et al. “Changes in soil water holding capacity and water availability following vegetation restoration on the Chinese Loess Plateau”. Scientific Reports 11.1 (2021): 9692.

agar kelajakda odamlar suv resurslaridan foydalanish usullarini tubdan o‘zgartirmasa, vaziyat yanada yomonlashishi mumkin.

Bundan avvalgi xabarlarga ko‘ra, agar muzliklarning hozirgi erish sur’ati davom etsa, XXI asr oxiriga kelib ular ko‘plab mintaqalarda umuman yo‘qolishi mumkin. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, muzliklar dunyodagi chuchuk suv zaxiralarining taxminan 70 foizini tashkil etadi. Ular barqaror iqlim sharoitida deyarli erimaydi, ammo inson faoliyati tufayli yuzaga kelgan global isish ularning tez erishini keltirib chiqarmoqda.

Milliy qonunchiligimizga ko‘ra, ya’ni Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 9-sonli qaroriga muvofiq, yerosti suvlaridan foydalanish **umumiy va maxsus** usullar orqali amalga oshiriladi. Umumiy foydalanish shartlariga muvofiq, jismoniy shaxslar tomonidan chuqurligi 25 (yigirma besh) metrgacha bo‘lgan quduqlardan sutkasiga 5 (besh) kub metr hajmdagi yerosti suvlaridan umumiy foydalanilganda maxsus foydalanish sifatida ruxsatnoma olish talab etilmaydi[26]. Bunda olingan suvdan fuqarolar o‘z ehtiyojlari uchun foydalanishlari mumkin. Agarda sutkasiga ishlatiladigan miqdor 5 kub metrdan oshgan taqdirda, belgilangan tartibda ruxsatnoma olishlari lozim bo‘ladi yoki quduq chuqurligi 25 metrdan oshgan taqdirda ruxsatnoma asosida faoliyat yuritishi zarur. Ushbu holatda umumiy foydalanish sifatida talqin etiladi. Ushbu miqdor turli davlatlarda turlicha belgilangan. Masalan, **Qozog‘iston Respublikasida**[27] yerosti suvlaridan quduq orqali foydalanilganda, sutkasiga 50 kub metrdan oshmagan holda chuqurligi 20 metrdan ortiq bo‘lmasligi keltirilgan bo‘lsa, **Rossiya Federatsiyasida**[28] sutkasiga 100 kub metr ko‘p bo‘lmagan, chuqurligi 5 metrdan ortiq bo‘lmasligi belgilangan. **Hindiston poytaxti Dehli**[29] shahrida esa

[26] Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.01.2021-y., 09/21/9/0007-son.

[27] Absametov, Malis, et al. “Assessment of the groundwater for household and drinking purposes in central Kazakhstan”. Groundwater for Sustainable Development 21 (2023): 100907.

[28] Golovina, Ekaterina I., and Anastasia V. Grebneva. “Management of groundwater resources in transboundary territories (on the example of the Russian Federation and the Republic of Estonia)”. Записки Горного института 252 (2021): 788–800.

[29] Rai, Suresh Chand. “Water management for a megacity: national capital territory of Delhi”. Water resources management 25 (2011): 2267-2278.

bir oylik suv foydalanish miqdori etib, 20 (yigirma) kub metr yoki 20 ming litr etib belgilangan. Bu belgilangan miqdorlar belgilashda albatta yerosti suvlariga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik darajasi, uning zaxiralarini muhofaza qilish, kelgusi avlod uchun asrash maqsadida cheklovlar belgilangan.

Lekin yuqorida mamlakatimizda 25 metrdan chuqur bo'lmagan yer qa'ridan suv olishga ruxsat berilmoqda. Ammo bu bilan ichimlik suvi 25 metrgacha ekan tushunchaga bormaslik kerak. Odatda O'zbekiston Respublikasining turli hududlarida ichimlik suvi qudug'i qazish uchun 100–150 metrgacha chuqurlikdagi quduqlar qazish tavsiya etiladi. Buni tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-martdagi 169-sonli **"Xulosa berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi** qarori bilan Davlat xizmatlariga arizalar berilganda, gidrogeologiya korxonalari tomonidan **Gidrogeologik xulosa berish** orqali aniqlanadi. Lekin davlat tomonidan suv tizimi orqali ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan aholi tomonidan 10–20 metrgacha yerosti quduqlarini qazib, uni iste'mol qilish holatlari ham uchrab turadi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar hamda tomchilatib sug'orish amaliyoti joriy etilmoqda va bu yo'lda imtiyozli kreditlar ajratilmoqda, shuningdek, suvsizlikka chidamli navlarni yaratish yo'lida qator ijobiy harakatlar amalga oshirilmoqda. Biroq ba'zi holatlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini o'z vaqtida suv bilan ta'minlay olmaslik holatlari va buning natijasida uzoq qilingan mehnat va xarajatlar tufayli yer egalari, yerdan foydalanuvchilari va yer ijarachilari og'ir vaziyatga tushib[30], sohaga nisbatan ishonchsizlik ruhi shakllanishiga xizmat qilmoqda. Bizningcha, bu holatning oldini olishda Yer kodeksining 39-modda (Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va yer uchastkasi mulkdorining huquqlari)siga 11-band sifatida **"yer uchastkasidan suv qonunchiligi normalariga rioya etgan holda, faqat xo'jalik yoki maishiy ehtiyojlari (tadbirkorlik maqsadi bundan mustasno) uchun suv olish inshootlarini barpo etish"** kiritilishi

[30] Rosegrant, Mark W., Claudia Ringler, and Tingju Zhu. "Water for agriculture: maintaining food security under growing scarcity". Annual review of Environment and resources 34.1 (2009): 205.

lozim. Bu ularning huquqlarini himoya qilishda va hosildorligidan ko‘zlangan natijaga etishishda muhim qadam bo‘ladi. Bu kabi normani Rossiya Federatsiyasining Yer kodeksida ham uchratish mumkin.

Suv kodeksi bilan tanishib chiqish davomida va 4-moddasidagi tushunchalarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, “**suv havzalari”** tushunchasiga ta’rifni uchratmaysiz. Ushbu moddada suv obyektlariga berilgan ta’rifga qaraydigan bo‘lsak, “**suv obyekti** – suvlar doimiy ravishda yoki vaqtincha to‘planadigan va suv rejimining o‘ziga xos shakllari va belgilari bo‘lgan tabiiy (jilg‘alar, soylar, daryolar va boshqalar) hamda sun’iy suv oqimlari (ochiq va yopiq kanallar, shuningdek, kollektor-drenaj tarmoqlari), tabiiy (ko‘llar, dengizlar, yerosti suvli qatlamlari) va sun’iy (suv omborlari, sel suvlari to‘planadigan joylar, hovuzlar va boshqalar) suv havzalari, shuningdek, buloqlar va boshqa obyektlar” etib belgilangan. Biroq suv obyektini aniq belgilash uchun suv havzalari to‘laqonli va batafsil mulohaza zarur. Agar ta’rifdagi suv havzalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, **sun’iy suv havzalari** haqida fikr ketgan, unda **tabiiy suv havzalari** haqida ham to‘xtalish lozim. *Bunda tashqari, **“yerosti suv havzalari”** degan tushunchani ham qonunchiligimizga kiritishimiz darkor.* Kelgusi yillarda qurg‘oqchilik bilan bog‘liq holatlar ko‘paygan sari rivojlangan davlatlarning suvdan oqilona foydalanish bilan bog‘liq qarashlari va amaliyotni implementatsiya qilishga majbur bo‘lamiz. Masalan, **Ispaniya davlati** tajribasi sifatida yog‘ingarchilik mavsumida suvlarni yer ostidagi suv tankerlariga yig‘ib, yoz oylarida dehqonchilik va o‘simlik dunyosini muhofaza qilishda shu suvlarni bo‘lib-bo‘lib ishlatish texnologiyasini joriy etishimiz zarur bo‘ladi. Bu tizimda yog‘ingarchilik suvlarini yig‘ish uchun barcha nova yo‘llari va suv quvurlari tankerga ulanadi, suv esa keyinchalik nasoslar yordamida ehtiyojga qarab sarflanadi. Ushbu amaliyot yaxshi natijalar berayotganini e’tirof etish lozim

Yerosti suvlari yagona murakkab obyekt bo‘lib, u ham suv resurslarini, ham yerosti boyliklarini o‘z ichiga oladi[31]. **“Yerosti suvlari”** deganda yer yuzasi ostida joylashgan suvlar, shu jumladan, yerosti

[31] Mays, Larry W. “Groundwater resources sustainability: past, present, and future”. Water Resources Management 27 (2013): 4412.

suvlari va tog‘ jinslarining chuqurligida joylashgan, o‘rganish va foydalanish uchun mavjud bo‘lgan suv tushuniladi. Yerosti suvlari yerosti suv havzalarining ham, yerusti suv havzalarining ham (buloqlar va geyzerlar) tarkibiy qismidir. Tabiiy resurslar qonunchiligining sohasiga qarab, yerosti suvlarining ayrim xususiyatlarini aniqlash mumkin. Tog‘-kon qonunchiligida “yerosti suvlari” tog‘ jinslarida topilgan suvni anglatadi. Yerosti suvlarining tog‘-kon huquqi sohasidagi o‘ziga xos xususiyati, uning yer qa’rining resursi: mineral yoki energiya (geotermal suvlar), foydali qazilma bo‘lish qobiliyati, foydali xususiyatlari yer qa’ridan foydalanish jarayonida olinadi.

Shuningdek, sizot suvlari yoki buloq suvlarini yerusti yoki yerosti suvlariga kiritish masalasida ham bir qator qarama-qarshiliklar mavjud. Ushbu masala ekologik, ilmiy va huquqiy jihatdan turlicha yondashuvlarni keltirib chiqaradi. Uni hal etishda suv resurslarining tabiiy xususiyatlari, ularning ekologik ta’siri hamda huquqiy tartibga solish mexanizmlari kompleks tarzda inobatga olinishi lozim. Har ikkala talqinning o‘ziga xos afzallik va cheklovlari mavjud bo‘lgani sababli, mazkur masalani chuqur ilmiy tahlil asosida, ehtiyotkorlik bilan hal qilish talab etiladi.

Mazkur masalaga doir normativ-huquqiy tartibga solishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanish sohasidagi faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida yerosti suv obyektlari tarkibida buloq suvlari ko‘rsatib o‘tilgan. Buloq suvlari paydo bo‘lish tabiati jihatidan yerosti suvlariga tayanadi, shu sababli ular yerosti suv obyektlari qatoriga kiritiladi. Sizot suvlar esa shakllanish mexanizmi yerusti suvlarining infiltratsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgani bois yerusti suv obyektlari sifatida tasniflanadi.

1.2. Yerosti suvlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishning predmeti va usullari

Har bir tabiiy obyekti hamda tabiiy resurs jamiyat va tabiat uchun bajaradigan funksiyalarining xilma-xilligi bilan o‘ziga xosdir. Huquqning vazifasi nafaqat huquqiy normalarda ana shu o‘ziga xoslikni idrok etish va aks ettirish, balki u yoki bu tabiiy obyektni

muhofaza qilishning o‘ziga xosligini ta’minlash va shu orqali uning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanishga ko‘maklashishdir.

Yerosti suvlari yer qa’rining antropogen ta’sirlarga chidamliligini, yer gidrosferasi holatini va boshqa ekotizim obyektlarini belgilaydi. Yerosti suvlarining ko‘pgina tabiiy komponentlar bilan uzviy bog‘liqligi, ularning atrof-muhit holatiga, fuqarolarning ekologik huquqlarining holati va amalga oshirilishiga ta’sirini ko‘rishimiz mumkin. **Rus olimi V.I. Vernadskiy**[32] Yerosti suvlarining muhim xususiyati tabiatda sodir bo‘ladigan ko‘plab jarayonlarning ajralmas qismi bo‘lishi va ularning rolini ekologik va tabiiy resurslar munosabatlarining obyekti sifatida belgilaydi.

Mamlakatimizda atrof-muhitni asrash, muhofaza qilish va ekologik nazorat sohasidagi asosiy normativ-huquqiy hujjat – **“Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”**[33]gi Qonun. Ushbu qonunning 2-moddasi “Tabiatni muhofaza qilish obyektlari va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar” deb nomlanib, uning 1-bandiga muvofiq: “Tabiatni muhofaza qilish obyektlari (yer, yerosti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi) ifloslanishdan, buzilishdan, zararlanishdan, oriqlab ketishdan, vayron bo‘lishdan, yo‘q bo‘lib ketishdan, nooqilona foydalanishdan muhofaza etilishi lozim”. Shunday qilib, yerosti suvlari suv fondi tarkibida tabiatni muhofaza qilish va ekologik munosabatlarning obyekti hisoblanadi.

Davlat siyosati darajasidagi islohotlar shuni ko‘rsatadiki, barcha ekotizimlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, yagona yaxlit zanjirni tashkil etadi[34]. Shu bois atrof-muhit elementlarining o‘zaro chambarchasligi yer yuzida hayotni saqlab turadi hamda tirik organizmlar uchun qulay sharoitlarni yaratadi. Shu jarayonning ajralmas qismi sifatida yerosti suvlarini saqlash va ulardan oqilona foydalanish ham boshqa tabiiy obyektlarning holati, ularning resurslaridan oqilona foydalanish hamda umuman atrof-muhitning barqarorligiga bevosita bog‘liqdir.

---

[32] Вернадский В.И. История минералов земной коры. Т 2 история природных вод. 1960 г.

[33] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 30.08.2024-y., 03/24/951/0673-son.

[34] Raghavendra, N. Sujay, and Paresh Chandra Deka. “Sustainable development and management of groundwater resources in mining affected areas: a review.” Procedia Earth and Planetary Science 11 (2015): 598.

Yerosti suvlaridan foydalanish va uni muhofaza qilish bu sohani huquqiy tartibga solishning predmeti hisoblanadi. Uni **ikkiga** ajratishimiz mumkin: **bevosita va bilvosita predmetlar**[35]**.** Bevosita predmet – jarayon to‘g‘ridan to‘g‘ri yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar bilan bog‘liqligidadir (kundalik turmushda quduq suvlaridan foydalanish yoki burg‘i qudug‘i suvlaridan hisoblagichlar o‘rnatgan holda foydalanishi).

Bilvosita predmeti obyekti – to‘g‘ridan to‘g‘ri yer qa’ri suvlari bilan bog‘liq munosabatlar bo‘lmasa-da, lekin bilvosita ta’sirga ega faoliyatlardir (foydali qazilmalar qazib olish, yerostiga xavfli chiqindilar joylashtirish va boshqalar).

Yer qa’ri suvlari ekologik munosabatlar obyekti sifatida bir nechta xil shaklda namoyon bo‘ladi:

1) butun bir tabiat obyekti sifatida;

2) tabiiy obyektlar va komponentlar;

3) geotermal yoki mineral suvlar shaklida yerosti suvlarining bir qismi namoyon bo‘ladi[36].

Jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning nazariy-huquqiy aloqalari ekologik huquqning asosini tashkil etadi va bir necha bor sohada muhokama mavzusi bo‘lgan. Yerosti suvlari huquqiy tartibga solish obyekti sifatida yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish subyektining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi, bu yerosti suvlarining bir vaqtning o‘zida bir nechta tabiiy komponentlarga: suvga, yer qa’riga, yerga tegishliligi bilan belgilanadi[37]. Ushbu tabiiy komponentlar tabiiy resurslar huquqi va qonunchilikning alohida – “o‘ziga xos” tarmoqlariga mos keladi. Olimlar tabiiy huquq sohalarining har biri o‘zining mavjudligi bilan asosan bitta tabiiy obyekt bilan bog‘langanligini ta’kidladi. Biroq yerosti suvlarini huquqiy tartibga solishga bag‘ishlangan alohida huquq sohasi va qonun hujjatlarining mavjud emasligi, yerosti

[35] Burchi, Stefano. “Legal principles and legal frameworks related to groundwater”. Advances in groundwater governance. CRC Press, 2017. 122.

[36] Lachassagne, Patrick. “What is groundwater? How to manage and protect groundwater resources”. Annals of Nutrition and Metabolism 76.Suppl. 1 (2021): 17–24.

[37] Yazicigil, Hasan, and Mehmet Ekmekci. “Groundwater”. Water Resources of Turkey (2020): 164.

suvlarining davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ekologik xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyatini kamaytirmaydi[38].

Shunday qilib, yaqin vaqtgacha yerosti suvlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish muammolari huquqiy tartibga solishning kamchiliklar mavjud edi. Antropogen yukning ortib borayotgani va yerosti suvlarini samarali himoya qilishni ta’minlash bo‘yicha me’yorlarning yo‘qligi toza ichimlik suvi tanqisligi va suvni ko‘p talab qiladigan sanoat korxonalarining ehtiyojlarini yetarli darajada qondira olmaslik muammolarini ko‘rsatdi.

Yerosti suvlaridan turli maqsadlarda foydalaniladi. Masalan, ichimlik suvi ta’minoti, dam olish va davolash (rekreatsion va sanatoriy maqsadlar), sanoat korxonalarini suv bilan ta’minlash, hamda yoqilg‘i-energetika sohasida. Ushbu ko‘p yo‘nalishli foydalanish holati yerosti suvlariga oid munosabatlarga faqat birgina sohaga tegishli bo‘lgan qonunlar emas, balki boshqa turli huquqiy sohalar va qonun hujjatlarini ham qo‘llashni talab qiladi.

Shu sababli yerosti suvlarini boshqarish va ularni muhofaza qilish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar ikki darajali o‘zaro aloqador tizimda tartibga solinadi:

Ichki daraja – bu darajada tabiat resurslari bilan bog‘liq huquq sohalari bir-biri bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Masalan, suv huquqi, yer huquqi, ekologik huquq kabi tarmoqlar o‘rtasidagi bog‘liqlik nazarda tutiladi.

Tashqi daraja – bu esa boshqa, ammo yerosti suvlariga bevosita aloqasi bor bo‘lgan huquq sohalarini o‘z ichiga oladi. Bular quyidagilar:

1. Sanitariya-gigiyena qonunchiligi: yerosti ichimlik suvi sifatining gigiyenik me’yorlarga javob berishini nazorat qiladi.
2. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonunlar: mineral yerosti suvlari joylashgan hududlarda maxsus rejimlar qo‘llanadi.
3. Fuqarolik qonunchiligi: yerosti suvlariga mulkchilik, undan foydalanish huquqlari, zarar yetkazilishi holatlari va boshqalarni tartibga soladi.

[38] Право природопользования в СССР // Отв ред И А Иконицкая Коллективная монография. – М.: Наука, 1990. – С. 39.

4. Ma’muriy va jinoyat qonunchiligi: yerosti suv resurslariga zarar yetkazish, noqonuniy foydalanish holatlarida javobgarlikni belgilaydi.

Demak, yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish masalasi murakkab huquqiy tizimga ega bo‘lib, bu tizim ko‘plab huquqiy tarmoqlar va qonunchilik sohalarining o‘zaro muvofiqlashtirilgan hamkorligiga asoslanadi.

Ilmiy adabiyotlarda ekologiya huquqi doirasida yerosti suvlaridan foydalanish va ularni huquqiy jihatdan muhofaza qilish qaysi sohaga tegishli ekanligi borasida turli fikrlar mavjud. Bu masalada olimlar o‘rtasida bir necha yondashuvlar yuzaga kelgan bo‘lib, bahs-munozaralar hanuzgacha davom etmoqda.

Olimlarning bir guruhi (A.A. Ruskol, N.A. Sirodoyev, L.A. Zaslavskaya) yerosti suvlarini huquqiy tartibga solish masalasi bir vaqtning o‘zida ikkita soha – tog‘-kon huquqi va suv huquqiga tegishli hisoblaydi. Ularning fikricha, yerosti suvlari yer qa’rida joylashgani uchun tog‘-kon huquqi bilan bog‘liq, lekin ularning asosiy vazifasi suv manbayi bo‘lishi sababli suv huquqi doirasida ham tartibga solinadi.

Boshqa olimlar esa (masalan, O.S. Kolbasovna, T.Y. Titovnina) mazkur masalaga tamoman boshqacha yondashadi. Ularning fikriga ko‘ra, yerosti suvlari faqat suv huquqining obyektidir; ularni tog‘-kon huquqi doirasiga kiritish esa ilmiy jihatdan asoslanmagan. Tadqiqotchilar yerosti suvlarini tabiiy resurs sifatida aynan suv resurslari tizimida baholash va boshqarish lozimligini ta’kidlaydi.

Shu bois yerosti suvlarining huquqiy maqomini belgilash borasida yagona ilmiy yondashuv mavjud emas. Fandagi qarashlar hozirgacha izchil shakllanmagan bo‘lib, yerosti suvlari suv huquqi doirasidami yoxud tog‘-kon huquqi bilan birgalikda baholanishi kerakmi – bu masala hanuzgacha ochiq qolmoqda. Yerosti suvlari qaysi ekologiya huquqi sohasiga mansub ekani, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish qaysi normativ tizimda tartibga solinishi to‘g‘risidagi munozaralar o‘tgan asrning 60–80-yillarida tabiiy resurslar qonunchiligini shakllantirish jarayonida paydo bo‘lgan va rivojlangan.

A.A. Ruskol va L.A. Zaslavskaya esa yerosti suvlarini huquqiy tartibga solish ikki tomonlama xarakterga ega bo‘lishi lozim, degan fikrni

ilgari surgan. Ularning ta’kidlashicha, agar yerosti suvlari bo‘yicha foydalanish va muhofaza qilish munosabatlari suv huquqi hamda tog‘-kon huquqi o‘rtasida taqsimlansa, u holda yerosti suvlari ushbu ikki huquq sohasi normalariga birdek bo‘ysunishi zarur bo‘ladi[39].

Amerikalik olim Samuel Mandel yerosti suvlarini yerning tubida ham, yer yuzasida ham joylashishi mumkin bo‘lgan, yer qa’ridan yer yuzasiga va aksincha harakatlanadigan suv turi sifatida talqin qiladi. Uning fikriga ko‘ra, yerosti suvlarining huquqiy rejimi yer qa’ridan kompleks foydalanish, yerosti inshootlarini suvning zararli ta’siridan muhofaza qilish hamda yerosti suvlarini qidirish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgani sababli yer qa’ri rejimiga bo‘ysunishi lozim[40].

Bizning nazarimizda ham, yer qa’rida joylashgan suvlar, ya’ni yerosti suvlari o‘z tabiatiga ko‘ra yer qa’rining tarkibiy qismi bo‘lib, yerosti boyliklari sifatida baholanishi kerak. Ularning geologik qatlamlar orasida joylashgani, tog‘ jinslari bilan uzviy aloqadorligi ularni alohida suv resursi sifatida emas, balki yer qa’ri resurslari tizimi doirasida ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq qiladi.

Bundan tashqari, yerosti suvlari bo‘yicha muhofaza, ulardan foydalanish tartibi va ularga oid huquqiy munosabatlar amalda yer qa’ridan foydalanish bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois bunday suvlarni faqat suv huquqi doirasida emas, balki tog‘-kon huquqi normalari asosida, ya’ni yerosti boyliklarini tartibga soluvchi qonunchilik orqali boshqarish yanada to‘g‘riroq yondashuv hisoblanadi.

Yerosti suvlarini tog‘-kon tizimi orqali boshqarish ularning tabiiy holati, shakllanish jarayonlari va muhofaza choralari bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, kompleks huquqiy tartibga solishni ta’minlaydi. Shu sababli ularni tog‘-kon huquqi doirasida tartibga solish zarur, deb hisoblaymiz.

Suv kodeksi 88-moddasiga ko‘ra, suvlardan foydalanishda avvalo, aholini ichimlik suvi bilan ta’minlash va maishiy ehtiyojlarni

[39] Заславская Л.А. Соотношение земельного, водного, лесного и горного законодательства // Ученые записки ВНИИСЗ, вып 18. 1969. – С. 78. Заславская Л.А. Законодательство о недрах // Советское государство и право, № 7, 1977. – С. 67.

[40] Mandel, Samuel. Groundwater resources: investigation and development. Elsevier, 2012.

qondirish asosiy o‘rinda turadi[41]. Bundan ko‘zlangan maqsad ham **“O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”**[42] ekanidan kelib chiqadigan ijtimoiylik tamoyilini amaliy jihatdan ta’minlashdan iboratdir. Davlat fuqarolarning huquq va erkinliklarini barcha masalalardan ustun qo‘yadi va ularning ro‘yobga chiqishini kafolatlaydi. Xususan, birinchi navbatda xalqni toza ichimlik suvi bilan ta’minlash[43], ularning ehtiyojlarini qondirish[44], shundan so‘ng esa qishloq xo‘jaligi, sanoat va boshqa masalalarga suv ajratish ko‘rib chiqiladi.

Shuningdek, yuqoridagi qaror bilan sug‘oriladigan yerlar tariflarini inventarizatsiya qilish, suvni tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, aholini ushbu texnologiyalardan foydalanishga rag‘batlantirish mexanizmlarini rivojlantirish kabi chora-tadbirlar belgilangan. Unga ko‘ra, suv sathi pasayib borayotgan hududlarda namlik sarfi kam bo‘lgan ekin turlarini yetishtirishga bosqichma-bosqich o‘tish ham nazarda tutilgan.

Yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning huquqiy tartibga solinishi ekologik huquqning rivojlanish darajasini ifodalaydi[45]. Chunki bu jarayon tabiiy obyektlarning umumiy rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, yerosti suvlarini o‘rganish yer qa’ri, suv va yer kabi tabiiy komponentlardan foydalanishdagi o‘zaro bog‘liqlikni yoritish orqali ijtimoiy munosabatlarning yangi yo‘nalishlarini shakllantirish imkonini yaratadi.

Shunday qilib, yerosti suvlaridan foydalanishga yer huquqi normalarini qo‘llash eng ko‘p ta’sir qiladi, chunki yerosti suvlari tuproqqa so‘rilgan moddalarning asosiy qismini o‘z ichiga oladi.

[41] https://lex.uz/uz/docs/-7655343.

[42] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

[43] UN General Assembly; Special Rapporteur on the Human Right to Safe Drinking Water and Sanitation

Catarina de Albuquerque. Human right to safe drinking water and sanitation: Note by the Secretary-General. 2013.

[44] Human Rights Council. Report of the Independent Expert on the Issue of Human Rights Obligations related to Access to Safe Drinking Water and Sanitation, Catarina de Albuquerque; A/HRC/12/24. 1 July 2009.

[45] Griebler, Christian, et al. “Legal frameworks for the conservation and sustainable management of groundwater ecosystems.” Groundwater ecology and evolution (2023): 551–571.

Chuqurroq suv qatlamlaridan yerosti suvlaridan foydalanish tog‘-kon qonuni bilan tartibga solinadigan yer qa’ridan foydalanish doirasida sodir bo‘ladi. Yerosti suvli qatlamlari yerosti suv obyektlarining bir turidir. Biroq obyektlarning uyg‘un qo‘llanishi haqida emas, balki ularni integratsiyalashgan yoki tabaqalashtirilgan yondashuvlar o‘rtasidagi tanlov haqida gapirish mumkin. Buning sababi yerosti suvlaridan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishga kompleks yondashuvni amalda qo‘llashning murakkabligidadir. **Integratsiyalashgan yondashuv** huquq sohalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning huquq tizimida normalar, institutlar va huquq sohalari darajasida o‘zaro bog‘liqliklarni qurish orqali amalga oshirishni taqozo etadi. Biroq bu yondashuvni qo‘llash huquqiy tartibga solishning yetarlicha murakkab mexanizmlarini talab qiladi, bu har doim ham ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasining rivojlanishiga mos kelmaydi.

Tabiiy resurslar huquqi normalari, institutlari va tarmoqlarini farqlash orqali huquqiy tartibga solish usuli huquqni qo‘llashning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuv, ma’lum bir huquq sohasiga tegishli bo‘lgan tartibga solish vositalarini belgilash imkonini yaratadi, shu bilan birga, ularni aniq soha doirasida cheklashga imkon beradi. Bu holat, qonun va me’yoriy hujjatlar asosida tabiiy resurslarni boshqarishning aniq va samarali tartibini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu metodning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud.

Ijobiy jihatlari:

Huquqni qo‘llashni soddalashtirish tabiiy resurslar bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni aniq belgilash va huquqiy normalarni tizimli tarzda qo‘llash orqali qonunchilikni amalda qo‘llash osonlashadi.

“Ma’muriy to‘siqlar” va korrupsiyani bartaraf etish ma’lum bir huquq sohasiga xos bo‘lgan normativ hujjatlar va me’yorlar orqali jarayonlar aniq va oshkora bo‘ladi, bu esa ma’muriy to‘siqlar va korrupsion holatlarning oldini olishga yordam beradi.

Salbiy jihatlari – huquqiy tartibga solishning cheklanganligi. Tabiiy resurslar huquqining alohida sohalarini ajratish orqali, har bir soha doirasida huquqiy muammolarni hal qilishda ba’zi chek-

lovlar yuzaga keladi. Bu, o‘z navbatida, resurslarni boshqarishning umumiy va kompleks yondashuvini amalga oshirishda qiyinchiliklar tug‘diradi.

Shuningdek, muammolarni har tomonlama baholash imkoniyatining cheklanishi ham kuzatiladi. Buning sababi shundaki, har bir huquq sohasi alohida tartibga solish vositalariga ega bo‘lib, ular ko‘pincha faqat o‘z doirasi bilan chegaralanadi. Natijada tabiiy resurslar bilan bog‘liq masalalarni kompleks yondashuv asosida, ularning o‘zaro bog‘liqligini inobatga olgan holda baholash imkoniyati qisqaradi. Bundan tashqari, ayrim hollarda bitta soha doirasidagi mavjud vositalar yetarli bo‘lmaydi hamda yanada chuqurroq tahlil yoki ko‘p qirrali yondashuvni talab etadi.

Umuman olganda, tabiiy resurslar huquqini sohaga ajratilgan holda tartibga solish ko‘plab ijobiy jihatlarni taqdim etsa-da, komplekslik nuqtayi nazaridan ma’lum cheklovlar ham mavjud. Bunday tizimning samaradorligi tabiiy resurslarning o‘ziga xos tabiati, ularning o‘zaro aloqasi, shuningdek, huquqiy mexanizmlarning bir-biri bilan uyg‘un va tizimli ishlashiga bevosita bog‘liq. Huquqiy tartibga solishning kompleks yondashuvi yerosti suvlarining tabiatidan kelib chiqadi. Chunki yerosti suvlari bir vaqtning o‘zida bir nechta tabiiy obyektlar va tabiiy komponentlarga taalluqli bo‘lib, ekologiya huquqining murakkab va ko‘p tarmoqli xususiyatini aks ettiradi. Ekologik munosabatlar tarkibida yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar uyg‘un tarzda shakllanishi lozim. Shu bilan birga, yerosti suvlaridan foydalanish huquqining vujudga kelishi, o‘zgarishi va tugatilishi jarayonida ayrim muammolar ham namoyon bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, **ekologiya huquqining murakkab tabiati** tabiatni muhofaza qilish huquqi tarmoqlarini birlashtiruvchi elementi[46] bo‘lib, tabiat obyektlari va ularning resurslaridan, xususan, yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish jarayonida tarmoqlar o‘rtasidagi munosabatlarni asoslashga yordam beradigan ekologik huquq

[46] Aagaard, Todd S. “Environmental law as a legal field: an inquiry in legal taxonomy”. Cornell L. Rev. 95 (2009): 221.

normalari va tabiiy resurslar huquqi tarmoqlarining o‘ziga xosligi belgisidir.

Shundan kelib chiqib, yerosti suvlarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bir qator yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. ***Eng avvalo, sohani huquqiy tartibda solish ustuvor ahamiyatga ega[47].*** Mamlakatimizda yerosti suvlari bilan bog‘liq munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Suv kodeksi, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari va boshqa ichki normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Mazkur hujjatlar asosan imperativ xarakterdagi normalardan tashkil topgan.

Hozirgi vaqtda suv resurslarini boshqarish, ulardan foydalanish va muhofaza qilish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar qariyb o‘nga yaqin qonunlar hamda yigirmadan ortiq qonunosti hujjatlari orqali tartibga solinmoqda[48].

Ushbu hujjatlar suv munosabatlarini huquqiy tartibga solishda asos vazifasini bajarsa-da, suv qonunchiligini yagona, muvofiqlashtirilgan tizim sifatida shakllantirishni to‘liq ta’minlay olmadi. Shu bois suv va suvdan foydalanish sohasida yagona normativ-huquqiy hujjat yaratish maqsadida ishlab chiqilgan yangi Suv kodeksi loyihasida bir qator muhim normalar o‘z aksini topmoqda. Jumladan, suvdan oqilona foydalanish, suv yetkazib beruvchilar hamda suv iste’molchilarining mas’uliyatini oshirish, suvdan foydalanishda ruxsatnoma olish tartibini soddalashtirish kabi tamoyillar belgilab qo‘yilmoqda.

Ikkinchidan, yerosti suvlarini boshqarishdagi davlat nazorati, kadastri va monitoring tizimlarining mavjud bo‘lishi ekologik barqarorlikni saqlash, suv resurslarini to‘g‘ri boshqarish hamda yerosti suvlarining ifloslanishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tizimlar yerosti suvlarining sifatini, miqdorini va ulardan foydalanish holatini muntazam ravishda kuzatib boradi. Bu, o‘z navbatida, sohani boshqarish, tartibga solish va muhofaza qilish jarayonida muhim o‘rin tutadi.

[47] Younger, Paul L. Groundwater in the environment: an introduction. John Wiley & Sons, 2009.

[48] https://parliament.gov.uz/news/islohotlarning-huquqiy-asoslarini-mustahkamlash-asosiy-vazifa

Yerosti suvlaridan foydalanish va ularning muhofazasi bo‘yicha davlat siyosatini rivojlantirishda davlat rahbarining tashabbuslari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 16-son Farmonida ichimlik suvi ta’minoti sohasida quyidagi vazifalar belgilangan:

“1,8 ming kilometr ichimlik va oqova suv tarmoqlari, 77 ta ichimlik va oqova suv inshootlari qurilishi hamda rekonstruksiya qilinishi;

ichimlik suv tizimida ma’nan eskirgan 746 ta nasos uskunalari energiya tejamkorlariga almashtirilishi, hududlarda 65,2 megavatt quvvatga ega quyosh panellari o‘rnatilishi, suv inshootlari va magistral suv tarmoqlariga 955 ta zamonaviy suv hisoblagichlar o‘rnatilishi;

barcha ichimlik suv ta’minoti korxonalarida sifat monitoringini yuritish va ma’lumotlarni boshqarish markazlari yaratilishi;

daryolar, ko‘llar va kanallarga turli ifloslantiruvchi moddalar tashlanishi ustidan nazorat kuchaytirilishi ta’minlansin”[49].

Bularning barchasi xalqimiz farovonligi, sog‘lig‘ini saqlash va ularga sifatli xizmat ko‘rsatish orqali xalqni rozi qilish masalasi davlat darajasiga ko‘tarildi.

Uchinchidan, yerosti suvlaridan foydalanuvchilarning ekologik madaniyatini oshirish zarur. Har qanday davlatda qonunchilikning amal qilishi, unga to‘liq rioya etilishi fuqarolarning huquqiy madaniyati bilan bevosita bog‘liq. Atrof-muhitga oid normativlarga rioya etish esa ekologik-huquqiy madaniyat darajasida namoyon bo‘ladi. Ekologik madaniyatni oshirish – ekologik ongni shakllantirish, tabiiy resurslarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va atrof-muhitni asrashga nisbatan mas’uliyatli yondashuvni rivojlantirish jarayoni. Bugungi kunda atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishlari va tabiiy resurslarning qisqarishi global miqyosda jiddiy muammoga aylanib bormoqda. Shu bois ekologik madaniyatni oshirish nafaqat davlatlar yoki

[49] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.02.2025-y., 06/25/16/0119-son; 21.03.2025-y., 06/25/51/0261-son.

xalqaro tashkilotlar, balki har bir fuqaro uchun ham ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

Ekologik madaniyatni shakllantirish har bir insonning atrof-muhitga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatini rivojlantirishni talab etadi. Bu jarayonning samaradorligi ta'lim, targ'ibot, qonunchilikda belgilangan talablar va jamoatchilikning faol ishtirokiga bog'liq. Ekologik madaniyatning yuksalishi nafaqat tabiatni muhofaza qilishga, balki barqaror rivojlanish, ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Har bir fuqaroni ekologik mas'uliyatga o'rgatish va ularni ekologik ongli shaxslar sifatida tarbiyalash muhim vazifalardan biridir.

Yerosti suvlarining ahamiyati nafaqat aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashda, balki sanoat va qishloq xo'jaligi ehtiyojlarini qondirishda ham beqiyosdir. Ko'plab hududlar uchun yerosti suvlariga bo'lgan talabning ortib borayotgani ularning muhofazasi va barqaror foydalanilishini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Suv resurslarini samarali taqsimlash va boshqarish ekologik muvozanatni saqlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni bilan mamlakatda **ekologik madaniyat rivoji yo'lida** muhim qadam bo'ldi. Unga ko'ra:

1) aholining ekologik madaniyatni mustahkamlash chora-tadbirlari bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqish topshirig'i berildi;

2) respublika miqyosida ekologik madaniyatni oshirish maqsadida ommaviy targ'ibot tadbirlarini tashkil etish: a) "Daraxtga nafas bering" ommaviy tadbirini o'tkazish; b) "Ekologiyaning yosh himoyachilari" loyihasini amalga oshirish; d) "Green Games" ekologik turkum o'yinlarini o'tkazish; e) bog', sayilgoh, daraxtzor, yashil vohalar o'rtasida "Yashil zamin yaratuvchilari" eko-marafonining an'anaviy ko'rik-tanlovini o'tkazish vazifalari yuklandi.

Yerosti suvlarini tabiiy resurs sifatida to'g'ri anglash muhim ahamiyatga ega. Ular yer qavatining turli qatlamlari orasida joylashgan

bo‘lib, odatda tabiiy ravishda to‘plangan suv manbalaridan iborat. Yerosti suvlarining asosiy xususiyatlari ularda saqlanadigan suv miqdori, ulardan foydalanish imkoniyatlari, sifatning o‘zgarishi, suv almashinuvi va tiklanish jarayonlari bilan bog‘liq ekologik omillar bilan belgilanadi. Ularning tabiiy shakllanishi geologik jarayonlar, iqlim sharoitlari va inson faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mamlakatimizda yerosti suvlarini muhofaza qilish Suv kodeksi orqali tartibga solinadi. Biroq amaldagi mexanizmlar barcha masalalarni to‘liq qamrab olmaganligi sababli, ayrim huquqiy noaniqliklar va tushunmovchiliklar yuzaga chiqmoqda. “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasida faqat sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan yerosti suvlari bilan bog‘liq munosabatlar tartibga solinishi qayd etilgan. Bu yondashuv xalqaro hujjatlarda belgilangan tamoyillarga to‘liq mos kelmaydi, chunki yerosti suvlarini alohida bo‘laklarga ajratgan holda tartibga solishdan ko‘ra, ularning barcha turlariga yagona yondashuv asosida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Aks holda, normativ-huquqiy hujjatlar tarqoqligi ularning ijrosini ta’minlashda qiyinchiliklar va turli xatoliklarni keltirib chiqaradi.

Yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni birgina yagona huquqiy usul yordamida tartibga solish qiyin. Chunki bu munosabatlar yerosti suvlarining turlariga, ulardan foydalanish yo‘nalishlariga va ularni muhofaza qilish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarning sohaviy bog‘liqligiga ko‘ra murakkab tizimni tashkil etadi.

Yerosti suvlari yer qa’rining bir qismi bo‘lganligi sababli, suvlar, yer, yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog‘liq munosabatlar qisman ***tog‘-kon, suv va yer huquqi*** sohalarini huquqiy tartibga solishning predmeti hisoblanadi. Shuning uchun, bir tomondan, yerosti suvlarini huquqiy tartibga solishda alohida tabiat resurslardan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlariga asoslangan tabaqalashtirilgan yondashuv qo‘llanadi. Boshqa tomondan, barcha tabiiy komponentlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ulardan birining doimiy ravishda ishlatilishi boshqasidan foydalanish va himoya qilishga ta’sir qiladi. ***Tog‘ jinslarining bir qismi***

sifatida yerosti suvlari yagona gidrotizimning bir qismi bo‘lib qoladi[50]; o‘simliklar, tuproq va yerusti suvlarining holati yerosti suvlaridan foydalanish rejimiga bog‘liq[51]. Yerosti suvlari tabiiy komponent bo‘lganligi sababli, yerosti suvlarini huquqiy tartibga solish ham kompleks yondashuvga asoslanadi. Yerosti suvlaridan foydalanish va muhofaza qilishni huquqiy tartibga solishning kompleks va tabaqalashtirilgan yondashuvlari[52]ni bir vaqtda qo‘llash atrof-muhitni muhofaza qilishning boshqa tarkibiy qismlari orasida yerosti suvlarining rolini yaxshiroq tushunishga, yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishni huquqiy tartibga solish muammolarini ilmiy tadqiq qilish usullarini ko‘paytirishga imkon beradi. Shunday qilib, kompleks yondashuv tabiatda yerosti suvlaridan foydalanish bilan bog‘liq jarayonlarni tizimli tahlil qilish va tegishli huquqiy tartibga solishni qonunchilikda mustahkamlash imkonini beradi. O‘z navbatida, tabaqalashtirilgan yondashuv tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar sohasini batafsilroq tushunish imkonini beradi.

Suv kodeksining 51-moddasida belgilanganidek, maqsadli foydalanilishiga ko‘ra suv iste’moli ichimlik, xo‘jalik-maishiy, davolash, kurort, rekreatsiya, baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi suv iste’moliga hamda boshqa turlarga bo‘linadi. Suv obyektidan olinadigan suvning miqdoriga qarab esa suv iste’moli umumiy va maxsus suv iste’moliga ajratiladi[53]. Yuqoridagi turlarning foydalanish mexanizmi bir-biridan farq qilishi, shuningdek, ulardan foydalanishda qo‘llanadigan suv inshootlari xilma-xilligi sababli har bir tur uchun alohida yondashuv zarur. Bu orqali yerosti suvlarini to‘laqonli himoya qilish, shuningdek, ulardan foydalanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kamchilik va muammoli holatlarning oldini olish mumkin bo‘ladi.

---

[50] Pacheco, Fernando AL. “Regional groundwater flow in hard rocks”. Science of the Total Environment 506 (2015): 182.

[51] Sophocleous, Marios. “Interactions between groundwater and surface water: the state of the science.” Hydrogeology journal 10 (2002): 55.

[52] Conti, Kirstin I., and Joyeeta Gupta. “Protected by pluralism? Grappling with multiple legal frameworks in groundwater governance”. Current Opinion in Environmental Sustainability 11 (2014): 46.

[53] Qonunchilikma’lumotlarimilliybazasi,24.10.2024-y.,03/24/981/0841-son;11.11.2024-y., 03/24/995/0908-son.

Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 9-sonli qarori[54] bilan **Suv olish inshootlarining turiga qarab burg‘i qudug‘i (artezian), quduq, galereya, buloq va boshqalarga bo‘lingan.** Ularning har biri turi, xususiyati va maqsadi jihatdan bir-biridan farqlanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarda va huquqiy ilmiy ishlarda yuqoridagi atamalarga ta’rifni uchratmaymiz, biroq *geologik materiallar*da ushbu atamalarga quyidagicha ta’riflar berilgan:

Artezian suvi – bir yoki bir nechta qatlamlar oralig‘ida joylashgan suv havzasi. Artezian suvi bosimli suv hisoblanib, qazilgan quduq bo‘ylab eng yuqorigacha ko‘tarilish yoki favvora kabi otilish xususiyatiga egadir. Ba’zi yuridik adabiyotlarda artezian qudug‘i deb yuritilishi holatlari ham mavjud[55].

Buloq – yerosti suvlarining tabiiy chiqish joyi.

Quduq – burg‘ilash yo‘li bilan yoki jismoniy shaxslar o‘zlari tomonidan qazilib, undagi suv orqali ichimlik, maishiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun sutka davomida 5 metr^{3}gacha hamda chuqurligi 25 metrgacha bo‘lgan suv inshooti.

Galereya – tog‘li va tog‘li hududlarda yerosti suvlarini to‘plash va muayyan maqsadlarda foydalanish turi. Bu tushuncha faqatgina Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarida foydalaniladi.

Yuqoridagi shakllarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerosti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 439-sonli qarori[56] bilan 2024-yil 1-yanvarga qadar yerosti suvlaridan foydalanishning aniq hisobini yuritish maqsadida o‘z tasarrufidagi yerosti suv olish inshootlarini suv hisoblash vositalari bilan belgilangan tartibda jihozlash majburiyati yuklatildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi 74-sonli “Suv xo‘jaligida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy

[54] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.03.2022-y., 09/22/133/0237-son.

[55] Misstear, Bruce, David Banks, and Lewis Clark. Water wells and boreholes. John Wiley & Sons, 2017.

[56] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.12.2022-y., 07/22/439/1081; 10.08.2023-y., 06/23/116/0579-son.

qilish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash to‘g‘risida”gi Farmoni bilan **Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi (B. Islamov), Soliq qo‘mitasi (Sh. Kudbiyev), “Suvxo‘jaliknazorat” inspeksiyasi (R. Raximov) uch oy muddatda yer ostidan suv olish quduqlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazish** topshirig‘i berilgan edi. Unga ko‘ra, jami 44 ming yerosti suv olish quduqlaridan 40 mingtasida suv olish hisoblagichlari o‘rnatilmaganligi aniqlandi[57].

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 7-dekabrdagi **“Yerosti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror**ida yerosti suvlari muhofazasi bo‘yicha qator chora-tadbirlar belgilangan. Hujjat bilan yerosti suvlari sathi pasayib borayotgan, quduqlarni burg‘ilash va yerosti suvlaridan foydalanishga moratoriy joriy etilgan hududlar ro‘yxati tasdiqlandi.

2023-yil 1-apreldan boshlab yerosti suvlarini olish uchun inshootlarga (burg‘ilash qudug‘i, suv olish inshootlari, buloqlar) ega barcha foydalanuvchilarga Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining hududiy gidrogeologiya stansiyalariga yillik suv olish hajmi to‘g‘risida belgilangan tartibda hisobot taqdim etish majburiyati yuklatildi.

Aholining barcha toifalarida suvga, ayniqsa, yerosti suvlariga bo‘lgan talab ortib borayotgani bois, so‘nggi yillarda yerosti suvlari qazib olinishi sezilarli darajada oshdi. Taqqoslash uchun, 2014-yildan 2022-yilga kelib mamlakatimizda yerosti suvlarini qazib olish hajmi 30 foizga oshgan, ayrim hududlarda esa bu ko‘rsatkich ancha yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Amalda esa qazib olingan yerosti suvlari miqdori rasmiy ko‘rsatkichlardan biroz ko‘proq bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Buning aniq hajmini hozircha belgilash qiyin, chunki tegishli manzillardagi barcha quduqlar bo‘yicha to‘liq ma’lumot mavjud emas. “Suvmap.uz” platformasida mamlakatimizdagi daryolar, ko‘llar, kanallar, suv omborlari, quduqlar va artezian quduqlarining joylashuvi haqida ma’lumot berilgan bo‘lsa-da, yerosti suv

[57] 2025-yil 28-may kuni Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida Yer osti suvlariga quduqlarni burg‘ilash va ulardan foydalanish munosabatlarini tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari mavzusida matbuot anjumanidan (https://www.youtube.com/live/0DHoMkJ-8tA)

inshootlariga oid ma'lumotlar yetarli emasligi bois bu boradagi ma'lumotlar sezilarli darajada kam. *Ushbu saytni takomillashtirish va uni bu sohada ruxsatnomalar berishga vakolatli O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi "Yer qa'ridan foydalanish markazi" davlat muassasasi bilan integratsiyalash muhim o'rin tutadi.*

Oxirgi yillarda respublikaning yetti viloyati va 21 tumanida yerosti suvlari sathi ko'tarilib, suv sathi besh metr va undan ortiq pasaygan, natijada ularning zaxiralari qisqargan. Shu sababli yerosti suvlaridan foydalanish bo'yicha mavjud me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish zarur.

Yuqorida qayd etilgan qarorda[58] O'zbekiston konchilik va geologiya vazirligi tizimidagi "O'zbekgidrogeologiya" DUKni raqamli ma'lumotlar bazasi va yerosti suvlarining interaktiv monitoringi xaritalarini tayyorlash uchun zamonaviy apparat-dasturiy vositalar bilan jihozlangan vaziyat markazi faoliyatini tashkil etish ham nazarda tutilgan. 2023-yil 1-maydan boshlab yerosti suvlaridan foydalanuvchilarning yaratilgan elektron ma'lumotlar bazasini Soliq qo'mitasi ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalash ishlari amalga oshirildi.

Hujjatga ko'ra, millionlab suv foydalanuvchilari uchun mavjud quduqlarning texnik pasportini tayyorlash, suvdan foydalanishga maxsus ruxsatnoma olishda amaliy va axborot yordamini ko'rsatish, shuningdek, aholi o'rtasida yerosti suvlarini muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik me'yorlari va talablariga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha keng tushuntirish ishlari olib borishga alohida e'tibor qaratiladi.

1.3. Yerosti suvlaridan foydalanuvchilar va iste'molchilarning huquq va majburiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga ko'ra, "Yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

[58] Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.12.2022-y., 07/22/439/1081; 10.08.2023-y., 06/23/116/0579-son.

Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin”.

Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega[59]. Ushbu huquqni amalga oshirishda fuqarolarning huquq va erkinliklari oliy qadriyat[60] sifatida e’tirof etiladi, xususan, yerosti suvlari muhofazasi va undan oqilona foydalanish yuzasidan doimiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu huquq ijtimoiy va ekologik ahamiyatga ega bo‘lgani bois o‘ziga xos o‘rin tutadi. Aholiga qulay atrof-muhit holatini ta’minlash uchun tabiiy resurs obyektlaridan samarali va oqilona foydalanish tartiblarini yaratish va takomillashtirish zarur[61].

Yerosti suvlarining ifloslanishi, ularning iste’molga yaroqsiz bo‘lishi, tabiiy va inson faoliyatining natijasi bo‘lib, bu ekologik tahdidlarga olib keladi. Misol uchun, sanoat chiqindilari, qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan pestitsidlar va o‘g‘itlar, shuningdek, maishiy chiqindilar yerosti suvlariga kirib, ularning ifloslantirishi mumkin. Ushbu ifloslanishlar yerosti suvlarining sifatini yomonlashtiradi va ularni ichimlik suvi sifatida ishlatish imkoniyatini kamaytiradi. Ifloslanishning oldini olish va zararli moddalarning yerosti suvlariga kirib kelishini kamaytirish uchun samarali ekologik yerosti suvlardan foydalanuvchilar va iste’mol qiluvchilarni huquq va majburiyatlarini aniq belgilash va ularning ustidan nazorat hamda muhofaza qilish choralari zarur.

Yuqoridagi konstitutsiyaviy huquqni amalga oshirish doirasida qator xalqaro hujjatlarga qo‘shilish va uning implementatsiyasi yo‘lida ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimiz 2025-yil 11-martda **Atrof-muhit bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish imkoniyati, ishtiroki va odil sudlovga erishish imkoniyati**

[59] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

[60] Christoff, Peter. “Ecological citizens and ecologically guided democracy”. Democracy and green political thought. Routledge, 2003. 162 p.

[61] Kiselyov, Alexandr, et al. “Solving the problems of conservation and rational use of natural resources as a modern factor in the development of the world and regional economy”. E3S Web of Conferences. Vol. 291. EDP Sciences, 2021.

to‘g‘risidagi konvensiya (Orxus konvensiyasi)ga qo‘shildi. Bu davlatimizda fuqarolarning ekogik huquqlarini to‘laqonli ta’minlashdagi muhim qadam bo‘ldi.

Yerosti suvlaridan foydalanish turli sohalarda amalga oshiriladi. Ichimlik suvi ta’minoti eng asosiy foydalanish turi hisoblanadi. Bundan tashqari, sanoat, qishloq xo‘jaligi va energetika sohalarida ham ulardan faol foydalaniladi. Yerosti suvlaridan foydalanishning iqtisodiy jihatlari ham katta ahamiyatga ega, chunki ular ko‘plab tarmoqlarda faoliyat yuritishni ta’minlaydi.

Ushbu mavzu ochib berishda avvalo, suvdan foydalanuvchi va suv iste’molchisi tushunchalariga aniqlik kiritib olishimiz zarur. Suv kodeksi 4-moddasiga ko‘ra:

suvdan foydalanuvchi – suv resurslaridan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanadigan yuridik yoki jismoniy shaxs;

suv xo‘jaligining foydalanuvchi tashkilotlari – O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining tashkiloti bo‘lib, uning zimmasiga suv xo‘jaligi obyektlariga texnik xizmat ko‘rsatish va ulardan foydalanish vazifalari yuklatilgan.

Suv xo‘jaligining foydalanuvchi tashkilotlariga “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari, irrigatsiya tizimi boshqarmalari, magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalari, nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, meliorativ ekspeditsiyalar, suv omborlaridan va yirik gidrotexnika inshootlaridan foydalanish boshqarmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari kiradi. Bu tushunchalar orqali shuni anglash mumkinki, suvdan foydalanuvchi tashkilotlar tomonidan tuzilgan shartnomalar asosida suv iste’molchilariga belgilangan shartlar asosida yetkazib berishni tushunishimiz mumkin.

Kodeksning XI bobi aynan suvdan foydalanuvchilarning va suv iste’molchilarining huquq va majburiyatlari masalasiga bag‘ishlangan.

Suvdan foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga ega:

suv obyektlaridan ular qanday maqsadda berilgan bo‘lsa, o‘sha maqsadlarda foydalanish;

suvdan foydalanishni amalga oshirish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda inshootlarni, qurilmalarni hamda boshqa obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish;

berilayotgan suvning miqdori va sifatini tekshirish;

suv resurslarini boshqarishga doir qarorlar qabul qilinishida qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etish;

suv manbasining taxmin qilingan va haqiqiy suvliligidan kelib chiqqan holda suv olish limitlarini o‘zgartirish bo‘yicha takliflar kiritish;

o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi, shu jumladan belgilangan suv olish limitlariga va suv berish rejimiga muvofiq suv olish huquqi buzilganligi tufayli yetkazilgan zararning o‘rni qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanishini talab qilish;

suvdan foydalanuvchilar uyushmalarini va boshqa birlashmalarni qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etish.

Suvdan foydalanuvchilar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin[62].

Bu huquqlar orqali suvdan foydalanuvchilar o‘zlarining suvga bo‘lgan huquqlarini to‘laqonli amalga oshira oladilar. Shuningdek, suv obyektlari qanday maqsadlar uchun foydalanishga berilgan bo‘lsa, faqat shu maqsadlarda foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Shu sababli Suv kodeksining 57-moddasiga, ya’ni suvdan foydalanish yoki suvni iste’mol qilish huquqini bekor qilish asoslarining 6-shakli sifatida **“Suvdan ruxsatnomada belgilangan maqsadlardan boshqa maqsadlarda foydalanish”** bandini kiritish maqsadga muvofiqdir. Chunki suvdan foydalanish maqsadlariga rioya etmaslik huquqbuzarliklarga olib keladi, asosiy maqsad chetga surilib, suv quyi maqsadlarga yo‘naltiriladi, bu esa suv bilan ta’minlash zanjirini buzadi va aholi salomatligiga jiddiy ziyon yetkazadi. Masalan, turli tashkiliy shakldagi korxonalar aholi uchun ajratilgan arzon tarifdagi suvga ulanish holatlari ham uchrab turadi:

Suv iste’molchilari:

berilayotgan suvning miqdori va sifatini tekshirish;

[62] https://lex.uz/uz/docs/-7655343

qonunchilikda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, suv iste'moli to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha olinmay qolgan suv uchun kompensatsiya talab qilish;

suv resurslarini boshqarishga oid qarorlar qabul qilinishida ishtirok etish;

o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda suv olish limitlarini o‘zgartirish bo‘yicha takliflar kiritish;

suvga doir munosabatlar sohasidagi o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, umumiy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish uchun uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashish;

o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishi, shu jumladan belgilangan suv olish limitlari va suv berish rejimiga muvofiq suv olish huquqining buzilishi tufayli yetkazilgan zararning o‘rni qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanishini talab qilish huquqiga egadir.

Berilayotgan suvning miqdori va sifatini tekshirish huquqi nisbiy tushuncha uni qayerda, qanday amalga oshirish, natijasi yuzasidan majburiyatlarni belgilash yuzasidan ijrosi bo‘yicha qonunosti hujjati qabul qilinmagan. Normani ushbu qismiga **ichimlik uchun yaroqli, sog‘liq uchun xavfsiz suvdan doimiy iste'mol qilish** mazmunidagi bandni kiritish zarur. Bu orqali inson huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiyalarning talablarini milliy qonunchiligimizga singdirgan bo‘lamiz.

Suv iste'molchilari berilgan huquqlar doirasida bizningcha, **suv iste'molini amalga oshirish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda inshootlar, qurilmalar hamda boshqa obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish huquqi berilishi** lozim. Bu albatta suv bilan ta'minlashda nosozliklar vujudga kelganda va o‘z vaqtida suv bilan qishloq xo‘jaligi ekinini yoki texnik inshootni ta'minlay olmaslik hamda hosildorlikdan ko‘zlangan maqsadga erishishni kamaytirish xavfini bekor qilishga yordam bergan bo‘lardi.

Bundan tashqari, **yerosti suvlarini ichimlik suvi sifatiga tekshirish tartibi har yili, istisno hollarda (masalan, kasalliklar yuzaga kelganda) har oyda, majburiy sanitariya ruxsatnomasini bergan tashkilot tomonidan belgilangan tartibda o‘tkazilishi**

nazarda tutilmagan. Shu nuqtayi nazardan, ichimlik suvi orqali kelib chiqadigan kasalliklar xavfi yuqoriligini hisobga olsak, bu masala juda muhim hisoblanadi.

Ruxsatnomasiz yerosti suvlaridan umumiy foydalanish holatlarida esa, bizningcha, nodavlat sektor yoki sanitariya organlari tomonidan pullik xizmat asosida uzoq muddatli shartnomalar tuzish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu sababli yuqoridagi qonunda iste’molchilarning huquqlari qatorida belgilangan “berilayotgan suvning miqdori va sifatini tekshirish” huquqini quyidagicha o‘zgartirish maqsadga muvofiq: **“berilayotgan suvning miqdori va ruxsatnoma berishi belgilangan ruxsat etuvchi davlat tashkiloti bilan tuzilgan shartnoma asosida har yili suvning sifatini tekshirish”** degan shaklga o‘zgartirish lozim.

Fikrimizcha, ushbu huquqlar qatoriga **“toza va sifatli ichimlik suviga ega bo‘lish”** huquqini ham kiritish lozim. Argentina va Jazoir kabi bir qator davlatlar sanitar jihatdan toza ichimlik suvi fuqarolarning uzviy huquqi etib belgilangan. **Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo‘mitasi**ning Inson huquqlari bo‘yicha Komissarining 2003-yildagi 15-sonli qarori 2-moddasi[63]da ham ***“Insonlar shaxsiy va kundalik ehtiyojlari uchun yetarli, xavfsiz, sotib olish qobiliyatiga ega bo‘lgan darajada suv olish huquqiga ega”*** deb belgilangan. Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham belgilanganidek, ijtimoiy davlat mohiyatini yana bir bor isbotlovchi bu huquqning qonunda kiritilishi davlatimizni yangi marralarga olib chiqishda muhim qadam bo‘ladi.

Shuningdek, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, barcha kasalliklarning 80 foizi[64] iste’mol qilinadigan suv orqali yuqishi aniqlangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash juda muhim ahamiyatga ega. “**Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida[65]gi 784-sonli Qonun** hamda O‘zbekiston Respublikasining Davlat bosh sanitar vrachining “O‘zbekiston aholisini markazlashtirilgan xo‘jalik ichimlik suvi bilan ta’minlash uchun yer usti va yerosti suv

[63] https://www.refworld.org/legal/general/cescr/2003/en/39347

[64] Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof muhit kuni bilan bergan ma’ruzasidan (https://press.un.org/en/2003/sgsm8707.doc.htm)

[65] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 23.07.2022-y., 03/22/784/0661-son.

manbalari sinflarini aniqlash, gigiyenik baholashning sanitariya qoidalari va normalari" talablarga muvofiq amalga oshirilishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida"gi 16-sonli Farmoni bilan barcha ichimlik suvi ta'minoti korxonalarida sifat monitoringini yuritish va ma'lumotlarni boshqarish markazlarini yaratish vazifasi yuklatildi. Ushbu farmon asosida quyidagi vazifalar belgilandi:

Birinchidan, hududlarda ichimlik suv sifati monitoringini yurituvchi markaziy laboratoriya tashkil etish;

Ikkinchidan, barcha shahar va tumanlardagi ichimlik suv sifatini nazorat qilish uchun laboratoriyalarga biriktirish yoki hududiy sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limlari bilan shartnomalarni rasmiylashtirish;

Uchinchidan, ichimlik suv sifati monitoringini yuritadigan laboratoriyalarining texnik jihatdan malakaliligini ma'qullash.

Shuningdek, mamlakatimizda yuritilayotgan ochiqlik va shaffoflik siyosatini amalga oshirishning bir shakli sifatida, aholining ichimlik suvi ta'minoti bo‘yicha sutkalik holat haqida aniq va ishonchli ma'lumotlar bilan muntazam ta'minlash orqali bu jarayon yanada mustahkamlanadi. Shu sababli yuqoridagi farmonning 62-maqsadining 4-bandi ijrosi yuzasidan 4-vazifa sifatida ***"Tuman hokimliklari yoki Qurilish va uy-joy xo‘jaligi vazirligi ijtimoiy tarmoqlari orqali sutkalik ichimlik suvining sifati haqida ishonchli ma'lumotlar berib borish"*** mazmunida o‘zgartirish kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xususan, artezian yoki suv havzalari orqali olinadigan suvlarning sifatini o‘lchash masalasiga to‘xtaldik, ammo quduqlar orqali olinadigan ichimlik suvlarining sifati masalasi ochiq qolmoqda. Avvalo, bu masalada quduq qazilgandan so‘ng uning holati bo‘yicha, ya'ni ichimlik suvi maqsadlarida foydalanish mumkin yoki mumkin emasligi, uning har yilda yoki boshqa muqobil sanitar muddatlarda sifati yuzasidan tekshirib turilishi haqida ruxsatnoma bergan tashkilot tomonidan vaqtida tekshiruvlar o‘tkazish (oilada biror kim kasal bo‘lsa, unda birinchi o‘rinda navbatdan tashqari tekshiruvlar

o‘tkazish lozim) ma’lumotlar yuzasidan aholini doimiy ravishda xabardor qilib borish lozim.

Suvdan foydalanuvchilar va iste’molchilar huquqlarining bir ko‘rinishi sifatida, suv iste’moli to‘g‘risidagi shartnoma bo‘yicha olinmay qolgan suv uchun kompensatsiya talab qilish vakolati mavjud. Biroq, qonunchiligimizda, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Tabiatni muhofaza qilishni ta’minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 820-son qarori**[66] bilan limitdan ortiqcha foydalanish uchun qo‘shimcha to‘lovlar mexanizmi takomillashtirilgan bo‘lishiga qaramay, olinmay qolgan suv uchun kompensatsiya talab qilish bo‘yicha ehtiyoj kamligi yoki amaliyotning kam uchraganligi sababli bu qism to‘laqonli huquqiy mexanizm sifatida shakllantirilmagan[67].

Yerosti suvlarining muhofazasida jamoat tashkilotlarining roli beqiyosdir. Bu suvdan foydalanuvchilar va iste’molchilarga huquq sifatida berilishi bilan birga, Suv kodeksining 18-moddasida shunday belgilangan[68]: “Yuridik shaxslar, nodavlat notijorat tashkilotlari bo‘lgan suvdan foydalanuvchilar o‘z ta’sis hujjatlariga muvofiq, shuningdek, fuqarolar suv resurslarini boshqarishda, suvdan va suv obyektlaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishda ishtirok etish huquqiga ega.

Suv xo‘jaligining foydalanuvchi tashkilotlari va suv yetkazib beruvchi tashkilotlar suv resurslarini boshqarishda, suvdan va suv obyektlaridan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishda suvdan foydalanuvchilarning, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolarning, shu jumladan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining takliflarini hisobga oladi”.

Har qaysi sohada jamoatchilik nazoratini to‘laqonli o‘rnata olmas ekanmiz, o‘sha sohada huquqbuzarliklar, tartibbuzarliklar muttasil davom etaveradi. Buning uchun suv bilan bog‘liq **ma’lumotlarning oshkora va haqqoniyligi**, ulardan foydalanishda

[66] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 07/21/73/1227-son; 26.02.2022-y., 09/22/88/0165-son.

[67] Oybek, O. (2025). Rights and Obligations of Users and Consumers of Groundwater in Uzbekistan. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 4(4), 52–56.

[68] O‘zbekiston Respublikasi Suv kodeksi: https://lex.uz/uz/docs/-7655343.

jamoatchilik erkin va to‘siqlarsiz foydalanish muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, **jamoatchilik nazoratini oshirish**, ular tomonidan amalga oshiriladigan monitoring ishlarini yuritishning to‘la huquqiy mexanizmini yaratish oldimizda turgan muhim yo‘nalishlardandir. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-iyulda **“Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 352-son qarori** bilan *Jismoniy shaxslar tomonidan qayd etilgan suv xo‘jaligi sohasidagi huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi fotosuratlar va (yoki) videoyozuvlarni qabul qilish, ko‘rib chiqish hamda ularni taqdim etgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi haqida nizom* qabul qilindi. Bu bilan suv resurslari, xususan, yerosti suvlariga e’tibor kuchaytirilib, ularning ustidan nazoratni to‘laqonli amalga oshirishga imkon beradi.

Tabiat resurslarining bir ko‘rinishi sifatida yerosti suvlarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish munosabatlarida davlat va jamoatchilik nazorati hamkorligini ta’minlash, ularning samarali ishlashini kafolatlash bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi.

Suvdan foydalanish va iste’mol qilish subyektlari jismoniy hamda yuridik shaxslar bo‘lishi mumkin; ular xususiy yoki davlat tashkiloti sifatida tasniflanadi[69].

Yerosti suvlaridan foydalanish maqsadiga ko‘ra ichimlik, maishiy ehtiyoj, qishloq xo‘jaligi, davolash-kurort, sanoat, baliqchilik va boshqa turlarga ajratiladi.

Yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi huquqiy munosabatlarning mazmunini tahlil qilganda, O‘zbekiston Respublikasining **Suv kodeksi va “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi Qonuni** suvdan foydalanuvchilar va iste’molchilarning yerosti suvlari sohasidagi huquq va majburiyatlarini yetarlicha tartibga solmaganini, shuningdek, yerosti suvlarining barcha turlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishning oldini olish bo‘yicha qonun talablariga yetarlicha rioya qilinmayotganini ko‘rish mumkin.

[69] Hall, David, and Emanuele Lobina. “Private and public interests in water and energy”. Natural resources forum. Vol. 28. No. 4. Oxford, UK: Blackwell Publishing Ltd., 2004.

Yerosti suvlaridan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlarida oqilona foydalanish tamoyili to‘liq aks ettirilmasa, yerosti suvlaridan foydalanish huquqining samaradorligi shubha ostiga olinadi. Shu sababli yerosti suvlaridan foydalanuvchilar va iste’molchilarning huquq va majburiyatlari o‘rtasidagi kamchiliklar yerosti suvlaridan foydalanish va iste’moli jarayonida muammolarga olib keladi. Binobarin, tabiatdan foydalanishni amalga oshirishda tabiatni huquqiy muhofaza qilish va ekologik jihatdan asosli foydalanish qoidalarini qonunda mustahkamlash muhim bo‘lib, yillar o‘tgan sayin bu masala o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksi 75-moddasida suvdan foydalanuvchilarning majburiyatlari etib quyidagilar belgilangan:

o‘ziga berilgan suv resurslarini oqilona boshqarishi va ulardan foydalanishi, suvdan maqsadsiz foydalanilishiga yo‘l qo‘ymasligi, suvni tejab sarflash, uning sifatini tiklash va yaxshilash choralarini ko‘rishi;

belgilangan suv olish limitlariga va suvdan foydalanish qoidalariga rioya etishi;

suv obyektlaridan belgilangan maqsadlarda foydalanishi;

suvdan maxsus foydalanishda suvdan maxsus foydalanishga doir ruxsatnomani rasmiylashtirishi;

suvdan foydalanish to‘g‘risida shartnoma tuzishi, suv olish uchun o‘z vaqtida talabnoma berishi;

tarkibida ifloslantiruvchi moddalar mavjud bo‘lgan suvlarning suv obyektlariga oqizilishini to‘liq to‘xtatish choralarini ko‘rishi;

boshqa suvdan foydalanuvchilarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari buzilishiga, shuningdek, suv xo‘jaligi obyektlariga va tabiiy resurslarga (yerlarga, o‘simlik va hayvonot dunyosiga, foydali qazilmalarga va boshqalarga) zarar yetkazilishiga yo‘l qo‘ymasligi;

suv olish joylarini suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlashi, o‘ziga tegishli suv xo‘jaligi obyektlari va ulardagi inshootlarni texnik jihatdan soz holatda saqlashi, ulardan foydalanishning belgilangan qoidalariga rioya etishi;

oqova suvlar suv obyektlariga va joy relyefiga oqiziladigan joylarni avtomatik ravishda monitoring qilish vositalari bilan jihozlashi;

olinadigan suv miqdorining hamda suv obyektlariga va joy relyefiga oqiziladigan oqova suvlar hajmining hisobini yuritishi hamda zarur axborotni suvdan maxsus foydalanishga doir ruxsatnomani bergan vakolatli organlarga, shuningdek, suv yetkazib beruvchi tashkilotlarga taqdim etishi;

suv resurslaridan foydalanganlik, shuningdek, suv yetkazib beruvchi tashkilotlarning xizmatlari va shartnoma asosida ko‘rsatilgan boshqa suv xo‘jaligi xizmatlari uchun to‘lovlarni, shuningdek, suv obyektlariga hamda joy relyefiga ifloslantiruvchi moddalarni oqizganlik uchun kompensatsiya to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lashi;

suvni tejash va raqamli texnologiyalarni joriy etish choralarini ko‘rishi;

suvlarning ifloslanishi, bulg‘anishi va kamayib ketishining oldini olish hamda ularni bartaraf etish, suv obyektlariga suvlarning zararli ta’sirini bartaraf etish choralarini ko‘rishi, shuningdek, yer usti va yerosti suvlari to‘planadigan maydonlarning ifloslanishiga yo‘l qo‘ymasligi;

suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonalarini, sohil bo‘yi mintaqalarini va sanitariya muhofazasi zonalarini saqlashning belgilangan rejimiga rioya qilishi;

o‘zining suv xo‘jaligi obyektlariga suvlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlarning vakillarini belgilangan tartibda kiritishi hamda ularga zarur axborotni taqdim etishi;

suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta’sir etadigan avariyalar hamda boshqa tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganligi to‘g‘risida o‘ziga xizmat ko‘rsatadigan suv yetkazib beruvchi tashkilotlarni, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarini o‘z vaqtida xabardor qilishi hamda ularning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha ishlarni amalga oshirishda, shuningdek, suv obyektlaridagi ta’mirlash-tiklash ishlarida qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etishi;

baliqlarni, boshqa suv florasi va faunasini muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishi shart.

Suvdan foydalanuvchilarning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

O‘z balansida vertikal sug‘orish qudug‘iga ega bo‘lgan suvdan foydalanuvchi tashkilotlar va jismoniy shaxslar mazkur sug‘orish qudug‘iga bevosita tutash bo‘lgan yer uchastkasi uchun suv xo‘jaligi xizmatlari to‘lovidan ozod etiladi.

Suv iste’molchilari:

suv resurslaridan oqilona foydalanishi, suvning maqsadsiz iste’mol qilinishiga yo‘l qo‘ymasligi, suvni tejab sarflashi, suvlarning sifatini tiklash va yaxshilashga g‘amxo‘rlik qilishi;

belgilangan suv olish limitlari va suv iste’moli qoidalariga rioya qilishi;

suvni maxsus maqsadlarda iste’mol qilishda qonunchilikda belgilangan tartibda ruxsatnomani rasmiylashtirishi;

ifloslantiruvchi moddalar mavjud bo‘lgan oqova suvlarni suv obyektlariga oqizishni tamomila tugatish chora-tadbirlarini ko‘rishi;

boshqa suv iste’molchilari va suvdan foydalanuvchilarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarining buzilishiga, shuningdek, suv obyektlari, xo‘jalik obyektlari va tabiiy resurslarga (yerlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi, foydali qazilmalar va boshqalarga) zarar yetkazilishiga yo‘l qo‘ymasligi;

suv olish joylarini suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlashi, ichki suv obyektlari va inshootlarini texnik jihatdan soz holatda saqlashi, ulardan foydalanishning belgilangan qoidalariga rioya qilishi.

olinayotgan suv miqdorini hisobga olishi va suvni maxsus iste’mol qilish uchun ruxsatnoma bergan organlarga zarur axborotni taqdim etishi;

suv resurslaridan foydalanganlik hamda suvni yetkazib berish xizmatlari (bundan suv xo‘jaligining foydalanuvchi tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan, qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv yetkazib berish xizmatlari mustasno) va boshqa suv xo‘jaligi xizmatlari uchun to‘lovlarni o‘z vaqtida, shartnomaviy asosda to‘lashi;

suvlarni muhofaza qilish bo‘yicha belgilangan tartibda kelishilgan texnologiya, o‘rmon-melioratsiya, agrotexnika, gidrotexnika, sanitariya va boshqa tadbirlarni amalga oshirishi;

suvlarning bulg‘anishi, ifloslanishi va kamayib ketishining oldini olish hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlarida o‘zlariga xizmat

ko‘rsatuvchi suvdan foydalanuvchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining talabiga ko‘ra ishtirok etishi, shuningdek, yerusti va yerosti suvlari to‘planadigan maydonlarning ifloslanishiga yo‘l qo‘ymasligi;

suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonalari, sohil bo‘yi mintaqalari va sanitariya muhofazasi zonalarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tartibi hamda shartlariga rioya etishi;

suvlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlarning vakillarini belgilangan tartibda suv xo‘jaligi obyektlariga kiritishi va ularga zarur axborotni taqdim etishi;

suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta’sir etadigan avariyalar, shuningdek, boshqa tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganligi to‘g‘risida o‘zlariga xizmat ko‘rsatuvchi suvdan foydalanuvchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlarini o‘z vaqtida xabardor qilishi, shuningdek, ularning oqibatlarini bartaraf etish ishlarida ishtirok etishi;

baliqlarni va boshqa suv florasi hamda faunasini muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishi shart.

Suv iste’molchilarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Birinchi bob bo‘yicha xulosa

Ushbu bobda yerosti suvlaridan foydalanishni “Bronza” davridan boshlanib, **Qadimgi Yunoniston sivilizatsiya** markazlarida ham foydalanilganlik holatlarining aniqlanganligi yuzasidan tahliliy ma’lumotlar berilgan.

Yerosti suvlarining muhofazasi naqadar muhimligi **Birlashgan Millatlar Tashkiloti** tomonidan berilgan statistik ma’lumotlar hamda turli davlatlar va mintaqalar kesimida yerosti suvlarining iste’moldagi o‘rni bilan ochib berilgan.

Mamlakatimizda yerosti suvlaridan foydalanish holati va miqdori hamda undan foydalanish maqsadlari yo‘lida foydalanish doirasi haqida ma’lumotlar berilgan.

A.A. Ruskol, N.A. Sirodoev, L.A. Zaslavskaya, O.S. Kolbasovna, T.Y. Titovnina, Rittel, Webber va Y.A. Gledkolar singari

olimlarning yerosti suvlari huquqiy muhofazasi va undan foydalanish borasidagi qarashlari, fikrlar tahlil etilib, muhokamalar asosida shaxsiy fikrlar berildi.

Milliy qonunchiligimizga yerosti suvlaridan foydalanish umumiy va maxsus usullari batafsil tahlil etildi. Bu masaladagi **Qozog‘iston, Rossiya, Ispaniya** singari davlatlar qonunchiligi asosida tahliliy fikrlar bildirildi va takliflar ishlab chiqildi.

Davlat rahbarining BMTda nutqlari, Yangi O‘zbekiston strategiyasi kitoblaridagi g‘oyalari hamda joylarda suv masalalaridagi holat, uni yaxshilash borasidagi tavsiyalari yuzasidan fikrlari muhim dasturilamal bo‘lishi haqidagi tahliliy materiallar tahlil etildi.

Yerosti suvlaridan foydalanish maqsadlari, ularning muhimligi darajalari, ular himoyasining o‘ziga xos jihatlari, ulardan oqilona foydalanish usullari masalalari mulohazalar bildirilib, yaxshilash bo‘yicha takliflar berildi.

Suv bilan bog‘liq munosabatlar ishtirokchilari, suvdan foydalanuvchilar va iste’mol qiluvchilarning huquq va majburiyatlari, ularni amalga oshirish mexanizmlari, xalqaro hujjatlarda ularning aks etganligi, ularni takomillashtirish masalalari bo‘yicha berilgan fikrlar bilan boyitilgan.

II BOB. YEROSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHDAGI DAVLAT BOSHQARUVI

2.1. Yerosti suvlaridan foydalanish uchun ruxsat olish tartibi

Bugungi vaziyatda nafaqat yerosti suvlarini muhofaza qilishni huquqiy takomillashtirish, balki ulardan foydalanishga ruxsat berish masalalarini chuqur tahlil etish zarur. Bu, albatta, sohada foydalanishni tartiblash va qoida buzilish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Bundan ko‘zlangan maqsad yerosti suvlaridan maxsus foydalanish yoki ularni maxsus iste’mol qilish bilan bog‘liq jarayonlarni tartibga solish, yerosti suvlaridan oqilona foydalanish, yerosti suvlari zaxiralarining kamayishi yoki sathining ko‘tarilishining oldini olish, suv olish miqdori va sifatini nazorat qilish hamda yerosti suvlaridan foydalanuvchilar yoki ularni iste’mol qiluvchilar hisobini yuritishdan iborat.

So‘nggi yillarda respublikada ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish hamda eskirgan, zamon talablariga mos kelmaydigan tartib-taomillarni takomillashtirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6044-sonli Farmoni** 5-ilovasida litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni olish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ro‘yxatiga yerosti suvlariga quduqlarni burg‘ulash uchun ruxsatnoma olish, ya’ni yerosti suv resurslaridan maxsus foydalanishga ruxsatnoma berish masalasi ham kiritilgan. Ushbu jarayon maxsus vakolatli davlat organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon va geologiya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Avval ushbu ruxsatnomalar Ekologiya vazirligi (yerosti suvlaridan maxsus foydalanganlik uchun) va Kon va geologiya vazirligi (yerosti suvlariga quduqlarni burg‘ulash uchun) tomonidan berilgan edi. Prezident farmoni bilan ushbu ikki yo‘nalishda ruxsatnomalar berish O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazir-

ligi huzuridagi “Yer qa’ridan foydalanish markazi” davlat muassasasi vakolatiga berildi.

Shu o‘rinda tabiiy resurslardan umumiy va maxsus foydalanish turlarini bir-biridan ajratib olish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston Respublikasining **“Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 754-XII-sonli Qonuni**ga ko‘ra, “*O‘zbekiston Respublikasida tabiatdan umumiy tarzda va maxsus yo‘sinda foydalaniladi.*

Tabiatdan umumiy tarzda foydalanish fuqarolar tomonidan hayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish uchun tekinga tabiiy resurslarni ayrim foydalanuvchilarga biriktirmay va hech qanday ruxsatnomalar bermay turib amalga oshiriladi.

Tabiatdan maxsus yo‘sinda foydalanish tariqasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarga ishlab chiqarish va o‘zga xil faoliyatni amalga oshirish uchun tabiiy resurslar haq olib maxsus ruxsatnomalar asosida egalik qilishga, foydalanish yoki ijaraga beriladi”.

Shu asosda yerosti suvlardan foydalanish ham ikki kategoriyaga bo‘linadi: umumiy va maxsus yerosti suvlaridan foydalanish. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va unda berilgan ma’muriy reglament bilan yerosti suvlaridan umumiy va maxsus foydalanish doirasi belgilab berildi.

Umumiy foydalanish – jismoniy shaxslar tomonidan chuqurligi 25 (yigirma besh) metrgacha bo‘lgan quduqlardan sutkasiga 5 (besh) kub metr hajmdagi yerosti suvlaridan foydalanganda tatbiq etilmaydi (bunda quduqda o‘rnatilgan asbob-uskunalarning texnik quvvati ko‘rsatkichlari asos qilib olinadi).

Maxsus foydalanish – umumiy foydalanishga qo‘yilgan limitlardan ortiqcha suvdan foydalanganlik va yuridik shaxslar tomonidan yerosti suvlaridan maxsus foydalanish va iste’mol qilishni nazarda tutadi.

Ruxsatnoma olmasdan yerosti suvlaridan maxsus foydalanish yoki ularni maxsus iste’mol qilish huquqiy normativ hujjatlar bilan qat’iyan taqiqlanadi. Bunda zax qochirish (drenaj) maqsadlari uchun ruxsatnoma olish talab qilinmaydi (zax qochirish uchun

ishlatiladigan burg‘i quduqlari suvidan ma’lum maqsadlarda foydalanish bundan mustasno).

Yer qa’ri suvlaridan maxsus foydalanganlik va iste’mol qilganlik uchun ruxsatnoma qonunchilik hujjatlari bilan tasdiqlangan ro‘yxatga muvofiq, yerosti suvlarining ko‘p yillik o‘rtacha sathiga nisbatan suv sathi 5 metrdan ortiq pasayib ketgan hududlarda mavjud quduqlardan yerlarni sug‘orish uchun suv tejovchi texnologiyalar joriy etilganda beriladi. Bu, albatta, sohaga zamonaviy texnologiyalarni jalb etish va undan oqilona foydalanishni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 9-sonli qaroriga ko‘ra, “Yerosti suvlaridan maxsus shaklda foydalanganlik uchun ruxsatnomaning amal qilish muddati yerosti suvlarini olish texnologiyasi va limiti, sanitariya-gigiyena va atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga rioya qilgan holda, yakka quduqlar yoki zaxiralari tasdiqlangan guruhli suv olish inshootlari, shu jumladan, galereya, buloq va termomineral suv quduqlari uchun 5 yil muddatga beriladi. Yerosti suvlari zaxiralari baholanmagan vaziyatlar 2 yil muddat berilishi belgilandi”.

Yerosti suvlarining ko‘p yillik o‘rtacha sathiga nisbatan suv sathi 5 metrdan ortiq pasayib ketgan hududlarda:

- qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarini sug‘orish maqsadlari uchun – suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish sharti bilan suv olish limitlarini belgilash;
- ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun – hududiy rivojlantirish dasturlari va suvdan tejamli foydalanish shartlari bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishish sharti belgilandi.

Ushbu turdagi ruxsatnomalarni olish tartibi haqida aytadigan bo‘lsak, jismoniy va yuridik shaxslar ruxsatnomalar olish uchun “Litsenziya” axborot tizimi yoki davlat xizmatlaridan elektron tarzda foydalanish orqali Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (YIDXP) ro‘yxatdan o‘tadilar. Shuningdek, ular o‘zlarining shaxsini

tasdiqlab, yerosti suvlaridan maxsus foydalanish va iste'moli uchun belgilangan to‘lovlarni amalga oshiradi.

Ruxsatnoma arizasida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi:

Ariza beruvchining F.I.Sh (jismoniy shaxslar uchun) yoki yuridik shaxsning nomi;

Manzil, telefon raqami, rekvizitlar;

Suv olish obyektining joylashgan manzili (viloyat, tuman, QFY, MFY, ko‘cha, uy);

Suv olishdan maqsad: xo‘jalik-ichimlik, ishlab chiqarish-texnik, qishloq xo‘jaligi, ko‘kalamzorlashtirish, davolash-balneologik, energetika (gidroenergetika va issiqlik energetikasi), baliqchilik, qadoqlash, shaxtadan suv chiqarish va shu kabilar;

Jami yillik suv olish hajmi (ming m^3/yil) va suv obyekt(lar)ining hisobga olingan tartib raqami.

Elektron litsenziyalash tizimiga kirib o‘tganda, yerosti suvlari bilan bog‘liq vakolatlarning takrorlanishi holatlarini uchratish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi "Yer qa'ridan foydalanish markazi" quyidagi faoliyatlarga ruxsatnoma beradi:

– yerosti suvlariga quduqlarni burg‘ilash faoliyatiga ruxsatnoma;

– yerosti suvlaridan maxsus foydalanish yoki ularni maxsus iste'mol qilish uchun ruxsatnoma.

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan beriladigan vakolatlar:

– suv obyektlaridagi suv xo‘jaligi inshootlarini (qurilmalarni) ko‘chirish, ularni rekonstruksiya qilish va yangidan qurishga doir xulosa berish;

– yerosti suvlaridan maxsus foydalanish yoki ularni maxsus iste'mol qilish uchun ruxsatnoma berish;

– gidrogeologik xulosa berish.

Shundan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining "yerosti suvlaridan maxsus foydalanish yoki ularni maxsus iste'mol qilish uchun ruxsatnoma berish" vakolatlari takrorlangan. Bu esa suvdan foydalanuvchilar va

iste’molchilar o‘rtasida o‘zaro tushunmovchiliklarga sabab bo‘lmoqda.

“Yer qa’ridan foydalanish markazi” bir ish kuni mobaynida ariza, ruxsatnoma loyihalari va hujjatlarni gidrogeologiya stansiyalariga yuboradi. Bu stansiyalar hujjatlarda keltirilgan ma’lumotlarni o‘rganib chiqadi va qonunchilik hujjatlari bilan tasdiqlangan ro‘yxatga muvofiq, yerosti suvlarining ko‘p yillik o‘rtacha sathiga nisbatan suv sathi 5 metrdan ortiq pasayib ketgan hududlarda:

qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarini sug‘orish maqsadlari uchun – Suv xo‘jaligi vazirligi;

ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun – hududiy rivojlantirish dasturlari va suvdan tejamli foydalanish shartlari bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga kelishish maqsadida yuboriladi.

Gidrogeologiya stansiyalari, Suv xo‘jaligi vazirligi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari to‘rt ish kuni mobaynida yerosti suvlaridan maxsus foydalanish yoki ularni maxsus iste’mol qilish maqsadlarini o‘rganib chiqadi, kelishib beradi va tegishli ma’lumotni elektron shaklda “Yer qa’ridan foydalanish markazi”ga yuboradi. “Yer qa’ridan foydalanish markazi” elektron shaklda ariza javobi va natijasi to‘g‘risida ariza beruvchiga xabar yuboradi.

Ruxsatnoma olgan yerosti suvlaridan foydalanuvchilar yoki ularni iste’mol qiluvchilar ruxsat berishning quyidagi talab va shartlariga rioya qilishi shart:

Birinchi, suv obyektlaridan ruxsatnomada keltirilgan maqsadlarda foydalanishi, ya’ni ichimlik, sanoat, qishloq xo‘jaligi, davolash va boshqa yo‘nalishlarda ruxsatnomada aniq belgilangan tartibda ishlatishi. Doimiy suv nazorati organlari tomonidan davlat nazorati va monitoring natijasida kuzatishlar olib boriladi va noqonuniy holatlar aniqlangan taqdirda ruxsatnoma bekor qilinishi mumkin.

Ikkinchi, belgilangan yerosti suv olish limitlariga rioya qilishi – ruxsatnomada belgilangan suv olish me’yorlariga amal qilishi, me’yor oshgan taqdirda qo‘shimcha to‘lovlarni amalga oshirishi, suv tejovchi texnologiyalardan foydalanib suvdan samarali foydalanish

tajribalarini joriy etishi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerosti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan yerosti suvlaridan maxsus foydalanuvchilarni 2024-yil 1-yanvargacha suv hisoblagichlar o‘rnatish majburiyati belgilanganligi ham ushbu talabning amaldagi isboti hisoblanadi.

Uchinchi, ifloslantiruvchi moddalar mavjud bo‘lgan oqova suvlarning suv obyektlariga chiqarib yuborilishini to‘liq tugatish chora-tadbirlarini ko‘rishi. Bunda alohida xususiyatlarga ega, zararli va kimyoviy moddalar bilan muomalada bo‘luvchi korxona va muassasalar chiquvchi oqova suvlarni tozalash va muhofaza qilish choralarini amalga oshirishi lozim. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonida quyidagi chora-tadbirlar belgilangan:

– avtomobillarni yuvish shoxobchasida hosil bo‘ladigan ishlab chiqarish oqova suvlarini zararli kimyoviy qo‘shimchalar, neft va moy aralashmalaridan tozalash uchun samaradorligi 99,5 foizdan kam bo‘lmagan mahalliy tozalash inshootini o‘rnatish;

– ishlab chiqarish oqova suvlari mahalliy tozalash inshootida (maxsus filtr) tozalangandan keyin avtomobillarni yuvish uchun qayta ishlatilishi maqsadida aylanma suv ta’minoti tizimini joriy etish;

– umumiy ovqatlanish shoxobchalaridagi suv oqava tizimlariga yog‘ tutgichlar o‘rnatish orqali yog‘ ajratib olish va ikkilamchi xomashyo (xo‘jalik sovunlari, hayvon ozuqalari) ishlab chiqarish.

To‘rtinchi, suv obyektlari texnik qurilmalarini texnik jihatdan soz holatda saqlashi, ularni ishlatish sifatini yaxshilashi hamda ulardan foydalanishning belgilangan qoidalariga rioya qilishi zarur. Bu suv obyektlari bilan bog‘liq inshootlarning ishchi holatda saqlanishini, shuningdek, suv ta’minoti, kanalizatsiya, tozalash inshootlari, nasoslar, filtrlar, hovalantirish tizimlari, elektr tizimlari va boshqa mexanik qurilmalarni muntazam texnik jihatdan soz holatda bo‘lishini ta’minlaydi. Bu nafaqat obyektning samarali ishlashini kafolatlaydi, balki atrof-muhit va aholi salomatligini saqlash uchun

ham juda muhimdir. Yerosti suvlarini tejashda ilg‘or texnologiyalar va xorij tajribasini joriy etish muhim. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni ko‘p qavatli uylarni qurish loyihalarida oqova, yomg‘ir va texnik suvlardan sug‘orishda foydalanish tizimlarini majburiy etib belgilash, shuningdek, ikki manbadan iborat (texnik va ichimlik) suv ta’minoti bilan jihozlash choralarini belgiladi. Bu sohaga muhim o‘zgarishlarni olib kelishi tabiiydir.

Beshinchi, suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonalari, sohil bo‘yi mintaqalari va sanitariya muhofazasi zonalarini saqlashning belgilangan rejimiga rioya qilishi shart. Belgilangan hududlarda suv obyektlarini muhofaza qilish muhim ahamiyatga ega. Shu jumladan, daryolarning suvini himoya qilish, sohil bo‘yi mintaqalarida qirg‘oqni mustahkamlovchi o‘rmon va ihota daraxtzorlarni barpo etish, shahar va tumanlardagi ichimlik suv sifatini nazorat qilish uchun laboratoriyalar bilan biriktirish yoki hududiy sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limlari bilan shartnomalarni rasmiylashtirish masalalari ham alohida e’tibor talab qiladi.

Oltinchi, yerosti suvlarining va suv obyektlarining holatiga ta’sir etadigan favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganligi to‘g‘risida gidrogeologiya korxonalari va mahalliy davlat hokimiyati organlarini o‘z vaqtida xabardor qilishi, ularning oqibatlarini bartaraf etish ishlarini amalga oshirishda, shuningdek, suv obyektlarida ta’mirlash va tiklash ishlarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etishi – bunda suvdan foydalanuvchilar va suv iste’mol qiluvchilar bilan bog‘liq suv tashkilotlari bilan o‘zaro integratsiyalashgan tizimini yaratish, favqulodda sharoit holatlarida zudlik bilan mas’ul tashkilotlarga xabar berish mexanizmini yaxshilash masalasi o‘z ifodasini topgan.

Yettinchi, yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlarning vakillarini o‘z suv xo‘jaligi obyektlariga belgilangan tartibda kiritishi hamda ularga zarur axborotni taqdim etishi – yerosti suvlari zonalari doirasida yerosti suvlari resurslaridan oqilona foydalanish va ularni ifloslanishdan muhofaza qilish bo‘yicha xatlovdan

o‘tkazish, doimiy kuzatish va monitoring ishlarini amalga oshirishga mas’ul davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlarga to‘sqinlik qilmaslik va ular uchun mavjud ma’lumotlarni taqdim etish talabi qo‘yilmoqda.

Sakkizinchi, yerosti suvlarini olish va berishda suv miqdori hisobini yuritishi, shuningdek, gidrogeologiya korxonalariga va soliq organlariga hisobotni har chorak yakuni bo‘yicha keyingi oyning 5 sanasiga qadar Yerosti suvlari maxsus foydalanish va iste’mol qilish Ma’muriy Reglamentiga 5-ilovasiga muvofiq shaklda taqdim etishi belgilangan. Ushbu hisobot orqali suvdan maxsus foydalanuvchilar va iste’mol qiluvchilarni rekvizitlar ko‘rsatilib, suv inshooti nomi, suv olish usuli, olingan suvni oylar kesimida miqdori, laboratoriya tekshiruvlaridan o‘tkazilganligi haqida ma’lumot va uning holati haqida axborotlar bitta shaklga solib taqdim etiladi.

Quyidagi grafik orqali ko‘rishimiz mumkinki, 2023-yilning 9 oyi mobaynida Yerosti suvlari bilan bog‘liq statistika ma’lumotlari keltirilgan.



Ushbu sohaga ajratilgan ruxsatnomalarning ko‘pligi o‘zi ham yerosti suvlarining jamiyat rivojida o‘rni va ahamiyatini belgilab beradi. Agar bu masala hozir huquqiy tartibga solinib, munosabatlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, u samarali tarzda boshqarilishi mumkin.

Yerosti suvlariga quduqlarni burg‘ilash uchun ruxsatnoma pasporti talablari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida” 86-sonli qarorining 7-ilovasida keltirilgan.

Yerosti suvlaridan maxsus foydalanish yoki ularni maxsus iste’mol qilish uchun ruxsatnoma berish pasporti shakli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida o‘z aksini topgan.

2.2. Yerosti suvlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishda ekologik talablar

Ekologik muammolarning oldini olishda fuqarolarning ekologik madaniyati va bilim darajasi muhim o‘rin tutadi. Bunda ommaviy axborot vositalarida daraxtlarni noqonuniy kesish oqibatida tabiatga yetkaziladigan zararlar, iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, cho‘llanishning ortib borishi, atmosfera havosining ifloslanishi hamda ekologik muhitga yetkazilgan boshqa salbiy ta’sirlarni ilmiy-tahliliy asosda keng yoritib borish vazifalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-sonli qarorida belgilab berilgan. Ekologik madaniyatni oshirmasdan turib, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarimiz o‘z samarasini berishi va ko‘zlangan darajaga yetishi imkonsizdir.

Yerosti suvlarini muhofaza qilish va undan foydalanishda ekologik talablarning eng asosiy talabi – yerosti suvlaridan oqilona foydalanishdir. “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun va Suv kodeksida ushbu iboraga ko‘p duch kelinadi, biroq *“oqilona”*

tushunchasiga huquqiy izoh berilmagan. Turli izohli lug‘atlarda bu ibora *“aql bilan o‘ylab”, “oqillarcha tushunib”* kabi ma’nolarni anglatadi.

Bizningcha, *“tabiiy resurslardan oqilona foydalanish”* tushunchasini yaratish orqali “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunga va Suv kodeksiga *“yerosti suvlaridan oqilona foydalanish”* tushunchasini kiritish muhimdir. Chunki oqilona foydalanish sifatlari va elementlarini belgilash tabiat bilan bo‘ladigan ijtimoiy munosabatlarni to‘laqonli tartibga solishda va uning muhofazasida muhim o‘rin tutadi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish – fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan rivojlangan ilm-fan tavsiyalari asosida foydalanish hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan faoliyatdir. Ushbu faoliyat huquq normalarida ifodalangan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan muhofaza qilinadi va jismoniy hamda yuridik shaxslar tomonidan barqaror atrof-muhitni saqlash hamda hozirgi va kelajak avlod manfaatlari uchun ekologik xavfsizlik talablariga rioya qilishni nazarda tutadi. Ushbu tushunchani “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 1^1-moddasida, “Asosiy tushunchalar” bo‘limida kiritish maqsadga muvofiqdir.

Yerosti suvlaridan oqilona foydalanish – fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini ta’minlashda yerosti suvlarini muhofaza qilish, ularni rivojlangan ilmiy tavsiyalar asosida oqilona foydalanish, huquq normalarida ifodalash va davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlari tomonidan muhofaza qilinishini nazarda tutadigan faoliyatdir. Bu faoliyat jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llash orqali hozirgi va kelajak avlod manfaatlari uchun yerosti suvlari bilan bog‘liq ekologik xavfsizlik talablariga rioya qilishga qaratilgan. “Yerosti suvlaridan oqilona foydalanish” tushunchasini Suv kodeksining 4-moddasidagi tushunchalar qatoriga kiritish lozim deb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 9-sonli qarorida ruxsatnoma olgan yerosti suvlaridan foydalanuvchilar yoki ular-

ni iste’mol qiluvchilar ruxsat berishning quyidagi talab va shartlariga rioya qilishi kerak:

yerosti suv obyektlaridan ruxsatnomada keltirilgan maqsadlarda foydalanishi;

belgilangan yerosti suv olish limitlariga rioya etishi;

ifloslantiruvchi moddalar mavjud bo‘lgan oqova suvlarni suv obyektlariga chiqarib yuborilishini butunlay tugatish chora-tadbirlarini ko‘rishi;

suv obyektlari texnik qurilmalarini texnik jihatdan soz holatda saqlashi, ularni ishlatish sifatini yaxshilashi hamda ulardan foydalanishning belgilangan qoidalariga rioya etishi;

suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonalari, sohil bo‘yi mintaqalari va sanitariya muhofazasi zonalarini saqlashning belgilangan rejimiga rioya qilishi;

yerosti suvlarining va suv obyektlarining holatiga ta’sir etadigan favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganligi to‘g‘risida gidrogeologiya korxonalari va mahalliy davlat hokimiyati organlarini o‘z vaqtida xabardor qilishi, ularning oqibatlarini bartaraf etish ishlarini amalga oshirishda, shuningdek, suv obyektlarida ta’mirlash va tiklash ishlarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etishi;

yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlarning vakillarini o‘z suv xo‘jaligi obyektlariga belgilangan tartibda kiritishi hamda ularga zarur axborotni taqdim etishi;

yerosti suvlarini olish va berishda suv miqdori hisobini yuritishi, shuningdek, gidrogeologiya korxonalariga va soliq organlariga hisobotni har chorak yakuni bo‘yicha keyingi oyning 5 sanasiga qadar Yerosti suvlari maxsus foydalanish va iste’mol qilish Ma’muriy Reglamentiga 5-ilovasiga muvofiq shaklda taqdim etishi.

Ushbu ekologik talab va shartlarni kengaytirish zarur, chunki bu yerosti suvlarini to‘laqonli muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega. Ruxsatnoma muddati tugashi yoki uni uzaytirish maqsadi bo‘lmagan, shuningdek, foydalanishga yaroqsiz holatlarda ruxsatnoma olgan yuridik yoki jismoniy shaxs o‘z mablag‘lari hisobidan ishlatilmayotgan yerosti quduqlarni ifloslantirmasdan, texnik va geologik xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda yopib

tashlash (tamponaj) majburiyatini bajarishi lozim. Ushbu masalani hal qilishga doir topshiriqlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 16-sonli Farmonida belgilangan. Unga muvofiq, **yerosti suvlarining holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan foydalanilmayotgan, egasiz yoki noqonuniy qazilgan yerosti suv quduqlarini yopish** bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

respublikada foydalanilmayotgan, egasiz yoki noqonuniy qazilgan yerosti suv quduqlarini xatlovdan o‘tkazish;

xatlov natijalariga ko‘ra foydalanilmayotgan, egasiz yoki noqonuniy qazilgan quduqlarni yopish (tamponaj) bo‘yicha dastur ishlab chiqish;

tamponaj ishlarini boshlash va har chorakda yopilgan quduqlar bo‘yicha ma’lumotlarni Vazirlar Mahkamasi va Ekologiya vazirligiga taqdim etish.

Bu chora-tadbirlar yerosti suvlarini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uni kelgusi avlodga yetkazish barchamizning burchimizdir. “Suv – hayot manbayi” degan ibora bejiz aytilmagan: suvsiz hayot yo‘q. Suvni insoniyat ko‘z qorachig‘idek asrash, sayyoramizdagi toza ichimlik suvi zaxirasini muhofaza qilish, undan oqilona foydalanish, sanoat va ishlab chiqarish jarayonlarini tabiatga zarar yetkazmaydigan “ekologik toza” innovatsion uslublar bilan yo‘lga qo‘yish va aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish kabi masalalar dolzarb ahamiyatga ega. Shu maqsadda har yili **22-mart – Butunjahon suv zaxirasi kuni** sifatida dunyoning deyarli barcha davlatlarida nishonlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-sonli qarorida har yili Butunjahon suv zaxirasi kunini respublikamizda nishonlash belgilangan. Ushbu kunda mamlakatimizda suvni asrab-avaylash, undan tejab-tergab foydalanish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan mas’ul vazirlik va idoralar ekspertlari ishtirokida anjuman va tadbirlar, shuningdek, intervyular tashkil

etish; suvdan foydalanish madaniyati, suvni tejash va undan oqilona foydalanish bo‘yicha ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etish, infografika va videoroliklar yaratishga e’tibor qaratish; ta’lim muassasalarida mutaxassislar ishtirokida targ‘ibot-tushuntirish ishlarini tashkil etish vazifalari qo‘yilgan.

“Yer qa’ri to‘g‘risida”[70]gi Qonunning 36-moddasida yer qa’ridan foydalanish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir umumiy talablar belgilangan. Yer qa’ridan foydalanish sohasidagi barcha faoliyat tegishli darajadagi tarmoq amaliyotiga muvofiq amalga oshirilishi va quyidagilarni ta’minlashi kerak:

1. Foydali qazilmalarni texnik va iqtisodiy jihatdan barqaror tarzda qazish va ajratib olish, shuningdek, yo‘qotishlarni kamaytirish maqsadida tegishli usullar va jarayonlardan foydalanish hisobidan yer qa’ri resurslarini (yerosti suvlarini) saqlash.

Yer qa’ri resurslarini, shu jumladan yerosti suvlarini, muhofaza qilish va ularni tejab-tergab ishlatish – foydali qazilmalarni texnik va iqtisodiy jihatdan asosli, barqaror tarzda qazib olish va ajratib olish jarayonlarida ularning tabiiy zaxiralarini iloji boricha to‘liq va oqilona ishlatishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar majmuasini anglatadi. Bu jarayonda zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or qazib olish va qayta ishlash uslublari, ilmiy asoslangan yondashuvlar qo‘llanadi.

Bunday yondashuvlar orqali foydali qazilmalarning yo‘qotilishini minimal darajaga tushirish, qazib olingan rudalar va jinslardan maksimal darajada foyda olish, chiqindilar miqdorini kamaytirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, kon zaxiralarining ishlatilish muddatini uzaytirish imkoniyatlari yaratiladi.

Shuningdek, yer qa’ridan foydalanishda kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu faqat asosiy foydali qazilmani emas, balki unga yondosh holda mavjud bo‘lgan boshqa foydali komponentlarni ham ajratib olishni nazarda tutadi. Bu esa zaxiralardan to‘liq foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

2. Mehnatni muhofaza etish va avariyalarning, baxtsiz hodisalarning oldini olishga rioya etishga imkon beradigan, shu-

[70] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.11.2024-y., 03/24/987/0873-son.

ningdek, xodimlar, obyektlar hamda mavjud infratuzilma, shu jumladan mahalliy aholi va jamoatchilik uchun tavakkalchilikni amaliy jihatdan maqsadga muvofiq past darajagacha kamaytiradigan uslublar va jarayonlardan foydalanishni nazarda tutadigan texnika xavfsizligi talablariga rioya etish.

Texnika xavfsizligiga rioya etish – ishlab chiqarish jarayonlarida mehnatni muhofaza qilish, ishchilarning hayoti va salomatligini himoyalash, avariyalar, portlashlar, yong‘inlar va boshqa favqulodda holatlarning oldini olishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tizimini anglatadi. Bu tizimda ishlab chiqarish texnologiyalari, mexanizmlar, uskunalar va jarayonlar xodimlar, sanoat obyektlari hamda ularning atrofidagi infratuzilma va aholi uchun xavfsizlik talablariga javob beradigan tarzda tashkil etiladi.

Texnika xavfsizligi talablariga rioya qilish quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

mehnatni muhofaza qilish: ishchilar uchun xavfsiz va sog‘lom mehnat sharoitlarini yaratish, ishlab chiqarish jarayonlaridagi salbiy omillarni bartaraf etish;

baxtsiz hodisalar va avariyalarning oldini olish: texnologik tartibga qat’iy rioya qilish, nazorat tizimlarini joriy etish va xavfli holatlarni erta aniqlash orqali favqulodda holatlar ehtimolini kamaytirish;

tavakkalchilik darajasini kamaytirish: mavjud xavf-xatarlarni baholash asosida ularni minimal darajaga tushirish, ayniqsa ishlab chiqarish obyektlari yaqinida yashovchi mahalliy aholi va ijtimoiy infratuzilmalarga ta’sirini oldindan baholab, mos choralarni ko‘rish;

xodimlar va jamoatchilikni himoya qilish: xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya etish orqali inson hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soluvchi holatlarning oldini olish, atrof-muhitga salbiy ta’sirni minimallashtirish.

Bunda ilg‘or texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, xavfsizlik bo‘yicha o‘qitish va malaka oshirish dasturlari, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik choralarini ishlab chiqish va amalda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, texnika xavfsizligiga rioya etish nafaqat ishlab chiqaruvchilar, balki jamiyat oldidagi muhim ijtimoiy va ekologik

mas’uliyat bo‘lib, barqaror va xavfsiz sanoat rivoji uchun zaruriy omillardandir.

3. Yer qa’ridan foydalanish sohasidagi faoliyatning atrof-muhitga eng kam salbiy ta’sir ko‘rsatishiga olib keladigan uslublar va jarayonlar qabul qilinishini talab etadigan atrof-muhitni muhofaza qilish.

Atrof-muhitni muhofaza qilish yer qa’ridan foydalanish sohasidagi faoliyatda ekologik xavfsizlikni ta’minlash va tabiiy resurslardan foydalanganda atrof-muhitga minimal salbiy ta’sir ko‘rsatish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, uslublar va jarayonlarni anglatadi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi – yer qa’ridan foydalanish jarayonlarida ekologik muvozanatni saqlab qolish, tabiat resurslarining tiklanishini ta’minlash va barqaror rivojlanish prinsiplari asosida amalga oshirilgan faoliyat orqali tabiatni ifloslanishdan saqlash. Bunda quyidagi chora-tadbirlar muhimdir:

birinchidan, yer qa’ri resurslarini qazib olish va qayta ishlashda ekologik jihatdan xavfsiz, chiqindilarni kamaytirishga, energiya sarfini optimallashtirishga va tabiiy zaxiralarni samarali ishlatishga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ishlatish zarur. Bu, masalan, ilg‘or filtratsiya tizimlari, ekologik toza qazib olish uslublari va materiallarni qayta ishlash texnologiyalarini o‘z ichiga oladi;

ikkinchidan, qazib olish jarayonida chiqadigan chiqindilarni kamaytirish, ularni to‘g‘ri saqlash va qayta ishlash, shuningdek, zararli moddalarni atrof-muhitga chiqishining oldini olish uchun maxsus texnik va texnologik chora-tadbirlar qo‘llanishi kerak. Misol uchun, noxush chiqindilarning (masalan, kimyoviy moddalarning, og‘ir metallar yoki zaharli gazlar) erkin chiqishining oldini olish va ularni maxsus saqlash joylarida xavfsiz tarzda utilizatsiya qilish;

uchinchidan, qazib olish jarayonida tuproq qatlamining shikastlanishining oldini olish, yerning eroziyaga uchrashining oldini olish uchun atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini ko‘rish zarur. Suv resurslarini muhofaza qilish ham muhim, chunki qazib olish va boshqa sanoat faoliyati natijasida suv manbalariga zarar yetishi mumkin. Shuning uchun, suvni toza saqlash va ifloslanishning oldini olish uchun maxsus chora-tadbirlar qo‘llanadi;

to‘rtinchidan, qazish faoliyati, ayniqsa ochiq kon qazish kabi jarayonlar, atrof-muhitga zarar yetkazishi va ekosistemalarni buzishi mumkin. Biodiverstitetni saqlash uchun yer qa’ridan foydalanishda ekosistemaga ta’sirni minimallashtirish va tabiiy muhitni tiklashga yo‘naltirilgan amaliyotlar zarur. Bu, masalan, kon qazishdan keyingi rekultivatsiya va tabiiy yashash joylarini tiklashni o‘z ichiga oladi;

beshinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish uchun yer qa’ridan foydalanishda barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilish, ya’ni tabiiy resurslarni kelajak avlodlar uchun saqlash, mavjud resurslardan samarali va ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur. Barqaror rivojlanish uchun iqtisodiy va ekologik manfaatlarni uyg‘unlashtirish zarur;

oltinchidan, yer qa’ri suvlaridan foydalanish jarayonida mahalliy aholi, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha huquqiy talablar va jamoatchilik fikrini hisobga olish kerak. Bu, kon qazish jarayonlari, ularning atrof-muhitga ta’siri va xavf-xatarlar haqida mahalliy aholiga ma’lumot berish, aholini xavfsizlik chora-tadbirlariga tayyorlash va ularga zarur huquqiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Yerosti suvlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishda bir qator ekologik talablar mavjud.

1. Yerosti suvlaridan oqilona foydalanish. Mazkur talab irrigatsiya tizimi va sug‘orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish, suv ta’minoti darajasi past bo‘lgan sug‘oriladigan yer maydonlarini qisqartirish, irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish hamda beton qoplamali kanallar ulushini ko‘paytirishni nazarda tutadi. Bu yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida[71] irrigatsiya tizimi va sug‘orish tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ularni betonlashtirish, filtratsiyaga qarshi choralarni amalga oshirish, tarmoqlarning ma’lum qismini bosqichma-bosqich quvurli yoki suvni boshqarishga qulay bo‘lgan boshqa tizimlarga o‘tkazish vazifalari belgilangan. Shuningdek, farmonda gidrouzel va boshqa yirik gidrotex-

[71] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.07.2022-y., 06/22/167/0619-son; 06.02.2024-y., 06/24/28/0099-son, 08.05.2024-y., 06/24/74/0332-son; 28.12.2024-y., 06/24/227/1089-son.

nika inshootlarini rekonstruksiya qilish va ta’mirlash, yirik gidrouzellar hamda irrigatsiya tizimlarini raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan boshqaruvga o‘tkazish, lotok tarmoqlarini qayta tiklash, lotoklarni mahalliy iqlim sharoitiga mos kompozit va polimer materiallar asosida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish kabi chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Bundan tashqari, suv iste’molchilarning bosh suv olish nuqtalarini suvni boshqarish hamda hisobga olish vositalari bilan bosqichma-bosqich jihozlash, suv xo‘jaligi nasos stansiyalarining energiya samaradorligini oshirish, foydalanish xarajatlarini kamaytirish va nasoslarning foydali ish koeffitsiyentini oshirish vazifalari ham ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

2. Suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini joriy qilishni yanada kengaytirish va davlat tomonidan rag‘batlantirib borish, ushbu sohaga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb qilish yo‘nalishini amalga oshirish lozim. Bunga quyidagilar kiradi:

a) suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy etgan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish;

b) suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini nasos stansiyalar va sug‘orish quduqlariga bog‘langan ekin maydonlarida joriy qilishni kengaytirish hamda ularning samaradorligini oshirish;

v) suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini tuproq-iqlim sharoiti va ekin turiga qarab takomillashtirish, samaradorligini oshirish va yangilarini yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot hamda loyiha-konstruktorlik ishlarini kengaytirish, yangi ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish ishlarini rag‘batlantirish;

g) suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini loyihalash, joriy etish va qo‘llash bo‘yicha uslubiy tavsiyalarni, shuningdek, ulardan foydalanish samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish;

d) suvni tejaydigan sug‘orish usullari va texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish yo‘nalishida ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganishni tizimli tashkil etish;

e) qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarini lazerli qurilmaga ega avtomatlashtirilgan tekislagich agregatlar yordamida oldindan tekislab zamonaviy egiluvchan quvurlar orqali sug‘orish texnologiyalarini kengaytirish;

j) suv iste’moli monitoringini olib borishni takomillashtirish va masofadan zondlash tizimlarini joriy qilish;

z) oqindi va kollektor-drenaj suvlaridan foydalanishni ilmiy asosda tashkil qilish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suv isrofgarchiligiga hamda undan samarasiz foydalanishga qarshi choralarni kuchaytirish[72].

3. Yerosti suvlari bilan bog‘liq munosabatlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Bunda gidrologik postlarni raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan uskunalar bilan jihozlash, Suv xo‘jaligi inshootlarida real vaqt rejimida suvni nazorat qilish va uning hisobini yuritish uchun **“Smart Water” (“Aqlli suv”)** tizimini joriy etish, Suv xo‘jaligi obyektlarini boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, meliorativ kuzatuv quduqlarini avtomatlashtirilgan monitoring tizimiga o‘tkazish, nasos stansiyalarida elektr energiyasi iste’moli va suv miqdorini “onlayn” rejimda monitoring qilish tizimini joriy etish muhim hisoblanadi. Shu maqsadlar yo‘lida **10937** ta suv xo‘jaligi inshootlarida real vaqt rejimida suvni nazorat qilish va uning hisobini yuritish uchun “Smart-Water” (“Aqlli suv”) tizimini joriy etish va **2100** ta meliorativ kuzatuv quduqlarini avtomatlashtirilgan monitoring tizimiga o‘tkazish bo‘yicha topshiriqlar belgilandi[73].

Yer egalari va yerdan foydalanuvchilar ularga berilgan yer uchastkalari doirasida yer qa’ridan keng tarqalgan foydali qazilmalarni va yerosti suvlarini xo‘jalik hamda maishiy ehtiyojlar uchun qazish maqsadida ruxsatnoma va kon ajratish dalolatnomasi olmasdan, quyidagi shartlarga rioya qilish sharti bilan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi:

---

[72] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.07.2022-y., 06/22/167/0619-son; 06.02.2024-y., 06/24/28/0099-son, 08.05.2024-y., 06/24/74/0332-son; 28.12.2024-y., 06/24/227/1089-son.

[73] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida suv xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 101-sonli Farmoni.

– keng tarqalgan foydali qazilmalarni kavlab olish ochiq usulda, bir o‘yiqning balandligi ikki metrdan ortiq bo‘lmagan holda va Inspeksiya bilan kelishilgan tarzda amalga oshirilishi kerak;

– ishlar texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilingan holda olib borilishi kerak;

– unumdor qatlamni olib tashlash va saqlash, shuningdek, buzilgan yerlarni keyinchalik qayta tiklash masalasi hal etilishi kerak;

– kon ishlari boshlanishidan 10 kun oldin Inspeksiya va mahalliy hokimiyat organlari xabardor qilinishi kerak;

– qazib olingan keng tarqalgan foydali qazilmalar va yerosti suvlaridan yer uchastkasi egasi (foydalanuvchi)ning xo‘jalik yoki maishiy ehtiyojlari uchungina foydalanilishi kerak.

Foyda olish maqsadida qazib olingan foydali qazilmalarni boshqa korxonalar, tashkilotlar va fuqarolarga sotish yoki berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yer qa’ridan foydalanuvchilar quyidagilarga majburdir:

– yer qa’ridan belgilangan maqsadga muvofiq foydalanish;

– ishlarni yer qa’ridan foydalanish loyihasiga muvofiq amalga oshirish;

– yer qa’rini to‘liq geologik o‘rganish, undan oqilona va kompleks foydalanish hamda muhofaza qilish;

– konlarning boy uchastkalarini tanlab qazilishiga, mineral xomashyoni qazib olish va qayta ishlashda normadan ortiq yo‘qotishlarga yo‘l qo‘ymaslik;

– foydali qazilmalar zaxiralarining holati va harakatini, ularning yo‘qotilishi va nobudgarchiligi hisobga olinishi, shuningdek, o‘z vaqtida qayta hisoblab chiqilishi, qayta tasdiqlanishi va hisobdan chiqarilishini ta’minlash;

– bir vaqtning o‘zida qazib olinadigan, ammo vaqtincha foydalanilmaydigan foydali qazilmalarni saqlash va hisobga olish;

– suv olish joylari uchastkalarida va ularga tutash hududlardagi yerosti suvlarining rejimi bo‘yicha kuzatuvlar olib borish;

– yerosti suvlari muhofazasini nazorat qiluvchi organlarni yerosti suvlari holatining o‘zgarishi to‘g‘risida zudlik bilan xabardor qilish;

– yerosti boyliklaridan foydalanish bilan bog‘liq ishlarning xavfsiz amalga oshirilishi hamda avariyalarni bartaraf etish rejalarining ishlab chiqilishini ta’minlash;

– atrof tabiiy muhitni, bino va inshootlarni yer qa'ridan foydalanish bilan bog'liq ishlarning zararli ta'siridan muhofaza qilish;

– yer qa'ridan foydalanish jarayonida geologik, marksheyderlik va boshqa hujjatlarni yuritish va ularning saqlanishini ta'minlash;

– yerosti boyliklari to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, foydali qazilmalar zaxiralarining holati va harakati hamda ularning tarkibidagi komponentlar to'g'risidagi ma'lumotlarning Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi huzuridagi Davlat geologiya jamg'armasiga taqdim etilishini ta'minlash;

– yer qa'ridan foydalanishda buzilgan yer uchastkalarini keyinchalik ulardan foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish;

– yer qa'ridan foydalanganlik uchun to'lovlarning o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash.

Suv obyektlarini muhofaza qilish maqsadida quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

– suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonalari hamda sanitariya-muhofaza zonalari hududlarida xavfli obyektlarni joylashtirish;

– xo'jalik-ichimlik, kommunal-maishiy va baliqchilik xo'jaligiga mo'ljallangan maqsadlarda foydalaniladigan suv obyektlariga, joy relyefiga, shuningdek, yerosti suvli gorizontlariga hamda sug'orish maydonlariga tozalanmagan yoki zararsizlantirilmagan oqava suvlarni tashlash;

– shahar va posyolka kanalizatsiya tizimlariga mahalliy tozalash inshootlarida oldindan tozalamasdan, kanalizatsiya tizimiga qabul qilish talablariga javob bermaydigan ishlab chiqarish oqava suvlarini tashlash;

– kanalizatsiya tizimlariga tarkibida hali aniqlash usullari belgilanmagan moddalar bo'lgan ishlab chiqarish oqava suvlarini tashlash;

– oqava suv tozalash uchun zarur uskuna va inshootlari hamda ularni nazorat qilish vositalari bilan jihozlanmagan xo'jalik va boshqa faoliyatning statsionar obyektlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish;

– suv obyektlarining yuzasida harakatlanadigan yoki harakatlanmaydigan kemalar hamda boshqa obyektlardan ularda hosil bo'ladigan oqava suv va chiqindilarni to'plash moslamalarisiz foydalanish;

– suv obyektlariga ishlab chiqarish, maishiy va boshqa chiqindilarni tashlash, shu jumladan suv obyektlari va ularning sohillarini chiqindilar bilan ifloslantirish;

– ruxsat etilmagan joylarda oqava suv choʻkindilarini saqlash yoki joylashtirish;

– oqava suvlarning suv obyektlariga va joy relyefiga koʻplab chiqarilishi;

– ichimlik, xoʻjalik-maishiy va davolash maqsadlarida foydalaniladigan yoki foydalanish uchun istiqbolli boʻlgan yerosti suvlarini toʻyintirish va olish hududlarida kimyoviy, bakteriologik yoki radiatsiyaviy ifloslanish manbai boʻlgan chiqindilarni koʻmish, axlatxona, qabriston, chorva mollari qabristonlari va boshqa obyektlarni joylashtirish;

– ichimlik suvi sifatiga ega boʻlgan yerosti suvlaridan boshqa ehtiyojlar uchun asossiz foydalanish;

– burgʻulash jarayonida hosil boʻladigan oqava suv va shlamlarni tashlash uchun loydan qurilgan himoyalanmagan omborlar, toʻplagich hovuzlar, karstli voronkalar va boshqa chuqurliklardan foydalanish;

– foydali qazilmalarni qazib olish, suv sathini pasaytirish ishlari, meliorativ yerlarda drenaj tizimlarini qurish va ulardan foydalanish paytida yerosti suvlarini ifloslantirish;

– dalalarning drenaj suvlarini va aholi punktlari hududlarida jala yomgʻir oqava suvlarini jarlik va soyliklarga chiqarib tashlash;

– markazlashtirilmagan suv taʼminotida foydalaniladigan yerosti suvlari toʻplanadigan joylarda zaharli kimyoviy vosita va oʻgʻitlarni qoʻllash va saqlash;

– qishloq xoʻjaligi yerlarini ushbu yerlar va yerosti suvlari holatiga taʼsir koʻrsatadigan yoki salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan oqava suvlar bilan sugʻorish.

2.3. Yerosti suvlari ustidan davlat nazorati

Oxirgi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining suvga doir munosabatlari, suvdan foydalanish va uni muhofaza

qilishni tartibga solish sohasidagi vakolatlari takomillashtirilib, bu o‘zgarishlar qonunlarda aks ettirilmoqda.

Bu bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari kuchaytirilmoqda. Bunda Hukumat zimmasiga suv xo‘jaligini rivojlantirish, suvni oqilona boshqarish, suvdan samarali foydalanish, suv tanqisligining salbiy ta’sirini yumshatish va suvga doir boshqa dasturlarni tasdiqlash, shuningdek, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tartibini tasdiqlash masalalari yuklatildi.

Bugungi kunda suv obyektlaridan sanoat maqsadlarida va energetika ehtiyojlari uchun foydalanuvchilarga atom energetikasi ham kiritilib, ularning majburiyatlariga suvlarning radioaktiv ifloslanishining belgilangan me’yorlardan oshishiga yo‘l qo‘ymaslik vazifasi qo‘yildi. Chunki ayrim sanoat korxonalari suv resurslaridan foydalanishda o‘z manfaatlari yo‘lida tabiatga ortiqcha zarar yetkazayotganlik holatlari ko‘p kuzatilayotgani barchamizga ma’lum.

Har qaysi soha bo‘lmasin, nazorat qilish jarayoni juda muhim. Bu biror-bir jarayonni yoki faoliyatni boshqarish, tekshirish va kuzatib borish jarayonidir. Nazoratni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali tizimlar yoki jarayonlarning reja bo‘yicha ishlashini ta’minlash mumkin. Agar nazorat o‘rnatilsa, muammolar va kamchiliklar vaqtida aniqlanib, ularga tezda chora ko‘rish mumkin. Nazorat qilish orqali soha faoliyatining qonun va me’yoriy hujjatlarga mosligi hamda uni amalga oshirish jarayonini tekshirish mumkin.

Yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati yerosti suvlarining davlat monitoringi bilan bir qatorda davlat boshqaruvining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, ekologik nazoratning tarkibiy qismi hisoblanadi. Yuridik javobgarlik choralari, odatda, aynan davlat nazorati natijasida qo‘llanadi. Davlat nazorati, monitoringi va javobgarlik choralarining samaradorlik darajasi yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasiga muvofiq, “Ekologik nazorat atrof-muhitni

muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo‘yishga, tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik chora-tadbirlari tizimidir”[74].

“Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 29-moddasida ekologik nazoratning asosiy vazifalari quyidagilar etib belgilangan:

atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo‘yish;

atrof-muhit holatini kuzatib borish, atrof-muhitning ifloslanishiga, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanishga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid solishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni aniqlash;

mo‘ljallanayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik faoliyatining va boshqa faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash;

yuridik va jismoniy shaxslarning atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini, ular tomonidan majburiyatlarning bajarilishini ta’minlash;

atrof-muhitdagi o‘zgarishlar, uning prognoz qilinayotgan holati, tabiiy resurslardan foydalanilishi va ko‘rilayotgan tegishli chora-tadbirlar to‘g‘risida davlat tashkilotlarini va boshqa tashkilotlarni hamda fuqarolarni xabardor qilish;

tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish hamda davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarning amalga oshirilishida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning ishtirokini ta’minlash etib belgilangan. Nazoratni bir shakli sifatida davlat nazorati juda dolzarb vazifa bo‘lib, uni amalga oshirish davlat organlari tomonidan ta’minlanadi.

“Yer qa’ri to‘g‘risida”gi Qonunning 12-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining

[74] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.05.2022-y., 03/22/771/0448-son; 18.01.2024-y., 03/24/898/0046-son; 07.02.2024-y., 03/24/904/0102-son.

yer qa’ridan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari qatorida “yer qa’rini geologik jihatdan o‘rganish, undan foydalanish hamda uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratining yer qa’rini geologik jihatdan o‘rganish normativlari va talablariga rioya etilishiga, mineral xomashyoni qazib olish va qayta ishlashning oqilona usullarini qo‘llashga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi bilan uglevodorodlar yuzasidan kelishuvga ko‘ra foydali qazilmalar zaxiralari hisobga olinishini ta’minlashga taalluqli qismini tashkil etadi”[75] deb belgilangan. Bu bilan yer qa’ri bilan bog‘liq munosabatlarni tartib solish ustidan nazorat Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligiga yuklatilgan. Ushbu vakolat doirasida qonunning 15-moddasi O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi:

yer qa’rini geologik jihatdan o‘rganish, undan foydalanish va uni muhofaza qilishda sanoat xavfsizligi ta’minlanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

yer qa’ridan foydalanuvchilar uchastkalarining inspeksiyasini o‘tkazadi;

jarima sanksiyalarini solish, yer qa’ridan foydalanish sohasidagi ishlarni cheklash va (yoki) to‘xtatib turish yuzasidan qonunchilikka muvofiq choralar ko‘radi;

sanoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan yer qa’ri to‘g‘risidagi qonunchilik va yer qa’ridan foydalanishni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

yer qa’rini geologik jihatdan o‘rganish, undan foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bog‘liq loyihalarning sanoat xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunchilik hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishiga oid qismini muvofiqlashtiradi;

sanoat xavfsizligi talablarini buzgan holda amalga oshirilayotgan yer qa’ridan foydalanishga doir ishlarni cheklash va (yoki) to‘xtatib turish yuzasidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq choralar ko‘radi. Yer qa’ri bilan bog‘liq barcha faoliyat turlari ustidan davlat nazorati

[75] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.11.2024-y., 03/24/987/0873-son.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan o‘tkaziladi.

Inspeksiyaning asosiy faoliyat yo‘nalishlar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 187-sonli qarorining 1-ilovasida Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlarida quyidagilar keltirilgan:

1. Yer qa’rini geologik o‘rganishda undan foydalanish va muhofaza qilish, foydali qazilmalarni (shu jumladan, yerosti suvlarini) qazib olish, mineral xomashyoni qayta ishlashda yer qa’ridan foydalanuvchilar tomonidan qonunchilik va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga hamda yer qa’ridan foydalanish shartlariga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

2. Tog‘-kon tarmog‘ida, geologiya hamda yer qa’ridan foydalanish, portlatish ishlari va portlovchi materiallarning aylanmasi sohasida sanoat xavfsizligini ta’minlashga oid qonunchilik va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish[76].

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 9-sonli qarori 27-bandi bilan “Ruxsatnoma olmasdan yerosti suvlaridan maxsus foydalanish yoki ularni maxsus iste’mol qilish bo‘yicha Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi davlat nazoratini yuritadi va yerosti suvlaridan oqilona foydalanishni va ularning muhofaza etilishini ta’minlash maqsadida o‘rnatilgan tartibda ma’muriy javobgarlik choralarini ko‘radi” deb belgilangan.

[76] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.12.2024-y., 06/24/224/1068-son; 22.04.2025-y., 06/25/70/0375-son.

Bundan ko‘rinadiki, yerosti suvlari bilan bog‘liq davlat nazoratini amalga oshiruvchi asosiy vakolatli davlat organi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasidir. Shu sohada inspeksiya faoliyatini qayta ko‘rib chiqish, uning faoliyatini takomillashtirish vazifasi qo‘yildi. Bu bo‘yicha Inspeksiya yer qa’ridan foydalanish va muhofaza qilish sohasida davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organi etib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer qa’ridan foydalanish, sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi hamda atom energiyasidan foydalanish sohalarida davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli Farmonida keltirilgan[77]. Shu farmon asosida inspeksiyani shtat jadvali tasdiqlandi. **Yerosti suv resurslarini muhofaza qilish sohasidagi nazorat** boshqarmasiga 1(bir) nafar shtat ajratilgan. Bu esa yerosti suvlarining respublikadagi ahamiyati, bu sohadagi huquqbuzarliklarni to‘laqonli aniqlash va bartaraf etishda nuqsonlarga olib kelishi tabiiy. **Bizningcha, yerosti suvlarining muhofazasi dolzarbligi va ahamiyati jihatdan ko‘proq ish o‘rni yaratilish, qoidabuzarliklarni aniqlash va chek qo‘yishda muhim hisoblanadi.**

Shuningdek, Tog‘-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini samarali tashkil etishda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Xususan, gidrogeologiya stansiyalari hamda Suv xo‘jaligi vazirligining yerosti suvlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tashkiliy tuzilmalari (masalan, melioratsiya ekspeditsiyalari) bilan birgalikda yerosti suvlarini muhofaza qilishga doir qo‘shma kelishuvlar imzolanishi, shuningdek, ushbu jarayonni yagona integratsiyalashgan tizim orqali monitoring qilish mexanizmini yaratish talab etiladi.

Yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlarning o‘zaro hamkorligining aniq tartibi mavjud bo‘lmaganda, nazorat samaradorligini baholash va mansabdor shaxslarning javobgarlik darajasini tahlil qilish qiyinlashadi. Yerosti suvlari ifloslanayotgan

[77] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.05.2024-y., 06/24/79/0363-son; 27.12.2024-y., 06/24/224/1068-son.

hududlar sonining yil sayin ortib borayotgani hamda huquqiy javobgarlik choralarini qo‘llash mexanizmlarining sustligi davlat nazorati samaradorligining pastligidan dalolat beradi.

Shu bois Tog‘-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasining alohida nizomini ishlab chiqish zarur. Bu masala O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 187-sonli qarorida belgilab berilgan. **Unga ko‘ra, inspeksiya faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, vazifalari, funksiyalari hamda huquq va majburiyatlari, mansabdor shaxslarining huquq va majburiyatlari, inspeksiyaning nazorat obyekti doirasini belgilash zarur.** Masalan, Rossiya Federatsiyasi tajribasini qaraydigan bo‘lsak, 100 va undan ortiq xonadonlarni yerosti suvlari bilan ta’minlaydigan yerosti suvlari inshootlari davlat nazoratidan o‘tkaziladi[78]. Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini tahlil qiladigan bo‘lsak, inspeksiya nazoratining asosiy yo‘nalishi maxsus foydalanish va maxsus iste’mol faoliyati bilan bog‘liq yerosti suvlaridan foydalanish jarayonini nazorat qilishdan iborat ekanligi haqida xulosa qilish mumkin. Biroq yerosti suvlarining xususiyati va strategik ahamiyatini inobatga olgan holda, umumiy foydalanuvchilar tomonidan amalga oshiriladigan foydalanish holatlarini ham nazorat doirasiga qamrab olish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer qa’ridan foydalanish, sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi hamda atom energiyasidan foydalanish sohalarida davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori qabul qilindi. Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasining mansabdor shaxs-

[78] Groundwater manba: file:///C:/Users/HP/Downloads/Strategic_Issues_Groundwater_Extrac.pdf

lari davlat nazoratini amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega bo‘lishi belgilandi:

Inspeksiyaning nazorati ostidagi obyektlarga to‘sqinliksiz kirish;

tog‘-kon tarmog‘i, geologiya hamda yer qa’ridan foydalanish sohasida, shu jumladan, neft-gaz tarmog‘ida geologiya-qidiruv ishlarini, uglevodorod xomashyosining qazib olinishini, konchilikni, qattiq foydali qazilmalarning qayta ishlanishini hamda portlatish ishlarini amalga oshirishda sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini, shuningdek, yerosti suvlaridan oqilona foydalanilishini nazorat qilish;

yer qa’ridan oqilona foydalanish sohasida sanoat xavfsizligi talablariga rioya etmagan holda amalga oshirilayotgan ishlarni hamda baxtsiz hodisa va avariya sodir bo‘lishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan ishlarni to‘xtatib turish;

o‘z vakolatlari doirasida qonunchilik va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablarini buzganlik uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslari va jismoniy shaxslarni ma’muriy javobgarlikka tortish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish. Bu vakolatlar albatta Inspeksiyani tashkil topib, faoliyatida davomida tub o‘zgarishlarga olib kelishi mumkinligidan darak beradi.

Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ruxsatnoma olgan yerosti suvlaridan foydalanuvchilar yoki ularni iste’mol qiluvchilar belgilangan talab va shartlari qatorida ***yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlarning vakillarini o‘z suv xo‘jaligi obyektlariga belgilangan tartibda kiritishi hamda ularga zarur axborotni taqdim etishi*** shartligi belgilab qo‘yilgan. Ushbu talabni bajarmaslik, yerosti suvlaridan maxsus foydalanish va iste’mol qilish uchun berilgan ruxsatnomaning bekor bo‘lishi asos bo‘ladi. Bu kabi huquqiy islohotlar sohada tushunmovchiliklar va uning muhofazasida muhim o‘rin tutadi.

Yerosti suvlari bilan bog‘liq davlat nazoratini amalga oshirishda sohada zamonaviy va raqamli texnologiyalarni qo‘llash, nazoratning samarasini yaxshilashga yordam beradi. O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining “Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5055-sonli qarori bilan ***sug‘oriladigan yerlarda yerosti suv sathi monitoringini raqamli texnologiyalar asosida yuritish hamda yerlarning meliorativ holatini baholash*** bo‘yicha tashkiliy-chora tadbirlar ishlab chiqishga doir vazifalar belgilanib, zamonaviy texnologiyalar qo‘llashni boshlab berdi.

Yerosti suvlaridan foydalanish ustidan davlat nazoratini kuchaytirish maqsadida suv olish inshootlariga suv hisoblagich qurilmalarini o‘rnatish vazifasi qo‘yildi. Bu esa sohadagi davlat nazorati va monitoringini kuchaytirish, sohaga alohida e’tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, yerosti suvlaridan maqsadsiz foydalanish va ularning behuda sarflanishiga yo‘l qo‘ymaslik, olinayotgan yerosti suv miqdorini tizimli ravishda qayd etib borish, belgilangan suv olish limitidan ortiqcha suv sarflanishining oldini olish, olingan yerosti suvlari to‘g‘risidagi hisobotlarning to‘g‘riligini va soliq to‘lovlarining haqiqiyligini ta’minlash, shuningdek, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining hududiy gidrogeologiya stansiyalari tomonidan olib borilayotgan yerosti suvlari davlat hisobi va kadastri ma’lumotlarining ishonchliligi hamda tezkorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlariga quduqlarni burg‘ilash va ulardan foydalanish munosabatlarini tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 685-son qaroriga ko‘ra, yer qa’ri suvlaridan maxsus foydalanganlik va iste’mol qilganlik uchun suv hisoblagichlarini o‘rnatishda ishtirok etadigan mas’ul davlat organlari – **tuman soliq inspeksiyasi va hududiy gidrogeologiya stansiyalari**. Talab etilgan turdagi suv hisoblash vositalari o‘rnatilganidan so‘ng bir hafta mobaynida uning foydalanuvchisi tomonidan hududiy gidrogeologiya stansiyasi va tuman (shahar) soliq inspeksiyasi rasman xabardor qilinadi. Hududiy gidrogeologiya stansiyasi va tuman (shahar) soliq inspeksiyasi xabarni olganidan so‘ng o‘n kun muddatda o‘rnatilgan suv hisoblash vositasining mutanosib ravishda ro‘yxatga olinishini va muhrlanishini ta’minlaydi hamda bu haqida uch tomonlama dalolatnoma tuziladi. Agarda suv hisoblash vositasini o‘zgartirish, ta’mirlash

yoki qayta qiyoslovdan o‘tkazish uchun yechib olish oldidan bu haqda hududiy gidrogeologiya stansiyasi va tuman (shahar) soliq inspeksiyasini xabardor qiladi va tegishli ishlarni ularning vakillari ishtirokida amalga oshiradi. Bu kabi jarayonlarga to‘laqonli amal qilmaslik belgilangan tartib chora ko‘rish uchun asos bo‘ladi.

Bundan tashqari, yer qa’ri suvlari bilan bog‘liq munosabatlarda davlat nazoratida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yer qa’rini geologik o‘rganish, foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi boshqaruv va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori asosida qabul qilingan “Yer qa’rini geologik o‘rganish, undan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizom muhim ahamiyatga ega. Bu nizom yer qa’rini geologik o‘rganish, undan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasida davlat nazoratini amalga oshirish tartibini, ushbu sohada nazoratni amalga oshiruvchi organlarning vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlarini belgilaydi. Nizomga ko‘ra, **yer qa’rini geologik o‘rganish, undan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasida davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar** quyidagilar: 1) O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi; 2) O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi; 3) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi; 4) Mahalliy davlat hokimiyati organlari. Ular yer qa’ri bilan bog‘liq munosabatlarda o‘z vakolatlari doirasi ishlarni amalga oshiradi. **Yer qa’ridan barcha foydalanuvchilar tomonidan qonunchilikka**, yer qa’ridan foydalanishning belgilangan tartibiga, yer qa’rini geologik o‘rganish, undan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi me’yorlar va qoidalarga, ishlarni geologik-markshreyderlik ta’minlash bo‘yicha talablar bajarilishi monitoringini olib borishga hamda davlat hisobi va hisoboti yuritilishi qoidalariga rioya qilinishini ta’minlash yer qa’rini geologik o‘rganish, undan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlarning vazifasi hisoblanadi.

Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi qator vakolatlari doirasida suvga quduqlarni burg‘ulashga ruxsat olish va maxsus suvdan foydalanishga (yerosti suvlari) ruxsat olish shartlariga rioya etish hamda yer qa’rining noyob obyektlari, yerosti mineral davolash va ichimlik suvlarni muhofaza qilish vazifalari yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerosti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 439-sonli qarori bilan Inspeksiyaga yerosti suvlari ustidan davlat nazoratini amalga oshirishdagi keng vakolatlardan yana biri qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suv tejovchi texnologiyalardan (tomchilatib, yomg‘irlatib, diskret va boshqalar) foydalanilmaganda burg‘i quduqlaridan foydalanishni taqiqlash vazifasi yuklatildi[79].

Sohada davlat nazoratini kuchaytirish maqsadida 2023-yil 1-apreldan boshlab:

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Yer qa’ridan foydalanish markazi tomonidan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga yerosti suvlariga quduqlarni burg‘ilash faoliyatiga ruxsatnoma berish tartibi joriy etildi;

burg‘ilovchi subyektlarga o‘z tasarrufidagi burg‘ilash uskunalarini GPS-trekerlar bilan jihozlash va ularni doimo ishchi holatda saqlash majburiyati yuklatiladi;

qonunchilikda nazarda tutilgan tegishli texnik hujjatlarga ega bo‘lmagan burg‘ilash uskunalari yordamida yerosti suvlariga quduqlarni burg‘ilash taqiqlanadi va Inspeksiya tomonidan bunday holatlar aniqlangan taqdirda, burg‘ilash uskunalarini musodara qilish yuzasidan sudga murojaat etiladi;

yerosti suvlariga quduqlarni burg‘ilash faoliyatiga ruxsatnoma-ning talab va shartlarini bajarmaganlik uning amal qilishini to‘xtatib turishga, gidrogeologik xulosasiz burg‘ilash ishlarini olib borish esa ruxsatnomani bekor qilishga asos bo‘lishi belgilandi;

yerosti suv olish inshootlariga (burg‘i qudug‘i, buloq kaptaji) ega bo‘lgan barcha yerosti suvlaridan foydalanuvchilarga yillik suv olish

[79] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.12.2022-y., 07/22/439/1081; 10.08.2023-y., 06/23/116/0579-son.

miqdori to‘g‘risidagi hisobotni belgilangan tartibda Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining hududiy gidrogeologiya stansiyalariga topshirish majburiyati yuklandi. Bu kabi tashabbuslar sohada tub o‘zgarishlar olib keldi va sohada tartiblar mavjud ekanligi hamda barcha o‘z bilganicha ishlatish tartib-taomillarini bekor qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 16-sonli Farmonida “turli sohalarda tegishli soha va tarmoqlarda davlat nazorati va tekshiruvni amalga oshiruvchi **davlat inspeksiyalarining** Qonunchilik palatasi qo‘mitalari bilan **hamkorlik tizimini** yo‘lga qo‘yish bu orqali: **birinchidan,** Davlat inspeksiyalarini Qonunchilik palatasi qo‘mitalariga biriktirish; **ikkinchidan,** Qonunchilik palatasi qo‘mitalari bilan davlat inspeksiyalari o‘rtasida o‘zaro ma’lumot almashishni yo‘lga qo‘yish, parlament nazorati tadbirlari o‘tkazishda Davlat inspeksiyalari xodimlarini jalb qilish, tegishli sohalarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishda hamkorlik qilish; **uchinchidan,** Qonunchilik palatasi qo‘mitalari majlislarida tegishli Davlat inspeksiyalarining faoliyatiga oid hisobotlarini eshitib borish vazifalari belgilandi. Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasini Oliy Majlis Qonunchilik palatasining **Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo‘mitasi yoki Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasiga biriktirish lozim.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6079-sonli Farmonida[80] yerosti suvlari bilan bog‘liq munosabatlarni raqamlashtirish masalasi bilan bog‘liq fikrlar yuritilmagan, sohada kuzatish quduqlari, punktlari faoliyati samarali yo‘lga qo‘yish, **yerosti suvlarini miqdori, sifati, tarkibi, ifloslanish darajasi** kabi masalalar muhimligi bois, bu mexanizmlarni to‘laqonli nazorat va monitoringini amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, sun’iy intellekt va raqamlashtirish masalalarini kengroq joriy etish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

[80] Qonunchilikma’lumotlarimilliybazasi,21.11.2024-y.,06/24/185/0944-son;01.03.2025-y., 06/25/27/0196-son.

2.4. Yerosti suvlari ustidan monitoring yuritish

Mamlakatimizda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanishni ta'minlash, suvlarning zararli ta'sirining oldini olish va uning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, aholining ichimlik suviga bo'lgan ehtiyoji ortayotgani, quduqlarni ruxsatsiz burg'ilash va suvdan nazoratsiz, hisobga olmasdan foydalanish holatlari davom etayotgani sababli yerosti suv resurslarini muhofaza qilish choralarini kuchaytirish zarurati tug'ildi.

Bu sohadagi islohotlar yerosti suvlaridan noqonuniy foydalanishning oldini olish, quduqlar burg'ilash bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun yengilliklar yaratish va yerosti suvlaridan oqilona foydalanishni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Masalan, yerosti suvlariga quduqlarni qonunga xilof ravishda burg'ilash, xavfli geologik jarayonlarning oldini olishga doir ko'rsatmalarni bajarmaslik uchun javobgarlik belgilash; hisoblash vositalarisiz yerosti suvlarini olishda soliq stavkasining oshirilgan miqdorida soliq undirish; shuningdek, quduqlar burg'ilashdagi huquqbuzarliklarni kamaytirish kabi choralar kiritilmoqda.

Xalqaro maydonda yerosti suvlarining muhofazasi doirasida quyidagi prinsiplarga e'tibor qaratilgan:

1. Yerosti suvlarini boshqarish va muhofazasida ajratmaslik. Bunda yer qa'ri suvlarining ichimlik, sanoat, mineral kabi turlariga ahamiyati jihatdan e'tibor qaratmaslik vazifasi yuklatilgan;

2. Yer qa'ri suvlari sifati va holatini saqlash va yaxshilash bo'yicha birgalikda harakat qilish. Bunda davlatlar va davlatlar ichidagi tashkilotlarining o'zaro hamkorlikda ish olib borish majburiyatlari belgilab qo'yilgan;

3. Milliy va mahalliy darajalarda yerosti suvlarining muhofazasi munosabatlarini vertikal doirada amalga oshirish;

4. Sohani tartibga solishda har tomonlama yondashish. Sohadagi qishloq xo'jaligi, sanoat, energetika, sog'liqni saqlash va boshqa

yo‘nalishlarda ishlarni tashkil etishda yerosti suvlari bilan bog‘liq qoidalarga rioya etish talabi qo‘yiladi[81].

O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi inspeksiyasi tomonidan 2024-yil mobaynida yerosti suvlari bo‘yicha quduq burg‘ilash va ulardan foydalanish faoliyati doirasida 142 ta subyektga tegishli 11 mingdan ortiq burg‘ilash quduqlarida monitoring o‘tkazildi. Shu jumladan, ruxsatnomasiz foydalanayotgan 76 ta tadbirkorlik subyektiga tegishli 9 mingdan ortiq burg‘ilash quduqlari faoliyati to‘xtatilib, 95 mln so‘m miqdorida jarimalar belgilandi[82].

Ushbu statistik ma’lumotlar sohadagi huquqbuzarliklar jamoatchilikning ogohligini oshirish va nazoratni kuchaytirish zaruratini ko‘rsatadi. Yerosti suvlarini monitoring qilish muhim bo‘lib, bu bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy normativ hujjatlar quyidagilardir:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 737-sonli qarori[83];

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining yer qa’ri monitoringini olib borish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 119-sonli qarori[84];

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanish sohasidagi faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Yerosti suvlari davlat monitoringi to‘g‘risida”gi nizom.

Ushbu normativlar yerosti suvlari ustidan nazorat yuritilishning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Avvalo, “monitoring” tushunchasiga e’tibor qaratish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori bilan “atrof tabiiy muhitning davlat monitoring” tushunchasi ta’rifi ochib berilgan. **Atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi** – atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini aniqlash, uning ekologik

[81] Governance, Groundwater. “A global framework for action”. GEF and FAO (2017).

[82] Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan brifing 10.02.2025.

[83] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.01.2025-y., 09/25/48/0093-son.

[84] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son.

holatini baholash, salbiy jarayonlarning oqibatlarini prognoz qilish bartaraf etish maqsadida atrof tabiiy muhitning biotik va abiotik komponentlarining holatini, ularning ifloslanish va antropogen faoliyatning boshqa zararli ta'sirlari (jarayonlari) tufayli o'zgarishini hamda tabiiy resurslardan foydalanishni tasdiqlangan dastur bo'yicha muntazam kuzatish tizimi.

O'zbekiston Respublikasi Suv kodeksida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari doirasida **suvlarning davlat tomonidan hisobga olib borilishini hamda suvdan foydalanishni nazorat qilish va ularni muhofaza etishni ta'minlash, davlat suv kadastri va suv monitoringini yuritish** vakolatlari yuklatilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "suv monitoringi" hamda "yerosti suvlari davlat monitoringi" tushunchalarini ishlab chiqish zarur. Bu sohaning nazoratini kuchaytirish, tushunmovchiliklarning oldini olish va yerosti suvlarini to'laqonli muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, **yerosti suvlari davlat monitoringi** – yerosti suvlarining ifloslanish darajasini aniqlash, ularning ekologik holatini baholash, salbiy jarayonlarning oqibatlarini prognoz qilish va bartaraf etish maqsadida ularning holatini, ifloslanish va antropogen faoliyatning boshqa zararli ta'sirlariga bog'liq o'zgarishlarini hamda ulardan foydalanishni belgilangan mezonlar bo'yicha muntazam kuzatish tizimidir.

Yerosti suvlari monitoringi obyektlari – chuchuk va kam sho'rlangan suvlar, mineral, termal va sanoat ishlab chiqarishiga oid yerosti suvlari hamda yerning gidrodeformatsion maydonlarini o'z ichiga oladi.

"Yerosti suvlari davlat monitoringi" va "yerosti suvlari monitoringi obyektlari" tushunchalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yerosti suvlaridan foydalanish sohasidagi faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan "Yerosti suvlari davlat monitoringi to'g'risida"gi nizomga kiritilishi lozim[85].

[85] Отамирзаев О. (2025). Legal monitoring of groundwater in the case of Uzbekistan. Междисциплинарный диалог науки и общества в эпоху экологических перемен, 1(1), 3–7.

Yerosti suvlari monitoringi yerosti suvlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosiy tadbirlaridan biridir. Subyekt tarkibidan kelib chiqqan holda yerosti suvlari monitoringini davlat organlari yordamida amalga oshiriladigan monitoring va yer qa’ridan foydalanuvchining o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan monitoringga bo‘lish mumkin. Yerosti suvlarining davlat monitoringiga xos bo‘lgan quyidagi huquqiy xususiyatlari mavjud: a) yerosti suvlarining davlat monitoringi davlat ekologik monitoringining bir turi; b) yerosti suvlarining davlat monitoringi yer qa’ri holati davlat monitoringining tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, Atrof-muhit davlat monitoringi quyidagilardan iborat:

– atmosfera havosi, yerusti suvlari va tuproq ifloslanishi (emissiya) manbalari monitoringi;
– atmosfera havosi ifloslanishi monitoringi;
– yerusti suvlari ifloslanishi monitoringi;
– kollektor-drenaj suvlarining sifat tarkibi monitoringi;
– yerosti suvlari ifloslanishi monitoringi;
– xavfli geologik jarayonlar monitoringi;
– yerning ifloslanishi monitoringi;
– o‘simlik va hayvonot dunyosi monitoringi;
– atrof-tabiiy muhitning sanitariya-gigiyenik monitoringi;
– fon monitoring[86].

Bundan ko‘rinib turibdiki, atrof-muhit davlat monitoringining bir shakli yerosti suvlari ifloslanishi monitoringiga qaratilib, uning bugungi kunda atrof-muhit davlat monitoringidagi o‘rnini belgilab bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanish sohasidagi faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, **yerosti suvlari monitoring ikki turga ajratiladi**: davlat va ishlab chiqarish monitoringlari. Davlat monitoringi davlat budjeti hisobidan respublika (res-

[86] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.01.2025-y., 09/25/48/0093-son.

publikaning butun hududini qamrab oladi) va mahalliy darajalarda (fizik-geografik, ma'muriy va boshqalar bilan cheklangan hududni qamrab oladi) olib boriladi. Ishlab chiqarish monitoringi esa yuridik va jismoniy shaxslarning o'z mablag'lari hisobidan yerosti suvlariga texnogen ta'sir ko'rsatuvchi alohida uchastkalar hududida joylashgan bir qancha quduqlarni yoki yakka quduqlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining yer qa'ri monitoringini olib borish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 119-sonli qaroriga asosan monitoring quyidagi darajalarda olib boriladi[87]:

respublika darajasida (respublikaning butun hududini qamrab oladi);

mintaqaviy darajada (fizik-geografik, ma'muriy va boshqa chegaralar bilan cheklangan hududni qamrab oladi);

mahalliy (ishlab chiqarish) monitoring (muayyan tabiiy-texnogen va landshaft-ekologik komplekslar hududini qamrab oladi).

Yuqoridagi ikki normativda belgilanganidek, davlat monitoringini tabiat obyektlarning holati va sifatiga qarab turli shakllarda amalga oshirish, ko'zlangan maqsadga erishishda muhimdir.

Yerosti suvlari davlat monitoringi O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining hududiy gidrogeologiya stansiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Avval O'zbekiston Respublikasining yer qa'ri monitoringini olib borish tartibi to'g'risida nizom asosida yerosti suvlari monitoringini amalga oshirish tartibga solingan, biroq u keyinchalik sohani normativ-huquqiy hujjatlar bilan to'laqonli tartibga solish talabi vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining yer qa'ri monitoringini olib borish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qaroriga ko'ra, monitoring tizimining tarkibi quyidagi kichik tizimlardan iborat:

yerosti suvlari;

xavfli ekzogen geologik jarayonlar;

endogen geologik jarayonlar;

[87] Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son.

qattiq foydali qazilmalar va uglevodorod xomashyoning istiqbolli uchastkalari va konlari;

foydali qazilmalarni kavlab olish bilan bog‘liq bo‘lmagan maqsadlar uchun foydalaniladigan yer qa’ri uchastkalari.

Biroq “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi Qonun[88]ning 131-moddasida yer qa’ri holati davlat monitoringi turlari ro‘yxatidan yerosti suvlari davlat monitoringi chiqarib tashlangan. Bu esa bizningcha yerosti suvlari yer qa’ri bilan bevosita bog‘liqligi tufayli uni ajratib chiqarish maqsadga muvofiq emas.

Yerosti suvlari davlat monitoring to‘g‘risidagi 2017-yildagi 430-sonli qaror qabul qilingunga qadar, soha ushbu normativ bilan tartibga solingan.

Yerosti suvlari monitoringi sifat va miqdor ko‘rsatkichlari bo‘yicha ularning holatini chamalash va o‘zgarishlarni, shu jumladan, yerosti suvlarining foydalanilayotgan konlari o‘zgarishlarini prognoz qilish, yerosti suvlarining prognoz resurslari va zaxiralarini hisobga olish va ulardan foydalanish, yerosti suvlari davlat kadastrlariga kiritish uchun axborot tayyorlash uchun mo‘ljallangan.

Monitoring quyidagi darajalarda olib boriladi[89]:

respublika darajasida (respublikaning butun hududini qamrab oladi);

mintaqaviy darajada (fizik-geografik, ma’muriy va boshqa chegaralar bilan cheklangan hududni qamrab oladi);

mahalliy (ishlab chiqarish) monitoring (muayyan tabiiy-texnogen va landshaft-ekologik komplekslar hududini qamrab oladi).

Ahvoli aholi salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan ichimlik yerosti suvlarining rolini, shuningdek, shifobaxsh mineral yerosti suvlarining ahamiyati va qiymatini, termal yerosti suvlaridan qayta tiklanadigan energiya manbalari sifatida foydalanish istiqbollarini va sanoat tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda, yerosti suvlaridan foydalanishni rejalashtirishni geologik sanoatni rivojlantirish bo‘yicha dasturiy hujjatlarda qonunchilik bilan mustahkamlash zarur deb hisoblaymiz.

[88] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.11.2024-y., 03/24/987/0873-son.

[89] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son.

Yerosti suvlari markazlashtirilgan suv ta’minoti manbayi bo‘lib, huquqiy tartibga solish respublika va mintaqaviy darajada amalga oshiriladigan ijtimoiy va gigiyenik monitoring obyekti hisoblanadi. Ichimlik suvi ta’minotida foydalaniladigan yerosti suvlarining sanitariya-gigiyena monitoringini hududiy huquqiy tartibga solish markazlashgan ichimlik suvi ta’minoti uchun foydalaniladigan yerosti suvlari sifatini nazorat qilish tartibini belgilaydi.

Sohadagi og‘riqli nuqtalardan biri sifati yerosti suvlar uchun qazilgan quduqlar bo‘yicha ko‘chmas mulk oldi-sotdi vaqtida egalikni belgilash, ruxsatnomani bekor qilish, ruxsatnomaga bo‘lgan huquqni boshqa shaxs foydasiga o‘tkazish, uni foydalanishga ehtiyoj qolmagan yoki yaroqsiz holatga kelgan taqdirda, quduqni tamponaj (yopish) masalalar ochiq qolgan[90]. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 16-sonli Farmoni[91]da ham ***Yerosti suvlarining holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan foydalanilmayotgan, egasiz, noqonuniy qazilgan yerosti suv quduqlarini yopish vazifasi*** belgilangan. Xususan, quyidagi topshiriqlar berilgan:

1) respublikada foydalanilmayotgan, egasiz, noqonuniy qazilgan yerosti suv quduqlarini xatlovdan o‘tkazish;

2) xatlov natijalariga ko‘ra foydalanilmayotgan, egasiz, noqonuniy qazilgan yerosti suv quduqlarini yopish (tamponaj) qilish bo‘yicha dastur ishlab chiqish;

3) tamponaj ishlarini boshlash va har chorakda yopilgan quduqlar bo‘yicha ma’lumotlarni Vazirlar Mahkamasi va Ekologiya vazirligiga kiritib borish.

Mazkur chora-tadbirlar sohada samarali va oqilona o‘zgarishlarni amalga oshirish imkonini berdi. Shuningdek, AQShning aksariyat hududiy birliklari va Avstraliya qonunchiligiga ko‘ra, maxsus foydalanilgan va iste’mol qilingan quduqlarga egalik huquqi yer egalariga tegishli hisoblanadi.

---

[90] Otamirzayev O. Ilm-fan (elektron jurnal). O‘zbekistonda yer osti suvlari ustidan monitoring yuritishning huquqiy asoslari. 2025 (https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-yer-osti-suvlari-ustidan-monitoring-yuritishning-huquqiy-asoslari_730037)

[91] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.02.2025-y., 06/25/16/0119-son; 21.03.2025-y., 06/25/51/0261-son.

Bizning taklifimiz shuki, ruxsatnoma berish jarayonida o‘zaro shartnoma tuzish vaqtida buyurtmachiga majburiyat sifatida qazdirilgan quduqni o‘z hisobidan xavfsiz ko‘mish majburiyati yoki unga bo‘lgan huquqni boshqa shaxsga o‘tkazish majburiyati yuklanishi lozim deb hisoblaymiz.

Suv kodeksi 9-moddasida suvdan foydalanish turlari va shakllari belgilangan. Unga ko‘ra, qonunchilikda belgilangan tartibda yuridik yoki jismoniy shaxslarga butunlay yoki qisman berilgan suv obyekti tanho foydalaniladigan suv obyekti hisoblanadi. Shu bilan birga, tanho foydalanishga berilmagan suv obyekti birgalikda foydalaniladigan suv obyekti sifatida qaraladi.

Ammo yerosti suvlari bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlarda tanho yoki birgalikda foydalanish asoslari hozirgi kunda kiritilmagan. Shu sababli qonunchilikni takomillashtirish zarur. Yer ostini burg‘ilash va zamonaviy suv olish inshootlarining xaridi yuqori bo‘lganligi sababli, xorijiy davlatlar (Bangladesh, Hindiston) tajribasidagi kabi yerosti suvlaridan tanho va birgalikda foydalanish tamoyillarini belgilash lozim. Bu esa sohada rivojlanish va nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, turli shakllarda konchilik faoliyati davomida yerosti suvlarini muhofaza qilish alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi Qonunida qazilma ishlarini olib borish davomida yerosti suvlarini asrash, ularning holatiga zarar yetkazmaslik va ifloslantirmaslik kabi normalar yetarli darajada aks ettirilmagan. Shu bois yerosti suvlaridan foydalanish jarayonida qo‘yiladigan talablar qonunchilikka kiritilishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni[92]da 2025-yili davomida amalga oshiriladigan ishlar qatorida ***Yerosti suvlari ifloslanishining oldini olish va ularni muhofaza qilish, ulardan foydalanish nazoratini hamda monitoringini kuchaytirish*** talabi qo‘yilgan bo‘lib, unda yerosti suv sathi pasayib borayotgan hudud-

[92] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.02.2025-y., 06/25/16/0119-son; 21.03.2025-y., 06/25/51/0261-son.

lardagi kuzatuv quduqlarida o‘lchov ishlarini olib borish va suv sathi 5–20 metrga pasaygan hududlarda ichimlik maqsadlaridan boshqa maqsadlar uchun quduqlar burg‘ilanishini, suv tejovchi texnologiya-larsiz yerlar sug‘orilishining oldini olish choralarini ko‘rish bo‘yicha mas’ul davlat tashkilotlariga vazifalar yuklandi. Bu esa ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanish sohasidagi faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 430-sonli qarori bo‘yicha quyidagilar yerosti suvlari davlat monitoringining asosiy vazifalari hisoblanadi:

yerosti suvlari holatini doimiy kuzatishni amalga oshirish va tashkillashtirish;

olingan ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va tahlil qilish;

yerosti suv resurslari, zaxiralari va ulardan foydalanishning davlat hisobini yuritish;

yerosti suvlari zaxirasi va resurslariga texnogen ta’sir darajasi va xususiyatlarini aniqlash;

yerosti suvlarining kamayib ketishi va ifloslanish darajasini baholash;

yerosti suvlarining gidrokimyoviy va gidrodinamik tarkibi o‘zgarishini baholash;

qisqa va uzoq muddatli davrlar uchun yerosti suvlari holati o‘zgarishini baholashni ishlab chiqish;

davlat idora va tashkilotlarini yerosti suvlarining holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan ta’minlash[93].

Yerosti suvlari monitoring amalga oshirish davomida yer qa’ri suvlarining holati ustidan maxsus tashkil etilgan muntazam kuzatishlarni (kuzatuv punktlari, suratga olish, tekshirish, qidirish va masofadan kuzatishlarni), o‘zgarishlarni aniqlashni, ularni chamalash, yerosti suvlari holatining o‘zgarishi, yerosti suvlariga ta’sir ko‘rsatish manbalarini aniqlash, tabiiy va texnogen jarayonlar va yer qa’ri suvlariga ta’sir ko‘rsatish omillarini hamda geologik muhit ifloslanishi darajasi holati prognozini anglatadi.

[93] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 07/21/73/1227-son; 26.02.2022-y., 09/22/88/0165-son.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanish sohasidagi faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 430-sonli qarori[94] bilan Yerosti suvlari davlat monitoringi quyidagi tizimlardan iborat bo‘ladi:

yerosti suvlari (shu jumladan, mineral, termal va sanoat ahamiyatiga molik suvlar) holatini muntazam kuzatish;

yerosti suv resurslari va zaxiralari, ularning suv iste’molchilari tomonidan foydalanilishi hamda suv olish inshootlari (yerosti suvini olishda foydalaniladigan ekspluatatsion burg‘ilash quduqlari, buloqlar, quduqlar va boshqa inshootlar) hisobi;

yerosti suvlari miqdori va sifati ko‘rsatkichlarini baholash va o‘zgarishini prognozlashtirishdir. Buning natijasida olingan ma’lumotlar davlat hisobotlari va rasmiy nashrlarda, belgilangan tartibda idoralararo va xalqaro darajada ma’lumot almashish hamda obyektlarni qurish va loyihalashtirish, yerosti suvlari muhofazasi va foydalanish hisobi va davlat suv kadastrini yuritishda foydalaniladi. Belgilangan tartibda hisobotlar Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligiga taqdim etiladi. Vazirlik barcha hududiy gidrogeologiya stansiyalari tomonidan yig‘ilgan monitoring ma’lumotlarini, ya’ni respublika bo‘yicha yerosti suvlarining gidrokimyoviy va gidrodinamik o‘zgarishi holati bo‘yicha umumlashgan ma’lumotlarni atrof-muhit davlat kadastri ma’lumotlar bazasiga kiritiladi va belgilangan tartibda, tegishliligi bo‘yicha Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligiga, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga, Davlat soliq qo‘mitasiga hamda Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, Favqulodda vaziyatlar vazirligiga va mahalliy davlat hokimiyati organlariga taqdim etish uchun beriladi. Yerosti suvlari holati bo‘yicha olingan ma’lumotlarda ruxsat etilgan me’yorlar buzilish va o‘ta xavfliligi aniqlanganda, zudlik bilan Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi va Favqulodda vaziyatlar vazirligiga tegishli choralar ko‘rish uchun taqdim etiladi.

[94] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 07/21/73/1227-son; 26.02.2022-y., 09/22/88/0165-son.

Nafaqat yer qa’ri suvlari, balki barcha tabiiy resurslar bilan bog‘liq munosabatlarda monitoring masalasi asosiy o‘rin tutadi. Chunki resurslarning holati haqida to‘la va aniq axborotga ega bo‘lmasdan ularni yaxshilash yoki tiklash bo‘yicha harakatlar kutilgan natijaga erishmasligi mumkin. Shu sababli **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni**[95] bilan “Atrof-muhit monitoringi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Qonun loyihasi orqali quyidagi maqsadlar nazarda tutiladi:

a) atrof-muhitning ifloslanish darajasini real vaqt rejimida aniqlash, uning ekologik holatini baholash bo‘yicha faoliyatni huquqiy jihatdan tartibga solish;

b) atrof-muhit monitoringi tizimini takomillashtirish va samaradorligini oshirish hamda atrof-muhitga salbiy ta’sir yuzaga kelishini prognozlashtirish;

d) tabiiy resurslardan foydalanishni tizimli ravishda kuzatish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida davlat nazorati yuritilishini baholash;

e) aholini atrof-muhit ifloslanishi holati to‘g‘risidagi ishonchli axborot bilan ta’minlash;

f) fuqarolarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarning hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining atrof-muhit monitoringidagi ishtirokini ta’minlash masalalari nazarda tutilishi belgilandi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ilgari atrof-muhit monitoringi bilan bog‘liq munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 737-sonli qarori bilan tartibga solib kelinayotgan edi. Yangi qonun qabul qilinishi ekologiya huquqini rivojlantirish va atrof-muhitni himoya qilish sohasida sezilarli o‘zgarishlar olib kelishi kutilmoqda.

Yer qa’ri bilan bog‘liq munosabatlar o‘zining ahamiyati yuqorida darajada ekanligi tufayli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

[95] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.02.2025-y., 06/25/16/0119-son; 21.03.2025-y., 06/25/51/0261-son

Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi **“Yer qa’ridan foydalanish shartlarini ishlab chiqish bo‘yicha davlat komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi** qarori bilan yer qa’ridan foydalanish shartlarini ishlab chiqish bo‘yicha davlat komissiyasining maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi va faoliyatini tashkil etish tartibi belgilandi. Bu albatta sohada monitoring va nazoratning kuchayishiga, ishlarning sifatli va atrof-muhitga nisbatan xavfsiz olib borilishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ushbu qarorning ikkinchi bobi “Komissiyaning asosiy vazifalari va funksiyalari” nomlanib, uning 6-bandi komissiya o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalar belgilangan[96]:

a) yer qa’ridan foydalanish shartlarini ishlab chiqishda va investorlar bilan tegishli bitimlar loyihalarini ko‘rib chiqishda vazirliklar, idoralar va xo‘jalik boshqaruvi organlari bilan samarali o‘zaro hamkorlikni tashkil etish sohasida:

vazirliklar, idoralar va xo‘jalik boshqaruvi organlari vakillarini jalb etgan holda, yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish shartlarini ishlab chiqish jarayonini va bitimlar loyihalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha ishchi yig‘ilishlarni tashkil etadi, shuningdek, ularni ishlab chiqishni yakunlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni belgilaydi;

vakolatli davlat organi tomonidan investor bilan yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish shartlarini va bitimlar loyihalari muhokamasi bo‘yicha olib boriladigan muzokaralarda ishtirok etadi;

vazirliklar, idoralar va xo‘jalik boshqaruvi organlarining yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish shartlari va bitimlar loyihalarining o‘z vaqtida va sifatli ishlab chiqilishini ta’minlash ishlarini, shuningdek, Komissiya vakolatiga kiradigan boshqa masalalarni muvofiqlashtirishi belgilangan. Ushbu qarorga 5-band sifatida **“bitim shartlariga muvofiq investor bilan shartnoma tuzish hamda tuzilgan shartnomada yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish shartlari buzilganligi yuzasidan vakolatli organga taqdimnoma kiritish”** bandi kiritilgan taqdirda sohadagi qoidabuzarliklarning oldi olinib, yer qa’rini asrashda muhim o‘rin tutadi.

[96] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.05.2024-y., 09/24/266/0329-son.

Respublikamizning ayrim hududlarida yer yuzasidagi suvlarni chiqarib tashlash va drenaj tizimlarining qoniqarsiz holati, yerosti suvlari sathining intensiv ko‘tarilishi, shuningdek, rejali tarzda gidrogeologik monitoring olib borilmagani oqibatida ayrim shaharlar va aholi punktlarida yerosti suvlari sathining yer yuzasiga yaqinlashishi kuzatilmoqda. Shuningdek, yerosti suvlari monitoringining amaldagi tizimi suv manbalarining ifloslanishiga, yerosti suvlari zaxiralarining kamayishiga va ba’zi aholi punktlarida yerosti suvlari sathining ko‘tarilishiga olib keluvchi salbiy omillarni o‘z vaqtida va to‘laqonli baholash imkonini bermayapti.

Muhim jihati shundaki, 2017-yilning fevral-mart oylarida 10 mingdan ortiq suv qudug‘i bo‘yicha o‘tkazilgan xatlov natijalari aytib o‘tilgan salbiy omillarning yerosti suvlari holatiga ta’siri davom etayotganidan dalolat beradi. Xatlov natijalari shunday:

60 foizdan ortiq quduqlardan yerosti suvlari nazoratsiz olinayotgani hamda ularning ifloslanishi va zaxiralarining kamayishi davom etayotganini;

59 foiz yerosti suvlari tasdiqlanmagan zaxiralardan olinayotganini;

yaqin o‘n yillar mobaynida chuchuk yerosti suvlari mavjud resurslarining yarmidan ko‘pini tiklab bo‘lmas tarzda yo‘qotishning real xavfi mavjudligini yaqqol ko‘rsatdi.

Bundan ko‘rindiki, yerosti suvlarini hisobga olish va ulardan foydalanish yuzasidan nazorat va hisob-kitobning ta’minlanishi uchun vakolatli davlat organlarining hamda suvdan foydalanuvchilar va suv iste’molchilarining suv resurslaridan oqilona foydalanish, olinayotgan suv hajmini to‘laqonli tarzda hisobga olish, shuningdek, ularning ifloslanishi va kamayishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ishlar amalga oshirilishi lozim. Bu yo‘lda Davlat suv kadastri bilan bog‘liq ishlarni to‘g‘ri tashkil etish juda muhimdir. Shu sababdan 2022-yil 7-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerosti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 439-sonli qarori, 2023-yil 28-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlariga quduqlarni burg‘ilash va ulardan foydalanish munosabatlarini tartibga solishni

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2025-yil 5-maydagi O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining 1062-sonli qonuni bilan tub o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirishga, aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanilishini ta’minlashga, shuningdek, suvlarning zararli ta’sirining oldini olishga va uning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Respublikada yerosti suvlari orqali yerlarni sug‘orish va xo‘jalik maqsadlar uchun olish keskin oshganligi, shuningdek, quduqlarni ruxsatsiz burg‘ilash va suvlardan nazoratsiz, hisobga olmasdan foydalanish hollari davom etayotganligi sababli yerosti suv resurslarini muhofaza qilish choralarini kuchaytirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Milliy qonunchiligimizga ko‘ra, ya’ni Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 9-sonli qaroriga muvofiq, yerosti suvlaridan foydalanish umumiy va maxsus usullar orqali amalga oshiriladi. Umumiy foydalanish shartlariga muvofiq, jismoniy shaxslar tomonidan chuqurligi 25 (yigirma besh) metrgacha bo‘lgan quduqlardan sutkasiga 5 (besh) kub metr hajmdagi yerosti suvlaridan foydalanilganda maxsus ruxsatnoma olish talab etilmaydi. Bunda olingan suvdan fuqarolar o‘z ehtiyojlari uchun foydalanishlari mumkin. Ammo belgilangan limitlardan oshgan holda ruxsatnoma olish masalasi to‘laqonli yoritilmagan edi.

Kundalik hayotda yerosti suvlari ehtiyoj kundan kunga ortayotganligi tufayli hamda yerosti suvlari muhofazasi muhim ahamiyatga egaligi uchun hamda limitlar belgilandi. Belgilangan yerosti suv olish limitlariga rioya etishi – ruxsatnomada belgilangan doirada suv olish me’yorlariga rioya etishi, oshgan taqdirda qo‘shimcha to‘lovlar joriy etish, suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish orqali suvdan kam foydalanish ilg‘or tajribalarini ommalashtirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Yerosti suv resurslarini**

muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan yerosti suvlaridan maxsus foydalanuvchilarni 2024-yil 1-yanvarga-cha suv hisoblagichlari o‘rnatish majburiyati ham xuddi shu talabni hayotimizdagi isboti sifatida ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining **1062-sonli qonuni** yerosti suvlari bilan bog‘liq munosabatlarda ijobiy o‘zgartirishlar sodir bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 74-moddasi **“yerosti suvlariga quduqni qonunga xilof ravishda burg‘ilash”** degan qo‘shimcha bilan boyitildi. Bu orqali avvallari faqat noqonuniy suv olganlik javobgarlikka tortilib, noqonuniy burg‘ilash ishlarini amalga oshirganlar javobgarlikka tortilmay qolayotgan edi. Bu bilan qonunchilikdagi bo‘shliqqa barham berildi. O‘zbekiston Respublikasining **Soliq kodeksiga 445-moddasiga** yerosti suvlari suv o‘lchash uskunalarisiz suv olinganda belgilangan **soliq stavkasining besh baravari miqdorida undirish** belgilanib, jazo chorasi kuchaytirildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 14-iyulda qabul qilingan **“Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi** O‘RQ–701-sonli Qonuni 2-ilova 57-pozitsiyasi “Yerosti suvlariga quduqlarni burg‘ilash bo‘yicha faoliyatga doir ruxsatnoma” tartibi “Yerosti suvlariga quduqlarni burg‘ilash bo‘yicha faoliyat” deb o‘zgartirildi. Bu orqali burg‘ilash faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy hamda yuridik shaxslar endilikda har bir obyekt doirasida ruxsatnoma olishi va u yuzasidan hisobot berishi talab etilmaydi. Faoliyat uchun faqat bir marta ruxsatnoma olishi va ruxsatnoma amal qilish belgilangan 5 yillik muddatda hisobot taqdim etishi belgilandi. **Bu bilan** yerosti suvlariga quduqlarni burg‘ilashga doir ruxsatnomani berish tartib-taomilini yanada takomillashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Bu o‘zgartirish va qo‘shimchalar yerosti suvlarining muhofazasi, ulardan oqilona foydalanish va hisobini yuritishni tartibga solishda muhim o‘rin tutadi.

Biroq yerosti suvlardan yerosti suvli qatlamlaridan olinadigan suvdan foydalanish va suv iste’moli qoidalarini, yerosti suvli

qatlamlaridan suv olish limitlarini buzish, yerosti suvlaridan o‘zboshimchalik bilan suv olish huquqbuzarliklarida fuqaro yoki yuridik shaxslar **faqatgina ma’muriy jarimani** to‘lash bilan cheklanishmoqda. Ularni tabiatga, yerosti suvlaridan ortiqcha foydalanganlikni hisoblash, huquqbuzarlik aniqlangunga qadar yetkazgan zararli ta’siriga mutanosib ravishda zarar summasini **undirish masalalari qonunchilikda o‘z yechimini topmagan.**

Bugungi kunda yerosti suv resurslarini muhofaza qilish borasida davlat va jamoat nazorati kuchaytirilayotgani, ularning miqdoriy kamayib ketishi va ifloslanishining oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rilayotgani ko‘zga tashlanmoqda. Fuqarolar o‘rtasida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish borasida keng targ‘ibot ishlari olib borilmoqda.

Davlatlarda qonunchilik amal qilish ko‘rsatkichlari, ularga to‘liq rioya etish fuqarolarning huquqiy madaniyatda ko‘rinadi. Atrof-muhit borasidagi normativlarga rioya etish esa fuqarolarning ekologik huquqiy madaniyatida aks etadi. Fuqarolarda ekologik madaniyatni oshirish – ekologik ongni shakllantirish, tabiiy resurslarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va atrof-muhitni asrashga bo‘lgan mas’uliyatni rivojlantirish jarayoni. Bugungi kunda atrof-muhit muammolari, iqlim o‘zgarishlari va resurslarning kamayishi global miqyosda tobora jiddiylashib bormoqda, shuning uchun ekologik madaniyatni oshirish nafaqat davlatlar va xalqaro tashkilotlar, balki har bir fuqaro uchun ham ustuvor vazifaga aylanib bormoqda.

Ekologik madaniyatni oshirish har bir fuqaroning atrof-muhitga bo‘lgan mas’uliyatli va ongli munosabatini shakllantirishni talab qiladi. Bu jarayonning samarali amalga oshirilishi uchun ta’lim, targ‘ibot, qonunchilik va jamoatchilikning faol ishtiroki zarur. Ekologik madaniyatni oshirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki barqaror rivojlanishni ta’minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlash uchun ham muhimdir. Har bir fuqaroni ekologik mas’uliyatga o‘rgatish, ularni ekologik ongli shaxslar sifatida tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga

oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi 16-sonli Farmonida ham qator berilgan chora-tadbirlardan bir sifati 2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash vazifasi qo‘yilgan edi.

2025-yil 15-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 184-sonli qarori bilan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori[97] qabul qilindi. Unda belgilangan har bir vazifa mamlakatimizda barqaror ekologik muhitni ta’minlashda juda muhim dasturilamal bo‘lishi, yuqori ko‘rsatkichlarga erishilishiga zamin yaratishi kutilmoqda.

Har qanday huquqbuzarlik va muammolarning yuzaga kelishiga eng avvalo bilimsizlik yotishi, ekologiya yo‘nalishidagi muammolarning deyarli barchasining kelib chiqishiga esa ekologik madaniyatning yetishmasligi sabab bo‘lishi aytilib, qabul qilingan qarorda bularning barchasiga aniq yechimlar mas’ullari hamda amalga oshirish muddati bilan belgilab berilgani, bu esa mazkur hujjatning har tomonlama mukammal, puxta ishlab chiqilganidan dalolat ekanini e’tirof etishimiz mumkin.

Atrof-muhitni asrashda tabiat obyektlarining kadastrini yuritish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu orqali tabiat obyektining holati, sifati, miqdor statistikasi haqida batafsil ma’lumotlarga ega bo‘linadi. Davlat kadastrlari tarkibiy qismi sifatida **Davlat suv kadastri yagona tizimi** yerusti va yerosti suvlari haqida ma’lumotlar bazasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 7-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat suv kadastrini ishlab chiqish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 11-sonli qarori Davlat suv kadastri, nafaqat yerusti suvlari, xususan, yerosti suvlari kadastrining yuritilish tartibini belgilovchi asosiy normativ hujjatdir.

Avvalo, Davlat suv kadastri atamasiga e’tibor qaratishimiz lozim hisoblanadi. **Davlat suv kadastri** yagona davlat suv fondini tashkil etuvchi suv obyektlari, suv resurslari, suv rejimi, sifati va undan foydalanish haqidagi, shuningdek, suvdan foydalanuvchilar, suv

[97] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.05.2025-y., 07/25/184/0447-son.

iste'molchilari va suv xo'jaligi obyektlari, suvni muhofaza qilish zonalari, sohil bo'yi mintaqalari va sanitariya muhofazasi zonasi, ichimlik va oqova suvlar to'g'risidagi tartibga solingan, doimiy to'ldirib boriladigan va zarurat bo'lganda aniqlashtiriladigan ma'lumotlar to'plamini ifodalaydi[98].

Belarus Respublikasi Suv kodeksi 58-moddasida Davlat suv kadastri tarkibi quyidagicha tavsiflangan[99]:

Davlat suv kadastri ma'lumotlarning tizimlashtirilgan to'plamidir:

1. Suv obyektlari bo'yicha (suv obyektlarining tasnifini hisobga olgan holda ularning soni, joylashgan joyi, maydoni yoki uzunligi);

2. Yerusti suv havzalarining gidrobiologik, gidrokimyoviy va gidromorfologik ko'rsatkichlari, ularning ekologik holati (holati) bo'yicha;

3. Yerusti suv obyektlaridan (ularning qismlaridan) maishiy-ichimlik, gidroenergetika va mudofaa ehtiyojlari uchun maxsus, alohida suvdan foydalanish huquqi yoki baliq yetishtirish uchun ijara huquqi (suvdan foydalanish turlari va maqsadlari bo'yicha) asosida suvdan foydalanuvchi suvdan foydalanuvchilarga;

4. Qazib olinadigan (olib olingan) suv, oqava suvlar hajmi bo'yicha;

5. Yerosti suvlarining gidrogeologik va gidrokimyoviy ko'r-satkichlari bo'yicha;

6. Qazib olingan yerosti suvlari, tortib olingan yerusti suvlari va atrof-muhitga tashlanadigan oqava suvlarni hisobga olish;

7. Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish boyicha boshqa ma'lumotlar to'g'risida.

Yerosti suv kadastri predmet esa tabiiy yer qa'ri suv resurslarini, ulardan miqdor va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha foydalanishni har tomonlama o'rganish va baholash, ushbu suvdan foydalanish huquqini va suvdan xo'jalik maqsadlarida foydalanishni ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi.

Yerusti suvlari bo'limi bo'yicha suv kadastrini **Gidrometeorologiya xizmati agentligi** tomonidan amalga oshirilsa, yerosti suvlari bo'limi bo'yicha suv kadastrini **Tog'-kon sanoati va geologiya**

[98] Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 19.10.2022-y., 09/22/610/0938-son.

[99] Belarus Respublikasi Suv kodeksi (https://etalonline.by/document/?regnum=hk1400149)

vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Suvlarni baholash belgilangan tartibda Uzgidromet tomonidan qo‘yilgan talablardagi gidrometrik asboblar yordamida butun yil davomida yoki ko‘p yillar davri uchun ularni miqdor va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha muntazam hisobga olish, olingan ma’lumotlarning ishonchliligi tahlili, ularni standart usullar bilan qayta ishlash va turli hududiy va vaqt birliklari bo‘yicha umumlashtirish tushuniladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, kadastr ma’lumotlari yuritilishidan maqsad davlat hokimiyati organlarini, yuridik va jismoniy shaxslarni yer va suv xo‘jaligi obyektlari, suv resurslari, suv rejimi, sifati va undan foydalanish, shuningdek, suvdan foydalanuvchilar va suv iste’molchilari to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlar bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan.

Davlat suv kadastrining asosiy vazifasi eng kam chiqimlar bilan zamonaviy darajada axborotlarni to‘plash, umumlashtirish, saqlash va taqdim etish texnologiyasini doimiy ravishda takomillashtirib borish yo‘li bilan suv resurslari va suv obyektlari haqida ishonchli axborotni olish va saqlash hisoblanadi. Uning tarkibiy qismlari esa suv obyektlari, suvdan foydalanuvchilar, suv iste’molchilari va suv xo‘jaligi obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish, suv miqdori va sifatini hisobga olish, suv resurslarini va ulardan foydalanishni baholash hisoblanadi.

Davlat suv kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari[100] quyidagilar hisoblanadi:

respublikaning barcha suv obyektlarini qamrab olish;

suv resurslarini va ulardan foydalanishni hisobga olishning yagona tizimini qo‘llash;

boshlang‘ich kadastr axborotini qayta ishlash usulining yagonaligi;

davlat kadastrlari yagona tizimi talablarini hisobga olish;

davlat suv kadastrini yuritish bo‘yicha ishlarga markazlashtirilgan tartibda rahbarlik qilish;

suv-kadastr axborotining ishonchliligi, ko‘rgazmaliligi va hujjatlarga asoslanganligi;

davlat suv kadastrini yuritish bo‘yicha ishlarning uzluksizligi;

kadastrni yuritishning avtomatlashtirilgan geoaxborot tizimi faoliyat ko‘rsatishi;

[100] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.10.2022-y., 09/22/610/0938-son.

suv kadastrini yuritish bo‘yicha ishlarning tejamliligi;

foydalanuvchilar doirasi cheklangan ma’lumotlarning maxfiyligi.

Davlat yerosti suv kadastrining mazmuni Respublika hududida yerosti suv obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish, yerosti suv resurslari, ularning rejimi, foydalanish, shuningdek, suvdan foydalanuvchilar, suv iste’molchilari va suv xo‘jaligi obyektlari to‘g‘risidagi miqdor va sifat baho ko‘rsatkichlari haqida ishonchli, zamonaviy va tejamli axborotlarni olish, tartibga solish, saqlash va ularni foydalanuvchilarga berishning texnologik jarayoni hisoblanadi.

Davlat yerosti suv kadastrlarini yaratish orqali yer qa’ri suvdan foydalanishni joriy va istiqbolli rejalashtirish hamda suvni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish; mamlakat hududida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish; yerosti suvdan kompleks foydalanish va uni muhofaza qilish sxemalarini hamda suv xo‘jaligi balanslarini tuzish; yerosti suvdan foydalanish va suv iste’moli bilan bog‘liq bo‘lgan suv xo‘jaligi, transport, sanoat korxonalari hamda boshqa korxonalar va inshootlarni loyihalashtirish; davlat yerosti suv kadastrini yuritishning avtomatlashtirilgan geoaxborot tizimida ma’lumotlar bazasini yaratish va yuritish; suv xo‘jaligi obyektlarining raqamli xaritalar katalogini yaratish; gidrologik va gidrogeologik sharoitlar, daryolarda suv hajmi va suv sifati o‘zgarishlarini prognozlashtirish; suv xo‘jaligi tizimlari ishi samaradorligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqish; suvni iste’mol qilish va chiqarib yuborishni, shuningdek, suv sifati ko‘rsatkichlarini normalashtirish; suvning zararli ta’sirining oldini olish va uni bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqish; suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish tadbirlari o‘tkazilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish; suvdan foydalanuvchilar o‘rtasidagi, shuningdek, suvdan foydalanuvchilar bilan boshqa manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga solish; suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish bilan bog‘liq boshqa masalalarni hal etish mumkin bo‘ladi.

Davlat yerosti suv kadastri obyektlari quyidagi turlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi:

a) yerosti suv obyektlari:

yerosti suvlari (havzalar, suvli gorizontlar, konlar);

b) suv xo‘jaligi obyektlari (inshootlari):

yerosti suv obyektlaridan suv olishga mo‘ljallangan inshootlar (nasos qurilmalari, foydalanish quduqlari va boshqalar);

foydalanilgan va shaxta suvlarini suv obyektlariga tashlash inshootlari (kollektorlar, drenaj va suv to‘planadigan kanallar, quvursimon suv chiqargichlar va boshqalar);

Davlat yerosti suv kadastri ma’lumotlari quyidagilarga bo‘linadi:

arxiv materiallari (daftarchalar, jadvallar, o‘zi yozadigan texnikaning lentalari va boshqalar);

uzoq muddatli texnik manbalardagi ma’lumotlar;

e’lon qilinadigan materiallar (suv va suv xo‘jaligi obyektlari kataloglari, har yilgi va ko‘p yillik ma’lumotlar va boshqalar).

Davlat yerosti suv kadastri ma’lumotlari respublika, viloyatlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari yerosti suvlari bo‘limi bo‘yicha esa gidrogeologiya mintaqalari bo‘yicha ham tizimlashtiriladi va davlat yerosti suv kadastrining avtomatlashtirilgan geoaxborot tizimiga kiritiladi. Lekin yerosti suv kadastri **Davlat suv kadastrining tarkibiy qismidir**.

Yerosti suv resurslari, ularning sifati va xo‘jalik faoliyati ta’siridagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar konlar, daryo havzalari va ularning maydonlari, suvli gorizontlar va yerosti suvlari havzalari, viloyatlar hamda umuman respublika bo‘yicha davlat suv kadastrining avtomatlashtirilgan geoaxborot tizimida umumlashtiriladi. Yerosti suvlari resurslarini baholash ularning yerusti suvlari bilan o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Suvdan foydalanuvchilarni suv resurslari va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlar bilan ta’minlashda tezkorlikni oshirish, shuningdek, iste’molchilarning talablarini hisobga olgan holda ma’lumotlarni qayta ishlash va umumlashtirish darajasini oshirish uchun **O‘zgidromet, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Suv xo‘jaligi vazirligi** tomonidan davlat suv kadastrining avtomatlashtirilgan geoaxborot tizimi tashkil etiladi.

Davlat suv kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimi O‘zgidromet, Davlat geologiya qo‘mitasi hamda Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan yagona texnik topshiriq asosida

O‘zgidromet, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Suv xo‘jaligi vazirligining tarmoq axborot tizimlari negizida loyihalashtiriladi va tashkil etiladi.

Davlat suv kadastrini yuritish uchun yerusti suvlari, **yerosti suvlari** va suvdan foydalanish bo‘limlari bo‘yicha Davlat suv kadastrining idoralararo bosh markazi, **Davlat suv kadastri idoralarga qarashli bosh markazlari** tashkil etildi.

Davlat suv kadastri idoralararo bosh markazi funksiyasini O‘zgidrometning gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti bajarishi belgilangan.

O‘zgidromet[101]:

a) Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Suv xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda Davlat suv kadastrining umumiy prinsiplarini va ilmiy-metodik asoslarini, Davlat suv kadastrini yuritish, Davlat suv kadastrining avtomatlashtirilgan geoaxborot tizimini loyihalash va tashkil etish tartibini ishlab chiqadi;

b) Davlat suv kadastrini tashkil etish va yuritishga oid barcha ishlarni muvofiqlashtiradi, yo‘naltiradi va birlashtiradi;

d) Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Suv xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda Davlat suv kadastrining idoralararo normativ-texnik hujjatlarini (shu jumladan, Davlat suv kadastrining avtomatlashtirilgan geoaxborot tizimi uchun idoralararo loyiha hujjatlarini) ishlab chiqadi;

e) Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan Suv kadastrini yuritishga oid metodik ko‘rsatmalarni, DSK avtomatlashtirilgan geoaxborot tizimi orqali ma’lumot va xizmatlarni taqdim etish va DSKga oid boshqa normativ-texnik hujjatlarni, shuningdek, DSKning avtomatlashtirilgan geoaxborot tizimi uchun loyiha hujjatlarini kelishib oladi;

f) Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Suv xo‘jaligi vazirligi mutaxassislarini jalb qilgan holda yerusti suvlari va yerosti suvlari hamda ulardan foydalanish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ma tahlil qilishni, bog‘lashni va avtomatlashtirilgan geoaxborot tizimi orqali umumlashtirishni bajaradi hamda ma’lumot va xizmatlarni taqdim qiladi;

[101] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.10.2022-y., 09/22/610/0938-son.

g) Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Suv xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda Davlat suv kadastri axborotnomasini nashr etishga tayyorlaydi.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi “Yerosti suvlari” bo‘limi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

bo‘lim bo‘yicha Davlat suv kadastrini (jumladan, Davlat suv kadastrining avtomatlashtirilgan geoaxborot tizimini) yuritish tizimini ishlab chiqadi va takomillashtiradi;

yerosti suvlarining klassifikatorlarini ishlab chiqadi;

yerosti suvlari to‘g‘risidagi axborotlarni to‘plash, nazorat qilish, qayta ishlash va umumlashtirishga oid usullarni, algoritmlarni va avtomatlashtirilgan dasturlarni ishlab chiqadi;

axborotlarni kodlashtirish va saqlash usullarini ishlab chiqadi;

bo‘lim bo‘yicha Davlat suv kadastrining avtomatlashtirilgan geoaxborot tizimi funksional kichik tizimlarini loyihalash, sinash, joriy etish va takomillashtirishni ta’minlaydi;

Suv kadastri hududiy markazlari va mahalliy organlari uchun Davlat suv kadastrini yuritishga oid metodik ko‘rsatmalarni, bo‘lim bo‘yicha Suv kadastri avtomatlashtirilgan geoaxborot tizimi orqali ma’lumot va xizmatlarni taqdim etadi va boshqa normativ-texnik hujjatlarni ishlab chiqadi;

yerosti suvlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, nazorat qilish, qayta ishlash, saqlash va ularni foydalanuvchilar so‘roviga ko‘ra berishni amalga oshiradi;

yerosti suvlari resurslarini joriy va istiqbol uchun hamda ularning xo‘jalik faoliyati ta’siridagi o‘zgarishlarini baholaydi;

“Yerosti suvlari” bo‘limi bo‘yicha Davlat suv kadastri avtomatlashtirilgan geoaxborot tizimi orqali ma’lumot va xizmatlarni taqdim etadi;

“Suvdan foydalanish” bo‘limi bo‘yicha Davlat suv kadastrini yuritish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni Suv xo‘jaligi vazirligiga taqdim etadi;

o‘ziga qarashli muassasalar hamda tashkilotlar tomonidan bajariladigan Davlat suv kadastrini ishlab chiqish va yuritishga oid ishlarga rahbarlik qilish, rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilishni amalga oshiradi;

doimiy ravishda suvdan foydalanuvchilar va suv iste'molchilari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar va hisobotlar asosida kadastr ma'lumotlarini yillik umumlashtirish, shuningdek, ekspluatatsion quduqlar va buloqlarni kamida uch yilda bir marta gidrogeologik tadqiqotlar natijalari, monitoring tadqiqotlari natijalari bilan yangilab boradi.

Yuqorida Davlat suv kadastri yuritish mexanizmi doirasida belgilangan chora-tadbirlar tahlil etildi. Bizningcha, suv kadastri yurituvchi tashkilotlar faoliyatida suv isrofgarchiligining oldini olish hamda to‘g‘ri taqsimlanishiga aniqlik kiritish uchun **"Smart Water"** elektron taqsimlash tizimini keng joriy etish, bu orqali nazorat organlariga suv hisobi to‘g‘risidagi ma'lumotlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri olish imkoniyatlari yaratiladi.

Shuningdek, 2022-yil 7-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yerosti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 439-sonli qarori[102] yerosti suvlari davlat kadastri faoliyatini yanada yaxshilash yo‘lida muhim qadam bo‘lib, 2024-yil 1-yanvarga qadar yerosti suvlaridan foydalanishning aniq hisobini yuritish maqsadida o‘z tasarrufidagi yerosti suv olish inshootlarini suv hisoblash vositalari bilan belgilangan tartibda jihozlash majburiyati yuklatildi. Bu albatta sohada muhim qadam bo‘lib xizmat qildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-fevral 2025-yildagi "O‘zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida"gi 16-sonli Farmoni bilan **Kollektor-drenaj tarmoqlaridagi suvlari sifatining monitoringini olib borish** vazifasi qo‘yildi.

Bir so‘z bilan aytganda, bugun atrofimizda ro‘y berayotgan suv bilan bog‘liq ekologik muammolardan har birimiz tegishli xulosa chiqarib, suvni tejash va isrof qilmaslik tamoyilini kundalik mezonimizga aylantirishimiz zarur. Bugun bizga hayot va zavq ulashayotgan toza ichimlik suvidan kelajak avlod ham bizdek bahra olishi lozim.

[102] Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.12.2022-y., 07/22/439/1081; 10.08.2023-y., 06/23/116/0579-son.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa

Yerosti suvlaridan foydalanish tartibi, **quduqlarni burg‘ulash uchun** ruxsatnoma olish tartibi va mexanizmi, yerosti suv resurslaridan maxsus foydalanishga ruxsatnoma berish bilan faoliyati birlashtirilganligi, yerosti suvlari bilan bog‘liq munosabatlarda maxsus vakolatli davlat organlari, ularning faoliyati bo‘yicha huquqiy hujjatlarda yoritilganligi hamda faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar yoritildi.

Yerosti suvlari bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni tartibga solishda oxirgi qonunchilikdagi o‘zgartirishlar, ularni ijobiy va salbiy taraflari, ularning ijro mexanizmi hamda bu bo‘yicha **Ma’muriy javobgarlik kodeksi, Soliq kodeksi, “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon** va boshqa normativlarga kiritilgan o‘zgarishlarning huquqiy muhokamasi berildi.

Yerosti suvlari bilan bog‘liq munosabatlarni kengroq tahlil etish davomida ***“tabiiy resurslardan oqilona foydalanish”, “yerosti suvlaridan oqilona foydalanish” va “yerosti suvlari davlat monitoring”*** kabi tushunchalar qonunchiligimizda o‘z ta’rifga ega bo‘lmaganligi tufayli ularga huquqiy asoslantirilgan, ixcham va sodda ta’riflar ishlab chiqilib, qonunchilikka kiritish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi vakolatlari, uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan xorijiy davlatlar, masalan, **Rossiya Federatsiyasi, Belarus** kabi davlatlarning qonunchiligidagi ilg‘or zamonaviy jihatlari tahlil etildi.

Sohada davlat nazoratini kuchaytirish maqsadida burg‘ilovchi subyektlarga o‘z tasarrufidagi burg‘ilash uskunalarini **GPS-trekerlar** bilan jihozlash, gidrogeologik stansiyalar faoliyati, “Situatsion markaz”ning imkoniyatlari, monitoringni amalga oshirishning zamonaviy imkoniyatlari haqida ma’lumot berilgan.

Davlat suv kadastri faoliyatini to‘laqonli ochib berishga qaratilgan jarayonni raqamlashtirish, uni o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad, suv kadastri obyektlari, uni yuritishning asosiy prinsiplari, mohiyati, vakolatli davlat organlari faoliyati bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1.1 O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.

1.2 O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi.

1.3 O‘zbekiston Respublikasining “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi Qonuni.

1.4 O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksi.

1.5 O‘zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni.

1.6 O‘zbekiston Respublikasining “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi 784-sonli Qonuni.

1.7 O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonuni.

1.8 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerosti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

1.9 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni 6044-son.

1.10 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori.

1.11 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer qa’ridan foydalanish, sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi hamda atom energiyasidan foydalanish sohalarida davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli Farmoni.

1.12 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida suv xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 101-sonli Farmoni.

1.13 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6079-sonli Farmoni.

1.14 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 171-sonli qarori.

1.15 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerosti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 439-sonli qarori.

1.16 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.17 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

1.18 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

1.19 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tabiatni muhofaza qilishni ta’minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 820-son qarori.

1.20 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlaridan foydalanish sohasidagi faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 430-sonli qarori.

1.21 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari haqida”gi 11-sonli qarori.

1.22 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maxsus elektron tizim orqali ruxsat etish xususiyatiga ega ayrim hujjatlarni berish tartib-taomillari to‘g‘risidagi yagona nizomni tasdiqlash haqida”gi 86-son qarori.

1.23 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yerosti suvlariga quduqlarni burg‘ilash va ulardan foydalanish munosabatlarini tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 685-son qarori.

1.24 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 737-sonli qarori.

1.25 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining yer qa’ri monitoringini olib borish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 119-sonli qarori.

1.26 O‘zbekiston Respublikasining Davlat bosh sanitar vrachining “O‘zbekiston aholisining xo‘jalik-ichimlik suv ta’minoti markazlashtirilgan tizimi suvining gigiyenik mezonlari va ular sifatining nazorati haqida”gi qarori.

1.27 O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining “Yerosti va yerusti suv obyektlarini muhofaza qilish bo‘yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini (0083-24-son SanQvaN) tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

II. Kitoblar, qo‘llanmalar, monografiyalar va tavsiyalar

2.1 Ekologiya huquqi: darslik // Bozorov U.B., Xolmo‘minov J.T., Jurayev Y.O., Usmonov M.B. va boshqalar. Mas’ul muharrir y.f.d., prof. J.T. Xolmo‘minov. – T.: TDYU, 2018. – B. 375.

2.2 Xolmo‘minov J.T.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ekologik xavfsizlikni ta’minlash, agrar va energetika sohasini rivojlantirishga oid konseptual g‘oyalarini o‘rganish: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: TDYU, 2020. – 528 b.

2.3 Экологическое право: учеб. пособие для студ. учреждений высшего проф. образования / О.Р. Саркисов, Е.Л. Любарский. – 5-е изд., переработанное и доп. – Казань: Центр инновационных технологий, 2014. – 335 с.

2.4 Fundamentals of Environmental Law and Compliance, Daniel T. Rogers, CRC Press Taylor & France Group 2023, p 421.

2.5 Contemporary Issues in Environmental Law, Yumiko Nakanishi, Sipringer Japan 2016, p 216.

2.6 Гледко Ю.А. Гидрогеология: учеб. пособие / Ю. А. Гледко. – Минск : Виш. шк., 2012. – 195 с.

2.7 Mays Larry W. “Groundwater resources sustainability: past, present, and future”. Water Resources Management 27 (2013): 4412.

2.8 Вернадский В И История минералов земной коры Т. 2 история природных вод 1960 г.

2.9 Raghavendra, N. Sujay, and Paresh Chandra Deka. “Sustainable development and management of groundwater resources in mining affected areas: a review”. Procedia Earth and Planetary Science 11 (2015): 598.

2.10 Burchi, Stefano. “Legal principles and legal frameworks related to groundwater”. Advances in groundwater governance. CRC Press, 2017. 122.

2.11 Yazicigil, Hasan, and Mehmet Ekmekci. “Groundwater”. Water Resources of Turkey (2020): 164.

2.12 Право природопользования в СССР // Отв ред И А Иконицкая Коллективная монография. – М.: Наука, 1990. – С. 39.

2.13 Заславская Л.А. Соотношение земельного, водного, лесного и горного законодательства // Ученые записки ВНИИСЗ, вып 18. 1969. – С. 78. Заславская Л.А. Законодательство о недрах // Советское государство и право, № 7, 1977. – С. 67.

2.14 Aagaard, Todd S. "Environmental law as a legal field: an inquiry in legal taxonomy". Cornell L. Rev. 95 (2009): 221.

2.15 Younger, Paul L. Groundwater in the environment: an introduction. John Wiley & Sons, 2009.

2.16 Pacheco, Fernando AL. "Regional groundwater flow in hard rocks". Science of the Total Environment 506 (2015): 182.

2.17 Sophocleous, Marios. "Interactions between groundwater and surface water: the state of the science". Hydrogeology journal 10 (2002): 55.

2.18 Christoff, Peter. "Ecological citizens and ecologically guided democracy". Democracy and green political thought. Routledge, 2003. 162 p.

2.19 Hall, David, and Emanuele Lobina. "Private and public interests in water and energy". Natural resources forum. Vol. 28. No. 4. Oxford, UK: Blackwell Publishing Ltd., 2004.

2.20 Governance, Groundwater. "A global framework for action". GEF and FAO (2017).

2.21 Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan brifing 10.02.2025.

III. Maqolalar, ma’ruzalar, tezislar

3.1 O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining 2025-yil 24-yanvardagi majlisi bayoni.

3.2 O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. (2023). Atrof-muhit holati to‘g‘risida milliy ma’ruza: O‘zbekiston. Barqaror rivojlanish xalqaro instituti.

3.3 Rai, Suresh Chand. "Water management for a megacity: national capital territory of Delhi". Water resources management 25 (2011): 2267-2278.

3.4 Rosegrant, Mark W., Claudia Ringler, and Tingju Zhu. "Water for agriculture: maintaining food security under growing scarcity". Annual review of Environment and resources 34.1 (2009): 205.

3.5 Lachassagne, Patrick. “What is groundwater? How to manage and protect groundwater resources”. Annals of Nutrition and Metabolism 76.Suppl. 1 (2021): 17–24.

3.6 Griebler, Christian, et al. “Legal frameworks for the conservation and sustainable management of groundwater ecosystems”. Groundwater ecology and evolution (2023): 551–571.

3.7 Conti, Kirstin I., and Joyeeta Gupta. “Protected by pluralism? Grappling with multiple legal frameworks in groundwater governance”. Current Opinion in Environmental Sustainability 11 (2014): 46.

3.8 Misstear, Bruce, David Banks, and Lewis Clark. Water wells and boreholes. John Wiley & Sons, 2017.

3.9 Kiselyov, Alexandr, et al. “Solving the problems of conservation and rational use of natural resources as a modern factor in the development of the world and regional economy”. E3S Web of Conferences. Vol. 291. EDP Sciences, 2021.

3.10 Boelens, Rutgerd, and Jeroen Vos. “Legal pluralism, hydraulic property creation and sustainability: The materialized nature of water rights in user-managed systems”. Current Opinion in Environmental Sustainability 11 (2014): 55-62.

3.11 Nowicki, Saskia, Johanna Koehler, and Katrina J. Charles. “Including water quality monitoring in rural water services: Why safe water requires challenging the quantity versus quality dichotomy”. Npj Clean Water 3.1 (2020): 14.

IV. Monografiya va avtoreferatlar

4.1 Hayitov Hasan Shermatovichning “O‘zbekiston Respublikasida suv qonunchiligining rivojlanishi va takomillashtirish istiqbollari” mavzusidagi avtoreferat. 2024.

4.2 Shofiyev Zoir Shoniyozovichning “O‘zbekiston Respublikasida fermer xo‘jaliklarining suv resurslaridan foydalanishini huquqiy tartibga solish muammolari” mavzusidagi avtoreferat. 2023.

4.3 Absametov, Malis, et al. “Assessment of the groundwater for household and drinking purposes in central Kazakhstan”. Groundwater for Sustainable Development 21 (2023).

4.4 Human Rights Council. Report of the Independent Expert on the Issue of Human Rights Obligations related to Access to Safe Drinking Water and Sanitation, Catarina de Albuquerque. A/HRC/12/24. 1 July 2009.

4.5 Gilbert, Janine, Dan L. Danielopol, and Jack A. Stanford, eds. Groundwater ecology. Vol. 1. Academic Press, 1994.

4.6 Mandel, Samuel. Groundwater resources: investigation and development. Elsevier, 2012.

4.7 Fornés, Juan María, et al. “Legal aspects of groundwater ownership in Spain”. Water international 32.4 (2007): 676–684.

4.8 Malard, Florian, Christian Griebler, and Sylvie Rétaux, eds. Groundwater ecology and evolution. Elsevier, 2023.

4.9 Van der Gun, Jac. “The global groundwater revolution”. Oxford Research Encyclopedia of Environmental Science. 2019.

4.10 Cullet, Philippe. Water law, poverty, and development: Water sector reforms in India. OUP Oxford, 2009.

4.11 Yevraziyskiy mejdunarodnыy nauchno-analiticheskiy jurnal. Problemы sovremennoy ekonomiki. № 4 (40).2011 – 40 str.

V. Xorijiy manbalar

5.1 UNEP (2008) Vital water graphics – an overview of the state of the world’s fresh and marine waters, 2nd edn. UNEP, Nairobi. ISBN 92-807-2236-0.

5.2 Grönwall, Jenny, and Kerstin Danert. “Regarding groundwater and drinking water access through a human rights lens: Self-supply as a norm”. Water 12.2 (2020): 419.

5.3 Gorokhovich Y, Mays LW, Ullmann L (2011) A survey of ancient minoan water technologies, water science and technology: water supply 114(4):388.

5.4 Belarus Respublikasi Yer qa’ri kodeksi.

5.5 Rossiya Federatsiyasi Yer qa’ri kodeksi.

5.6 Rossiya Federatsiyasi Suv kodeksi.

5.7 Van der Aa, Monique. “Classification of mineral water types and comparison with drinking water standards”. Environmental geology 44.5 (2003): 554-563.

5.8 Zhang, Yong-wang, et al. “Changes in soil water holding capacity and water availability following vegetation restoration on the Chinese Loess Plateau”. Scientific Reports 11.1 (2021): 9692.

5.9 Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo‘mitasining Inson huquqlari bo‘yicha Komissarining 2003-yildagi 15-sonli qarori.

5.10 Golovina, Ekaterina I., and Anastasia V. Grebneva. “Management of groundwater resources in transboundary territories (on the example of the Russian Federation and the Republic of Estonia)”. Записки Горного института 252 (2021): 788–800.

5.11 Mandel, Samuel. Groundwater resources: investigation and development. Elsevier, 2012.

5.12 UN General Assembly. Special Rapporteur on the Human Right to Safe Drinking Water and Sanitation Catarina de Albuquerque. Human right to safe drinking water and sanitation: Note by the Secretary-General. 2013.

5.13 World Health Organization “Reinforcing the focus on anti-corruption, transparency and accountability in national health policies, strategies and plans” 2019, 44 pages.

VI. Internet saytlar

6.1 https://gov.uz/oz/mingeo

6.2 https://sdgs.un.org/goals/goal6

6.3 https://parliament.gov.uz/news/islohotlarning-huquqiy-asoslarini-mustahkamlash-asosiy-vazifa

6.4 https://www.sympoetic.net/Managing_Complexity/complexity_files/1973%20Rittel%20and%20Webber%20Wicked%20Problems.pdf

6.5 https://voda.gov.ru/favr/agency/polozhenie/

6.6 https://2019.minexkazakhstan.com/ru/the-committee-of-geology-and-subsoil-use/

6.7 https://suvmap.uz/

1.8 https://www.refworld.org/legal/general/cescr/2003/en/39347

6.9 https://www.narayanahealth.org/blog/effects-of-water-borne-disease-in-health-and-its-prevention

6.10 file:///C:/Users/HP/Downloads/Strategic_Issues_Groundwater_Extrac.pdf

6.11 https://complyadvantage.com/knowledgebase/anti-money-laundering/aml-compliance-officer/

6.12 https://www.coe.int/en/web/greco/about-greco

6.13 https://www.fatf-gafi.org/pages/moneyval.htm

6.14 https://www.iaaca.net/

6.15 https://www.oecd.org/general/38464001

6.16 https://www.accaglobal.com/gb/en.html

6.17 www.zakon.kz.

OTAMIRZAYEV OYBEK MURODULLO O‘G‘LI

YEROSTI SUVLARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH VA UNDAN OQILONA FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Monografiya

Toshkent davlat yuridik universiteti
Toshkent – 2025

Bosh muharrir	O. Choriyev
Muharrir	K. Abduvaliyeva
Musahhih	S. Rasulova
Texnik muharrir	U. Sapayev
Dizayner	D. Rajapov

Tasdiqnoma
№ 174625, 29.11.2023-y.

27.11.2025-yilda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$.
“Cambria” garniturasi. Nashriyot hisob tabog‘i 6.
Shartli bosma tabog‘i 6,5. Adadi 33. Buyurtma raqami 191.

Toshkent davlat yuridik universiteti nashriyoti.
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy.
Tel.: +998 71 233-66-36. veb-sayt: www.tsul.uz

Toshkent davlat yuridik universiteti bosmaxonasida chop etildi.
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 37-uy.